Durdona

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADOVA ZEBINISO SHAVKATOVNA**

# MILLATGA NAJOT YO‘LIN KO‘RSATGAN JADID

**monografiya**

DURDONA

**“Durdona” nashriyoti**
**Buxoro – 2023**

www.nitropdf.com

Durdona

**УЎК 821.512.133.09(092)**
**КБК 83.3g(5O‘)**
**A 98**
Ahmadova, Z. Sh.
Millatga najot yo‘lin ko‘rsatgan jadid [Matn] / Zebiniso Shavkatovna Ahmadova; mas'ul muharrir Jamolova D.M. – Toshkent : Sadriddin Salim Buxoriy, 2023. – 136 b.

**КБК 83.3g(5O‘)**

*Mazkur monografiyada Buxoro jadidchilik harakati yetakchisi Abdurauf Fitratning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ilmiy-ijodiy faoliyati ochib berilgan hamda Abdurauf Fitratning Buxoro va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati, u tomonidan yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar, dramalar, islohot dasturi, marifatparvarlik tashabbuslari, vatanparvarlik xususiyatlari tadqiq etilgan.*

*Monografiya tarixshunoslar, siyosatshunoslar, ilmiy izlanuvchilar, magistrantlar, talabalar, soha mutaxassislariga mo’ljallangan bo’lib, oliy o’quv yurtlarining tarix va yuridik fakultetlarida, kasb-hunar kollejlarida, umumta’lim maktablarida, tarixiy sanalarda va o’zbekiston tarixi fanlarini o’tishda, soha bo’yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda qo’shimcha materil vazifasini bajaradi.*

DURDONA

**Mas’ul muharrir:**
Jamolova D.M., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Taqrizchilar:**
Inoyatov S.I., Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori
Qurbonov X.R., Navoiy davlat pedagogika instituti birinchi prorektori, tarix fanlari nomzodi, dotsent

***Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2023-yil 2-iyundagi qaroriga asosan (bayonnoma №5) nashrga tavsiya etilgan.***

**ISBN 978-9910-736-35-3**

www.nitropdf.com

Durdona



# SO‘Z BOSHI

Jahonda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar har bir davlat, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar tarixini, bu munosabatlarning faol ishtirokchisi bo‘lgan, xalq va yurt manfaati uchun jon fido qilgan tarixiy shaxslar faoliyatini keng, chuqur tadqiq etish muhimligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy ozodlik uchun kurashlari va jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan taraqqiyparvar shaxslarning xizmatlarini xolis o‘rganish, e’tirof etish, har bir xalqning o‘z ajdodlari milliy qiyofasini teran anglash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakati namoyandalari faoliyati tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, milliy ozodlik harakati ishtirokchilari va qo‘rboshilari, taraqqiyparvarlar, davlat va jamoat arboblarining ibratli hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati kabi masalalar tadqiq etilgan. Biroq, Abdurauf Fitratning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni, ilmiy va ijodiy faoliyati yetarlicha o‘rganilmagan. Bu o‘z navbatida ajdodlar merosini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda, yangicha yondashuvda tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va yangi jamiyat qurishda xalqimizning boy tarixi, madaniyati, an’analarini va tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini, ma’naviy merosini chuqur o‘rganish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab faoliyat olib borgan ma’rifatparvar, taraqqiyparvar shaxslarning ibratli hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini asl manbalar hamda zamon talablari asosida o‘rganish zaruriyat va dolzarblik kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan



www.nitropdf.com

Durdona



jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsad yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-sonli Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil-26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monagrafiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Abdurauf Fitratning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy faoliyatining ayrim jihatlari haqida yaratilgan tadqiqotlari, asar va maqolalarni uch guruhga ajratish mumkin.

1. Sovet davrida yaratilgan ishlar.
2. Mustaqillik yillarida chop etilgan kitob va maqolalar.
3. Xorijda chop etilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid J.Boybo‘latov, S.Ayniy, A.Sa’diy, H.Olimjon, U.To‘ychiyev, E.Karimov, A.Aliyev va boshqalar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, asarlarda, shuningdek, sovet davri tadqiqotlarida Abdurauf Fitratning adabiy faoliyatiga urg‘u berilgan. Ushbu adabiyotlar sovet hokimiyati yillarida shakllangan kommunistik mafkura, sinfiylik nazariyasi, markscha-lenincha metodologiyaga asoslangan bo‘lib, Fitrat “vatan xoini”, “sotqin”, “burjua millatchisi”, “xalq dushmani” sifatida talqin etilgan.

Mustaqillik arafasida va istiqlol yillarida Abdurauf Fitratning adabiy, tilshunoslik, matnshunoslik, dramaturgiya, ijtimoiy sohadagi faoliyati keng tadqiq qilindi. Shu o‘rinda B.Qosimov, Sh.Turdiyev, H.Boltaboyev, Q.Rajabov va Z.Abdirashidovlarning fitratshunoslik faoliyatini alohida e’tirof etish joiz. Ular Abdurauf Fitratning shaxsi, uning ilmiy, ijtimoiy, pedagogika sohasidagi faoliyatini yoritishga harakat qildilar. Mutafakkirning huquqiy,



www.nitropdf.com

Durdona



pedagogik va falsafiy qarashlari esa M.Ergasheva, B.Ergashev, U.Amonov va boshqalar tomonidan o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining bir guruh xodimlari va yetakchi olimlar tashabbusi bilan “Tarixning noma’lum sahifalari” nomli hujjat va materiallar to‘plami nashr etilmoqda. Mazkur hujjat va materiallar to‘plamlarida sovet boshqaruvi tuzumiga qarshi muxolifatda bo‘lgan milliy ziyolilar ichida Abdurauf Fitrat hayoti bilan bog‘liq muhim ma’lumotlar keltiriladi. Ayniqsa, bolsheviklar tomonidan “aksilinqilobiy” va “aksilsho‘roviy” tashkilotlarda ishtirok etishda ayblangan milliy ziyolilarning qatag‘on qilinishiga doir hujjatlarning e’lon qilib borilishi diqqatga molikdir.

Monagrafiya tadqiqotiga oid adabiyotlarning uchinchi guruhi xorijlik olimlar tomonidan yaratilgan asarlardir. Fitrat shaxsining ayrim jihatlarini ochib bergan olim Adib Xolid bo‘lib, uning O‘rta Osiyoning XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixiga, jadidchilik masalalariga bag‘ishlangan deyarli har bir maqolasi va monografiyasida Fitrat shaxsi tilga olingan. Turkiston jadidchiligining asoslarini tadqiq etgan amerikalik tarixchi Adib Xolid uning paydo bo‘lishini Markaziy Osiyo jamiyatining transformatsiyasida hamda rus bosqini va uning Islom olami doxil butun dunyoni qayta taqsimlashga bo‘lgan harakati natijasida zamonaviylikka zamonaviy “javob” sifatida shakllangan, deb hisoblaydi. Xolid jadidcha ma’rifat yoyish orqali “zamonaviy va shu bilan bir qatorda musulmonchilikni mahkam ushlagan va Turkiston va Buxoroga sodiq bo‘lgan yangi elita yaratishga va buning natijasida zamonaviy dunyoda mintaqaning manfaatlarini himoya qilishga shay bo‘lgan ishga harakat qilgan turkistonlik jadidlar va ularning izdoshlarini ajratib ko‘rsatishga urinadi. Xolidning ta’kidlashicha, Turkiston va Buxoro jadidchiligi aksar holatlarda Qrim va Volga-Ural tatarlari fikrlarini inkor etgan va maktab ishi, adabiy til va boshqa masalalarda mintaqa voqeligiga mos yo‘llar topishga harakat qilgan.

Shuningdek, yaponiyalik olim Hisao Komatsu, turkiyalik olim Timur Xo‘ja o‘g‘li va boshqalar Abdurauf Fitrat hayoti va



www.nitropdf.com

Durdona



faoliyatining ayrim jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

MDH davlatlarida jumladan, tojikistonlik tarixchilar N. Xotamov, I. Usmonov, M. Boqiev, K. Rasulov, N. G‘afforovlar tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, yo‘nalishlari va uning tarixiy jihatlari, Abdurauf Fitratning tarixiy jarayonlarda tutgan o‘rni tahlil qilingan.

Buxoro jadidchilik harakatining yirik vakili Abdurauf Fitratning ilmiy, adabiy va tarixiy merosi O‘zbekiston tarixi, adabiyoti, musiqasi, pedagogikasi tarixini o‘rganishga xizmat qiladi. Uning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faoliyati, islohotlar dasturini yaratish borasidagi xizmatlari XX asr boshlarida Buxoro va Turkistonda kechgan siyosiy jarayonlar monografik planda o‘rganilgan.

Monografiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek hamda jahon tarixshunoslarining ilmiy izlanishlari e’tiborga olingan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va jadidchilik harakatining yuzaga kelishini tahlil qilinib, Buxoro jadidchiligining asosiy yo‘nalishlarini ochib berilgan.

Fitrat hayotining asosiy bosqichlari va ma’rifatparvarlik qarashlari, mutafakkirning ilmiy va ijodiy faoliyati, Abdurauf Fitrat dramalarida O‘zbekiston tarixidagi voqea va jarayonlarning aks etishi, Abdurauf Fitratning islohot dasturi va davlat boshqaruvidagi faoliyati hamda taraqqiyparvarning fojiali taqdiri bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar asoslab berilgan. Tadqiqotda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, tarix fanida tan olingan zamonaviy yondoshuv va usullarning qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi arxiv hujjatlari, tarixiy adabiyotlardan, davriy matbuot materiallaridan foydalanilganligi, keltirilgan materiallar birlamchi manbalarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanib manbaalar asosida monografik tarzda tekshirilgan.



www.nitropdf.com

Durdona



# I BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA TARIXIY VAZIYAT VA ABDURAUF FITRAT IJTIMOIY-SIYOSIY DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDAGI OMILLAR

## §1.1. Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

O‘zbek xalqi asrlar davomida erk va ozodlikka erishish, milliy mustaqillik uchun doimo kurashib kelgan. Milliy ozodlik va mustaqillik kurashi tarixida xalqni tenglikka, erkinlikka, ozodlikka chorlagan, fidoyi jadidlar, taraqqiyparvarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakatining tashabbuskorlarini mustamlaka Turkistondagi inqirozli holat, xalqning chor ma’murlari, ham mahalliy amaldorlarning ikki tomonlama zulmi ostida qolganligi, ularning qashshoqligi, erki va haq-huquqlarining oyoqosti qilinayotgani tashvishga solgan edi. Ular jamiyatning haddan ziyod taraqqiyotdan orqada qolganligi, madaniy qoloqlikni teran anglab, davlat tuzumi va boshqaruvini isloh qilishni, xalqni savodxon, ma’rifatli qilishni mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘lishni istiqbol yo‘li deb bildilar. Jadidlar millat va mamlakatni rivojlantirish, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish uchun nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham fidoyilik ko‘rsatdilar.

Buxoro jadidchiligi Turkiston Jadidchilik tarixida alohida ahamiyatga ega harakat bo‘lib, uning vujudga kelishiga Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bevosita ta’sir ko‘rsatdi[1].

Buxoro amirligi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida monarxiya tartiblariga asoslangan, Rossiyaga qaram bo‘lgan yarim mustamlaka davlat edi. Amir Muzaffarxon davridayoq boshlangan yarim mustamlaka sharoitida hukmronlik qilish uning vafotidan so‘ng farzandi Sayid Abdulahadxon (1885-1910)ga nasib etdi. Amir Muzaffarxon o‘g‘li Abdulahadxonni 1883-yilda Peterburgga rus imperatori Aleksandr III (1881-1894) huzuriga Buxoro taxtiga bo‘lajak vorisligini tasdiqlatish uchun yubordi. 1883-yilgi

[1]Эргашева М. Абдурауф Фитратнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари. Юридик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Тошкент, 2002. – Б.11.



www.nitropdf.com

Durdona



Peterburg sayohati Abdulahadxon qarashlarida tub burilish yasadi. U “Jadidchilik harakatining otasi” Ismoilbek Gaspirinskiy bilan uchrashdi va “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘ldi[1]. Abdulahadxon Buxoroning jahon taraqqiyotidan ancha ortda qolganini anglab, hamma sohalarda jiddiy o‘zgarishlar qilish zarurligini tushunib yetdi. 1885-yil 31-oktabrda amir Muzaffarxon 62 yoshida vafot etgach, Karmana hokimi bo‘lib turgan 28 yoshli o‘g‘li Abdulahadxon 1885-yil 4-noyabrda valiahd sifatida amirlik taxtiga o‘tirdi[2].

Amir Abdulahadxon amirlik taxtiga o‘tirgan vaqtida mamlakat ijtimoiy hayotida ham bir qancha qusurlar mavjud bo‘lib, amaldorlar o‘rtasida poraxo‘rlik, ta’magirlik avj olgan, jamiyatda giyohvandlik, bachchabozlik, qimorbozlik keng tarqalgan edi. Bu illatlarga barham berish maqsadida Amir Abdulahadxon sud-huquq tizimini tartibga solishga kirishadi hamda ta’magirlik va poraxo‘rlik qilgan amaldorlarni lavozimidan chetlashtirdi. Barcha viloyat qozilari va tuman oqsoqollarini ishdan olib, o‘rniga yangilarini tayinladi[3]. Nasha chekish, ko‘knor ichish, bachchabozlik, qul savdosi, qatl qilish va tan jazolari amir buyrug‘i bilan rasman ta’qiqlandi. 1886-yilda amirlikdagi zindonlarning bir qismini yopishga buyruq berdi. Buxoro shahridagi kanaxona ko‘mib tashlandi[4].

Amir Abdulahadxon Markaziy Osiyo hududida temir yo‘l qurilishiga xayrixoh bo‘lib, uning ruxsati bilan 1888-yilda Rossiya harbiy ishlar vazirligi tomonidan Buxoro-Samarqand temir yo‘li quriladi. Kaspiyorti temir yo‘l tarmog‘ining Buxorogacha yetib kelishi pochta, telegraf va telefon xizmatlarining joriy etilishini tezlashtirdi. Mamlakatga rus kapitali kirib kela boshladi. Amir o‘z hisobidan Yangi Buxoro (hozirgi Kogon)dan Eski Buxorogacha 12 km.li temir yo‘l qurishga qaror qildi. Uning moliyaviy ko‘magi bilan Amudaryodan o‘tuvchi temir yo‘l ko‘prigi loyihalashtirilib,

[1] Амир Саййид Абдулаҳадхон Бухорий // “Таржимон” (Боғчасарой), 1892 йил 31 июль. - № 27.

[2] Шубинский П. Очерки Бухары. // Исторический вестник. Вып. XLIX. СПб, 1892. – С. 122.

[3] Бухоро давлат меъморий-бадиий музей қўриқхонаси қўлёзмалар фонди. Инв № 12435/12; инв № 10587/ II.

[4] Шубинский П. Очерки Бухары. – С. 124-126.



www.nitropdf.com

Durdona



1898-yilning 17-oktabridan 1901-yilning 27-mayigacha 750 metrlik ko‘prik qurildi. Ko‘prik qurilishiga 3468000 rubl miqdorda sarflangan pul amir tomonidan berilgan bo‘lsa-da, uning tepasidagi lavhda “*Bu ko‘prik Nikolay II (1868-1918-) hazratlari tomonidan, Amir Abdulahad ishtirokida qurildi*”, deb yozib qo‘yilgan[1].

Amir Abdulahadxon amirlik hududida jamoat tartibini saqlash masalalarini ham zamon talablariga moslashtirishga intilgan. 1895-yilda tarkibi 2000 kishidan iborat bo‘lgan, amirlikning yirik shaharlarida xizmat qilishi mo‘ljallangan Buxoro milisiyasini tashkil qilgan[2].

Amir Abdulahadxon jadidchilik harakati asoschisi Ismoil Gaspirinskiy bilan do‘stona aloqa o‘rnatgan bo‘lib, 1893-yilning 12-iyunda Shahrisabzda uchrashadi. Suhbat davomida Ismoilbek jadid maktablarining ahamiyati va Rossiyadagi ta’lim tizimi haqida ma’lumot beradi. Amir Abdulahadxon uning maorif sohasidagi harakatlarini yuqori baholab, tashrifi uchun minnatdorchilik bildiradi.

Amir Abdulahadxon aholi sog‘ligini saqlashga ham alohida e’tibor qaratdi. 1888–1889-yillarda Buxoro amirligida bezgak kasali tarqaladi. Aholining yoppasiga qirilib ketishidan xavotirga tushgan Amir Abdulahadxon kengash chaqirib, kasallikni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqdi. 1889-yilda bezgak kasalini davolash uchun Rossiyadan 6000 rubllik dori sotib olgan. 1897-yilda esa “hind vabosi” kasalining mamlakatda tarqalishini oldini olish maqsadida chegaralardan hindlarni kiritmaslikka qat’iy amr bergan[3]. Ammo hindlarning turli yo‘llar bilan Buxoroga kirib kelishi davom etavergach, qozikalon va devonbegi maslahati bilan afg‘on chegaralarida harbiy qo‘riqchilar joylashtirilgan. Shuningdek, vaboning tarqalishi munosabati bilan buxoroliklarning Haj safariga borishiga ruxsat berilmagan.

Amir Abdulahadxon topshirig‘iga ko‘ra, 1897-yilda Buxoro shahrida nogiron va muomalaga layoqatsizlar uchun zamonaviy tartibdagi nogironlar uyi tashkil etilib, ular kuniga ikki mahal issiq

[1] Чоржўй // “Таржимон” газетаси. 1901 йил 7 июль. - № 21.
[2] Бухоро // “Таржимон” газетаси. 1895 йил 17 сентябрь. - № 35.
[3] Бухоро // “Таржимон” газетаси. 1897 йил 17 февраль. – № 7.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



ovqat bilan ta’minlangan[1]. Shuningdek, amir homiyligi va nazorati ostida Buxoro shahrida zamonaviy shifoxona va dorixona faoliyat yuritgan[2].

Amir Abdulahadxon olib borayotgan siyosat va islohotlar konservator ulamolar noroziligiga sabab bo‘lgan. Ikkinchi tomondan, Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi Amir Abdulahadxonning mustaqil siyosat yuritishiga to‘sqinlik qilgan. 1894-yilda amir Buxoroning ob-havosi va iqlimi sog‘ligiga to‘g‘ri kelmayotganini bahona qilib, Karmanaga ko‘chib o‘tadi. U yerda o‘ziga alohida rezidensiya qurdirib, doimiy yashab qoladi va shu yerdan turib umrining oxirigacha (1910) amirlikni boshqardi.

Amir Abdulahadxon hukmronligining so‘nggi yillarida amirlikning Qarshi va Shahrisabz, Qo‘rg‘ontepa, Qorategin (1905), Ko‘lob (1905, 1909) va Hisor[3] (1909) bekliklarida mahalliy beklar va amaldorlar zulmiga qarshi dehqonlar qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi. Amir qo‘zg‘olon sabablarini o‘rganib, ayrim bek va amaldorlarni lavozimidan ozod etadi hamda dehqonlardan yig‘ib kelinayotgan noqonuniy yig‘imlar va soliqlarni chekladi. Bu davrla amirlikdagi shia va sunniylar o‘rtasida ham munosabatlar keskinlasha boshlaydi. Ostonaqul qo‘shbegi ba’zi bir obro‘li va daromadli lavozimlarga o‘ziga yaqin shia mazhabiga mansub kishilarni tayinlaydi. 1908-yildan boshlab esa Buxoroda istiqomat qiluvchi shia-eroniylarga muharram oyida o‘tkaziladigan motam marosimlarini ochiq nishonlashga ruxsat beradi. Bundan sunniy mazhabidagi Baqoxo‘ja qozikalon va Burxoniddin rais norozi bo‘ldi[4].

1910-yil 9-yanvar kuni shunday marosimlardan birida shialarni sunniylar tomonidan mazah qilinishi va bunga javob tarzida bir sunniyning pichoqlanishi qonli harakatlarning boshlanib ketishiga bahona bo‘ldi. 1910-yilning 13-yanvarida valiahd Sayyid Olimxon Karmanadan Buxoroga kelib, Ostonaqul

[1] Местная известия. Богадельная его высочества Эмира // “Туркестанская ведомости” (Тошкент). 2 февраля 1897 года.

[2] Исмоилбек Ғаспарали. Туркистон саёҳатлари (Қрим-татар тилидан Тоҳир Қаҳҳор таржимаси) // “Жаҳон адабиёти” (Тошкент), 2010. - № 10. – Б. 92.

[3] Тухтаметов Т. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. - Душанбе: Ирфон, 1977. – С. 28.

[4] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 1168-иш, 198-199 варақлар.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



qo‘shbegi, Ibrohim to‘qsabo kabi batalon komandirlarini, shuningdek shahar atroflaridagi qishloqlardan kelib g‘alayonlarda ishtirok etgan 300 nafarga yaqin shia-forslarni Buxorodan chiqarib yubordi. Ostonaqul qo‘shbegini lavozimidan bo‘shatib, o‘rniga Nasrullabiyni, Badriddin qozikalon vazifasidan ozod etib, o‘rniga Mirzo Baqoxo‘ja sadrni tayinladi[1].

Abdulahadxon islohotparvar amir sifatida jadidchilik harakatiga xayrixoh bo‘lib, ularning maorif sohasidagi harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. Natijada amirlikda yangi usul maktablari vujudga keldi va faoliyat ko‘rsatdi.

Buxoro amiri Abdulahadxon vafot etgach, mamlakat boshqaruvi uning o‘g‘li Sayyid Olimxon (1910-1920) qo‘liga o‘tdi. U mang‘itlar xonadonidan Abdulahadxon va Davlat Baxt Oyim xonadonida 1880-yil 18-dekabrda [yangi hisob bilan 1881-yil 1-yanvar] (hijriy 1298-yil muharram oyining 15-kuni) Karmana shahrida tug‘ilgan. Sayyid Olimxon 13 yoshga to‘lgach, otasining buyrug‘i bilan Peterburgdagi Nikolayev kadet (pajlar) korpusida 3 yil davomida harbiy muhandislik mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olgan[2]. Buxoroga qaytgach, ikki yil mobaynida o‘z otasidan davlat boshqaruvi sirlari va saltanatni idora qilish usullarini o‘rgandi, amirlikdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahvol bilan chuqur tanishdi. 12 yil davomida (1898-1910) Nasaf (Qarshi) viloyati hokimi vazifasida faoliyat ko‘rsatgan. Said Olimxon To‘ra Qashqadaryo ustida katta ko‘prik qurdirgan, madrasa barpo etgan. U keyinroq valiahd sifatida Karmana viloyati hokimi vazifasida bir yil (1910-y.) ishlagan davrda ham bu yerda qator obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Olimxon 1910-yil yanvar oyida poytaxt Buxoroda bo‘lgan sunniylar va shialar o‘rtasidagi o‘zaro nizolarni bartaraf qilishda jonbozlik ko‘rsatgan[3].

Amir Abdulahadxon vafot etgach, 1910-yil 26-dekabrida Sayyid Olimxon taxtga o‘tirdi[4]. Amir Olimxon hukmronligining

[1] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 773-иш, 8-12-варақлар.

[2] Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. - Тошкент: Фан, 1991. – Б. 6-7.

[3] Ражабов Қ. Сўнгги манғит ҳукмдори // “Бухоро мавжлари” журнали. 2007. - № 3. – Б. 41.

[4] К кончине Эмира Бухарского // “Туркестанская ведомости”, 29 декабря 1910 года. - № 290.



www.nitropdf.com

Durdona



dastlabki kunlaridanoq xalqning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

1911-yilning boshida mahalliy savdogarlar nomidan Hoji Abduraufbiy karvonboshi Azizov Amir Olimxon bilan uchrashadi va mamlakatda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlarga oid o‘z taklifini bildiradi. Ular quyidagilardan iborat edi: Buxoroda birja tashkil etish; yangi ko‘priklar bunyod etish; bozordagi og‘irlik va uzunlik o‘lchovlariga nazorat o‘rnatish; suv taqsimotini tartibga solish; dabdabali to‘ylarni taqiqlash; boshlang‘ich maktablarga e’tiborni kuchaytirish[1].

Amir bu takliflarni inobatga olib, 1911-yil davomida qator farmonlar imzoladi. Amir Olimxon nikoh masalasi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ham farmon chiqarib, mahr pulini qizlar uchun 150 so‘m[2], juvonlar uchun 75 so‘m etib belgiladi[3]. Amir Olimxon serxarajat to‘ylar oilalarni iqtisodiy falokat yoqasiga olib kelishini anglagan holda, bunday to‘ylarni bartaraf etish bo‘yicha qat’iy talablarni ishlab chiqdi. Natijada to‘y kunlari qisqartirildi, bir xil ovqat pishirish belgilab qo‘yildi, chopon kiydirishlar keskin kamaydi, qand tarqatish to‘xtatildi hamda ko‘pkarilar o‘tkazilmay qo‘yildi. Oddiy xalq bu farmonlarni mamnuniyat bilan qabul qildi va unga amal qildi.

Amir Olimxon ta’lim tizimini tartibga solishga ham alohida e’tibor qaratdi. Maktab va madrasalar faoliyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, bu ishga qo‘shbegi (bosh vazir) va qozikalonni mas’ul qilib qo‘ydi[4].

Amir Olimxon madrasa ta’lim tizimida ham o‘zgarishlar qilishga kirishdi. Uning buyrug‘iga ko‘ra, 1913-yilda Buxoro shahrida yangi madrasa qurildi. Unda tafsir, hadis, kalom, fiqh, usuli fiqh, hisob, tajvid, tarix fanlaridan ta’lim berish belgilab qo‘yildi[5].

---

[1]Эргашев Б. Из истории общественно-политической жизни Бухары начала XX века // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журнали. 1992. - № 2. – Б.50.

[2] Газета мақоласида айнан сўм атамаси келтирилган.

[3] Миллий маишат // “Таржимон” газетаси. 1911- йил 11 март.

[4] Бухоро (“Вақт” газетасидан олинган) // “Таржимон”, 1911- йил 18 март. - № 12.

[5] Фитрат. Иқромот ислох корони ҳукумат Бухоро // “Ойина”, 1915 йил 30 январь. - № 8. – Б 198-200.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Amir Olimxon bu madrasani tashkil etish haqida qo‘shbegi nomiga buyruq chiqarganida mulla Qamariddinning ta’siri ostidagi bir necha mufti va beklar madrasani tashkil etilishiga qarshilik qiladilar. Ular madrasada dunyoviy fanlarning o‘qitilishiga keng o‘rin ajratilganidan norozi bo‘lib, bu masalada Burhoniddin qozikalonga[1] murojaat qilishgan. Qozikalon bu ishning boshida shaxsan amirning o‘zi turganini aytib, ularning noroziligiga chek qo‘yadi[2].

Amir Olimxon topshirig‘iga ko‘ra, 1913-yil sentabr oyining boshida Buxoro shahrida yangi tipdagi 3 bo‘limli: yozish, hisob xonasi va qiroatxonadan iborat maktab binosini qurilishi boshlanib, unga birinchi g‘ishtni qozikalonning o‘zi qo‘ygan[3].

1913-yil oktabr oyida esa Nasrullo qo‘shbegi va Burhoniddin qozikalon barcha madrasa bosh mudarrislarining faoliyati o‘rganib, axloqiy jihatdan yetuk va bilimli mudarrislarni madrasalarda tahsil berishga loyiq deb topganlar va noloyiqlari ishdan chetlashtirganlar[4].

Amir Olimxon qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib, muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Ma’lumki, Buxoro amirligi paxta mahsuloti yetishtirish va uni Rossiyaga sotish bo‘yicha Farg‘ona vodiysidan keyin ikkinchi o‘rinda turardi. XIX asrning 80–90-yillarida Buxoro amirligi paxta dalalariga Afg‘oniston va Turkiston general-gubernatorligining Kattaqo‘rg‘on uyezdidan chigirtkalar uchib o‘tib, paxta dalalariga zarar yetkaza boshlaydi. Hukumatning sa’y-harakati bilan chigirtkaga qarshi dori vositalari Rossiyadan olib kelinib, Ko‘lob va Baljuvon bekligi paxta dalalari chigirtkadan to‘liq zararsizlantiriladi[5]. 1909-yil bahorida Amir Abdulahadxon ulamolarning qarshiligiga qaramay, Rossiyadan chigirtkaga qarshi

[1] Қозикалон Бурҳониддин – қозикалон Бадриддиннинг ўғли бўлиб, Амир Олимхон даврида Бақохўжа ўрнига қозикалон мансабига тайинланган. Унга қадар Чоржўй вилояти қозиси (1919-1912) лавозимида ишлаган.

[2] Имом Собиржон Мустофий. Бухорода мадраса таъсис этилув муносабатила // “Вақт”, 1915 йил 24 декабрь. - № 1948.

[3] Бухоро (“Вақт” газетасидан олинган) // “Таржимон”, 1913 йил 25 октябрь. - № 236.

[4] Бухорода муҳим қарор // “Ойина” журнали. 1913. - № 10. – Б. 245-246.

[5] Ўз МА, И-1 фонд, 29-рўйхат, 548-иш, 2-варақ; 747-иш, 1-варақ.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



kurashish maqsadida maxsus guruhni taklif qiladi va unga ketadigan barcha sarf-xarajatlarni hukumat zimmasiga yuklaydi. O‘z navbatida Amir Olimxon ham bu ishga jiddiy qarab, paxta dalalariga chigirtka zarar yetkazmasligini oldini olish maqsadida 1911-yilda Rossiyadan olib kelingan texnika sarf-xarajatlarini qoplash uchun xazinadan 1912-yil 300 ming rubl, 1913-yilda 320 ming rubl mablag‘ ajratdi[1].

Buxoro amirligida paxtachilikdan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi qishloq xo‘jaligi sohasi – qorako‘lchilik edi. Amir Olimxon bu sohani rivojlantirishga harakat qiladi. Zotli qo‘ylarni ko‘paytirish va boqish maqsadida Rossiyadan mutaxassislar chaqiradi va har yili amir xazinasidan bular uchun 12840 rubl miqdorida maosh to‘ladi. 1912-yilda amir tashabbusi bilan Qarshi, G‘uzor va Chorjo‘yda veterinar-feldsher punktlari ochildi. Veterinar vrachlar va ularning yordamchilari oldiga ko‘p jun beradigan, zotdor qo‘ylarni yetishtirish asosiy vazifa qilib qo‘yildi. Buning natijasida Buxoro 1850–1860-yillarda chetga 50 ming pud paxta tolasi chiqargan bo‘lsa, 1915-yilga kelib, uning miqdori 2 million pudga yetgan. XIX asrning 70–80-yillarida har yili Buxoro chetga 30–40 ming dona qorako‘l teri chiqargan bo‘lsa, 1911 – 1914-yillarga kelib, 1,5-2 million donaga ko‘paygan[2].

Amir Olimxon aholining tibbiy salomatligiga, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar salomatligiga jiddiy qaraydi. Uning tashabbusi bilan 1911-yil iyul oyida Buxoro shahrida ayollar shifoxonasi ochiladi. Unda rus millatiga mansub ayol shifokor 1911-yil davomida 3551 nafar ayollar va bolalarga xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1912-yilda 13551 nafar bemorlarni davolaydi. 1912-yilda shifoxona yonida tug‘ruqxona ham qurilgan[3]. Shuningdek, amir 1913–1916-yillar davomida Eski Buxoro, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Dushanbe, Qarshi va Shahrisabzda erkaklar va ayollar uchun ambulatoriya punktlari va kasalxonalar qurdirdi[4]. Eski Buxoroda ayollar ambulatoriya punkti va shifoxona bo‘lib, u amirlikdagi eng katta shifoxona edi. Buxoro hukumati bu shifoxona faoliyati uchun

[1] Ўз МА, И-3 фонд, 1-рўйхат, 519-иш, 6-варақ; 909-иш, 229-233-варақлар.
[2] Ўз МА, И-3 фонд, 1-рўйхат, 474-иш, 2-варақ.
[3] Ўз МА, И-2 фонд, 1-рўйхат, 365-иш, 10-варақ.
[4] Ўз МА, И-3 фонд, 1-рўйхат, 532-иш, 1-4-варақлар.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



har yili xazinadan 31173 rubl 50 tiyin mablag‘ ajratgan. Qarshi, Dushanbe, Shahrisabzdagi shifoxonalar ta’minoti uchun esa 12 ming rubl pul ajratilgan. Shifoxonadagi mutaxassislar rus millatiga mansub bo‘lib, vrachlar har yili amir xazinasidan 4000 rublgacha, feldsherlar 1750 rublgacha maosh olishgan[1].

Xullas, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligini boshqargan Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida muhim rol o‘ynaganlar. Ammo mahalliy hokimlarning amirlarga jamiyat hayotini boshqacha tarzda namoyon etgani hukmdorlarni xalqning haqiqiy hayotidan bexabar qolishlariga olib kelgan. Natijada Buxoro jamiyatini tubdan isloh qilish uchun jadidchilik harakati vujudga keldi. Buxorodagi jadidchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi. Jadidchilik jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlarga asoslangan oqim bo‘lib, Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi manfaatlariga javob bergan va ijtimoiy taraqqiyotning pishib yetilgan ehtiyojlarini to‘la qondira oladigan harakat sifatida shakllandi.

Jadidchilik o‘z tarixida ikki bosqichda o‘tgan. Birinchi bosqich – ma’rifatparvarlik, ikkinchi bosqich – siyosiy bosqich. Lekin jadidlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davrdanoq shakllana boshlangan va ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kelgan desa bo‘ladi. Ikki yoqlama mustamlakachilik va mahalliy zulm ostida ezilib kelgan xalq ommasining og‘ir iqtisodiy ahvoli, madaniy tanazzul hamda erkin fikrning qotib rivoj topmayotganligi kabi holatlar jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot choralarini izlab topishga undadi. Buxoroda jadidchilik harakatiga Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Muhiddinov boshchilik qilishgan[2].

Abdurauf Fitrat, shubhasiz, XX – asr birinchi choragi Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko‘zga ko‘ringan va ta’sir doirasi

[1] Ўз МА, И-3 фонд, 1-рўйхат, 340-иш, 5-7 варақлар.

[2] Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1926. – Б. 48.



www.nitropdf.com

Durdona



kuchli bo’lgan vakillaridan biri edi. U yozuvchi, shoir, jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g’oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan.

Fitrat an’anaviy boshlang‘ich eski maktabni tugatgandan so‘ng o‘qishini avval Mir Arab, so‘ng Buxorodagi yana bir boshqa madrasada davom ettirgan. XX asr boshlarida Buxoro adabiy davralarida yetarli darajada mashhur bo‘lgan. “Mijmar” (yoqimli hid tarqatuvchi cho‘g‘don) taxallusi ostida she’rlar yozgan. Ne’matulloh Muhtaram Fitratni Hoji Mulla Abdurauf deb tilga oladi. Muhtaram o‘z asarini taxminan 1903-1904 yillarda yozib tugallagani va unda Fitrat ismidan oldin Hoji laqabining qo‘llanilgani inobatga olinsa, Fitrat ayni yigitlik chog‘ida haj amalini ado qilgan, deb aytish mumkin. U o‘sha vaqtda haj safarining an’anaviy yo‘li hisoblangan Hindiston orqali emas, balki temir yo‘l bilan Odessa, Turkiya orqali Arabistonga borgani, so‘ngra Hindiston orqali qaytib kelganini taxmin qilish mumkin. Fitrat hajdan qaytayotib yonidagi bor mablag‘ini Hindistonda o‘g‘irlatib qo‘ygandan keyin Buxoroga qaytish uchun pul topish maqsadida u yerda bir muddat qolib, sartaroshlik bilan shug‘ullangan[1].

Fitrat Istanbul safariga qadar Sharq musulmon davlatlarida ancha yoyilgan antiimperialistik modern islomchilik g‘oyalari bilan qiziqqani va bu boradagi asosiy ma’lumotlarni 1908 yilgi 2-konstitutsiyaviy inqilobdan keyin Turkiyadagi islomchilikning asosiy nashrlaridan biri bo‘lgan “Siroti Mustaqim” jurnalidan olganini bilish mumkin.

Turk konstitutsion inqilobidan ikki yil oldin, ya’ni 1906-yilgi Eron Mashrutiyat inqilobi va uning asoratlari Buxoro ziyolilarining fikriy o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatdi va bu yo‘nalishdagi tashqi ta’sir manbalaridan biriga aylandi. Ayni shu yillari Buxoroda eronlik Zaynalobidin Marog‘oiyning “Sayohatnomai Ibrohimbek” (Ibrohimbekning sayohatnomasi) asari keng tarqaldi va omma orasida mashhur bo‘ldi. Bu asar XX asr boshlarida nafaqat eronliklar, balki qo‘shni davlatlar, xususan, Buxoro xalqi uchun ham bir “ko‘zgu” bo‘lib xizmat qildi.

[1] *Bu haqda qarang:* Абдирашидов З. Жадидчилик манифестини яратган аллома // “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2023 йил 17 феврал.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



“Sayohatnomai Ibrohimbek” fors madaniyatining g‘arb – “o‘zga” madaniyat bilan qiyoslagandagi “noxush” manzarasini ochib tashladi. Asar ayni shu jihatlari bilan yuqorida ta’kidlanganidek, nafaqat eron xalqi, balki unga qo‘shni davlatlar xalqlarida ham katta qiziqish uyg‘otdi. Ayniqsa, ziyolilar Mashrutiyat inqilobi yillarida bu kitobdan zavqlandi. O‘sha davrda kim “Sayohatnomai Ibrohimbek”ni o’qigan bo‘lsa, konstitutsion harakat va yangilanish tarafdori deb hisoblandi[1].

Timur Xo‘ja o‘g‘lining ta’kidlashicha, Fitrat Istanbulga kelmasidan oldin usmonli turk ziyolilari orasida keng tarqalgan antiimperialistik modern islomchilik va turkchilik mafkurasi hamda bu oqimlarning qarashlari borasida batafsil ma’lumotga ega va bu mafkuralarning ta’siriga tushgan edi. Fitrat diniy islohot tarafdori bo‘lgani holda, Ayniy ta’kidlaganidek, “buxorolik talabalarning eng mustaiddi va eng fozili” sifatida Marag‘oiyning yuqoridagi asari bilan ham juda yaxshi tanish bo‘lgan[2].

Adib Xolidning aniqlashicha, Fitratning ilk asarlari bo‘lgan “Munozara” va “Hind sayyohi”da uslub jihatidan ham, mazmunan ham “Sayohatnomai Ibrohimbek”ning kuchli ta’siri kuzatiladi [3].

Shu sabab “Siroti Mustaqim” jurnali va “Sayohatnomai Ibrohimbek” kabi boshqa manbalardan “o‘zlashtirilgan” g‘oyalar Fitratning XX asr birinchi o‘n yilligi boshlaridagi faoliyati va ijodining asosiy yo‘nalishini belgilab berdi. Boshqacha aytganda, Fitrat ijodining bu bosqichi ayrim tadqiqotchilar tomonidan “gumanistik hurfikrlilik” davri deb ham baholandi.

Fitrat Istanbulda tirikchilik uchun turli joylarda ishlashga majbur bo‘lgan. Xususan, bozorda mayda-chuyda savdo bilan shug‘ullangan, madrasa va masjidda hovli supurgan, oshpaz yordamchisi ham bo‘lib ishlagan va hokazo. Eng asosiysi, 1910-yil davomida o‘zining mashhur “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari ustida ishlagan. 1911-yili qiyin moddiy ahvoliga qaramasdan, turli joylarda ishlab topgan mablag‘iga Ahmad

[1] Zaynabidin Abdirashidov. ‘Abdurra’uf Fitrat in Istanbul. Berlin/Boston. 2023. P.3.
[2] *Bu haqda qarang:* Абдирашидов З. Жадидчилик манифестини яратган аллома // “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2023 йил 17 феврал.
[3] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 39.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Hilmiyning “Hikmat” nashriyotida o‘zining yuqorida nomi zikr etilgan ikki badiiy asarini chop qildi.

Turkiston jadidchiligini tadqiq etuvchi ayrim olimlarning ta’kidlashlaricha, mahalliy jadidlar 1917-yilga qadar umumiy bir dasturga ega bo‘lmaganlar. Ularning fikricha, turkistonliklarning dunyoqarashini bir qadar o‘zgartira olgan Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari 1917-yilga qadar turkistonlik jadidlarning norasmiy dasturi sifatida qabul qilingan edi[1].

Ayni shu fikrni yaponiyalik olim H.Komatsu ham ilgari suradi va Fitratning yuqoridagi ikki asari Buxoro va Turkistondagi jadid – islohotchilik harakatining manifesti bo‘lganligini ta’kidlaydi[2]. Bu ta’kid va ta’riflar, albatta, Turkiston jadidchiligining mohiyati va yo‘nalishini aniqlashda nisbiy xarakterga ega.

1911-yili Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari nashr etilgunga qadar Turkiston jadidlarining faoliyati ma’lum bir bosqichga ko‘tarilgan, ular yangi usul maktablarining yoyilishida anchagina muvaffaqiyatlarga erishgan, va eng asosiysi, Turkistonda milliy matbuotga asos solib bo‘lgan edilar. Jadidlarning ma’rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo‘lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma’naviy barkamollikka yetishda dinni to‘g‘ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg‘or demokratik institutlarni bunyod qilish, o‘ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg‘or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqdi.

Jadidlarning xalqaro aloqa va munosabatlari ularga Rossiyaning musulmon o‘lkalari, Turkiya, Misr, Eron, Afg‘oniston

[1] История общественно-культурного реформаторства на Кавказе и в Центральной Азии (X1X-начало X X века). Самарканд: МИЦАИ, 2012. – С. 95-96.

[2] Hisao Komatsu. Muslim intellectuals and Japan: a Pan-Islamist mediator, Abdurreshid Ibrahim. In S.A.Dudoignon, H.Komatsu, and Y.Kosugi eds., Intellectuals in the Modern Islamic World: Transmission, transformation, communication, London-New York: Routledge, 2006. – P. 273-288.



www.nitropdf.com

Durdona



jadidlarining dasturi bilan tanishish imkonini berdi. Lekin Turkiyadagi yosh turklar va Eron taraqqiyparvarlari tajribalarini Turkiston jadidlari mexanik tarzda va o‘sha qolipda o‘zlashtirib olmadilar. Aksincha jadidlar Yevropa va Sharq mamlakatlarining davlat qurilishi va qonun chiqaruvchilik keng tajribalaridan, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi demokratik harakatlar kurashi usullari va dasturlaridan manfaatlariga hamohang bo‘lgan va milliy madaniyatga mos keladigan zarur o‘rinlarni oldilar[1]. 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi jadidlarning fikrlarini ancha siyosiylashtirdi. Bu vaqtga kelib ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida yozdilar, fuqarolarning davlat organlarining shakllantirishda qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki yo‘llari va usullarini ishlab chiqishga urindilar.

1917-yilda fevral oyida Rossiyada sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qadar taraqqiyparvarlar oqimini tashkil qilgan Buxoro jadidlarining keskin harakat qiluvchi qismi bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surdi. Bu talablar orasida xalqning huquqlarini kengaytirilishini ko‘zda tutgan holda o‘lkani idora etishni tubdan isloh qilish, asosiy demokratik erkinliklarni ta’min etish va eng avvalo milliy matbuot erkinligiga erishish, soliqlarni kamaytirish, matbuotga asos solish kabi talablar o‘rin olgan edi[2].

1917-yil davomida mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarini jadidlar o‘z ortlaridan ergashtirdilar, xalq orasida, ularning ongida, fikrlarida musulmonlar birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini tug‘dirdilar.

Jadidchilikning tariximizda tutgan o‘rni va qimmati shundaki, birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldi, g‘aflat uyqusida yotgan mazlum Sharqni uyg‘otdi va ko‘zini ochdi, ozodlik, erk, milliy g‘urur va sha’n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to‘g‘risida jar soldi, ovoza qildi. Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatlari shundan iboratki, ular yetilib qolgan ijtimoiy

[1] Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари // “Ҳуқуқ ва бурч” журнали. 2008 йил 1-сони. – Б. 42.
[2] Ўз МА, И-3-фонд, 2-рўйхат, 546-иш, 57-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



muammolarni hal qilishda evolyutsion islohot yo‘li asosida ishlab chiqdilar, ijtimoiy-davriy tuzum o‘zgarishlarining eng maksimal effektiv yo‘lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo‘q qilishni talab qildilar. Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidlarini yo‘li bir xil bo‘lmagan bo‘lib har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Lekin ularning hammalarini konseptual g‘oyalari hozirgi davr buyuk o‘zgarishlar amaliyotining ma’naviy asoslari bo‘lib xizmat qildi, keng qamrovli islohotlar yo‘nalishi va bugungi kun strategiyasining nasliy o‘zagi sifatida maydonga keldi.

## §1.2. Buxoro jadidchiligining asosiy yo‘nalishlari

O‘z oldiga Buxoroni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, amirlik hududida konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzishni maqsad qilib qo‘ygan Buxoro jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari – Abdulvohid Burxonov (1875–1934), Mukammil Burxonov (1884–1937), Sadriddin Ayniy (1878–1954), Abdurauf Fitrat (1886–1938), Fayzulla Xo‘jayev (1896–1938), Usmon Xo‘ja (1878–1968), Otaulla Xo‘jayev (1880–1937), Abduqodir Muhiddinov (1892–1934), Muso Saidjonov (1893–1937), Qilich Xo‘jayev (1896–1937) va boshqalar edi. Shuningdek, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo‘ja Mehriy, Muhiddin Raf’at, Muhiddin Mansurov, Muxtor Saidjonovlar ham bu harakatda faol ishtirok etdilar.

Ular yangi usul maktablari tashkil qilishda tatar ziyolilari, Samarqand jadidlari tajribasidan foydalandilar. Ismoilbek Gaspirinskiyning Buxoroga tashrifidan to‘rt yil o‘tib (1893-1897), Buxoroda jadid maktablari tashkil etildi. 1897-yilda Badriddin qozikalonning ruxsati bilan Mulla Jo‘raboy Ne’matulloh o‘g‘li Buxoro shahrida jadid maktabi ochdi[1]. U “Xo‘jai sibyon” darsligini fors tiliga tarjima qilib, 13 nafar bolani o‘qitishni boshlaydi. Bu haqida xabar topgan Ismoil Gaspirinskiy ushbu maktabga 10 dona

[1] Бухородан мактуб (“Таржимон”а махсус) // “Таржимон” газетаси. 1897 йил 22 апрел.



www.nitropdf.com

Durdona



sarmashq va 1000 nusxa alifbo kitobini bosmaxonasida hadya sifatida bosib berishini aytadi[1]. 1900-yilda ushbu maktabda imtihon o‘tkazilgan va uning so‘ngida savdogar Mirxon Porso o‘g‘li maktab va madrasalarda tadrisni isloh qilish zarurligi haqida nutq so‘zlagan[2]. Oradan biroz vaqt o‘tib bu maktab faoliyati to‘xtab qolgan.

1907-yilda Badriddin qozikalon ruxsati bilan Nizomiddin Sobitiy Buxoroda, o‘z uyida tatar tilida yangi usul maktabini ochgan. Bu maktabda dastlab 10-12 nafar tatar bolalari o‘qigan bo‘lib, qozonlik Abdurahmon Sa’diy o‘qituvchilik qilgan[3].

1908-yilning bahor faslida Ismoilbek Gaspirinskiy amirlikka ikkinchi bor tashrif buyurib, Amir Abdulahadxon bilan Buxoro shahrida uchrashgan. Bu safargi uchrashuv chog‘ida valiahd Sayyid Olimxon bilan ham yaqindan tanishib, uning o‘qimishli, rus tilini yaxshi bilishi, dunyoviy ilm-fan va matbuotdan xabardor ekanligiga ishonch hosil qilgan[4]. Shuningdek, jadid maktablarini tashkil etish bo‘yicha tatar va buxorolik ma’rifatparvarlar bilan yig‘ilish o‘tkazgan. Unda mulla Nizom uyidagi maktab uchun hukumatdan alohida joy olish va unda buxorolik bolalar ham tahsil olishiga imkoniyat yaratish to‘g‘risida qaror qilingan va bu maktabga I.Gaspirinskiyning taklifiga ko‘ra, Amir Muzaffarxon sharafiga “Muzaffariya” nomini berishga kelishib olingan[5]. Ushbu masalalar yuzasidan Ismoilbek Gaspirinskiy Amir Abdulahadxonga murojaat qilganda, unga ma’qul bo‘lgan va jadid maktabi ochishni qo‘llab-quvvatlagan. Tez orada mulla Nizom uyidagi maktab Xolid Burnashev uyiga ko‘chirilgan va bir necha buxorolik bolalargina ushbu maktabga o‘qishga qabul qilingan[6].

Nizom Sobitiy maktabida darslar tatar tilida olib borilganligi sababli unda buxorolik bolalarning tahsil olishi qiyinroq kechgan.

---

[1] Бухорои шариф (Мактуб) // “Таржимон” газетаси. 1897 йил 28 апрель.

[2] Собитов Низомиддин. Бухорои шариф (мактуб) // “Таржимон” газетаси. 1900 йил 11 апрель.

[3] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва: СССР халқларининг маркази нашриёти, 1926. - Б. 33.

[4] Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент: “Маърифат”, 2002. – Б. 23.

[5] Умняков И. К истории новометодной школы в Бухаре // Бюллетень Средне-Азиатского Государственного Университета. Выпуск 16. Ташкент, 1927. - С.81.

[6] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. - Б. 33.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Shuning uchun 1908-yilning oktabrida Buxoro taraqqiyparvarlaridan Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar tomonidan aynan buxorolik mahalliy bolalar uchun tojik tilida tahsil beruvchi jadid maktabi tashkil etilgan[1]. Ushbu maktabda 20–30 yoshli kishilar uchun kechki o‘quv kurslari ham tashkil qilinib, katta yoshli talabalarga har kuni 2 soatdan dars o‘tilgan. Qisqa muddatda maktab xalq orasida shuhrat qozongan[2]. Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo‘lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo‘zg‘atishga kirishganlar. Vaziyat murakkablashgach, 1909-yil 26-sentabrda Ostonaqul qo‘shbegi, qozikalon Baqoxo‘ja va Burhoniddin raislar mirzo Abduvohidga maktabning yopilganini rasman e’lon qilganlar[3].

1909-yilda yili Buxoro jadidlaridan Abulqosim Sayfullazoda ham Buxoro shahrida jadid maktabi ochgan. Abulqosim Sayfullazoda 1873-yilda oddiy dehqon Sayfulla og‘a oilasida tug‘ilgan. Otasining ilmga ixlosi baland bo‘lib, o‘g‘li Abulqosimni yoshligidan ilm olishi uchun ochiq fikrli ulamolardan Hoji Mirzo Muhammad mudarrisga bergan. Mudarris qo‘lida 6 yil tahsil olgach, 1897-yil Arabistonga ta’lim olish uchun ketadi. U yerda 11 yil tahsil olgach, 1909-yilda Buxoroga qaytadi va jadid maktabi ochadi. 1909–1910 yillarda faoliyat yuritgan maktabida 100-150 nafar o‘quvchi tahsil olgan. Abulqosim maktabining o‘ziga xos jihati shu ediki, u iste’dodli o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanib, muallimlikka tayyorlar edi. Bu maktab ham tez orada qora fikrli maktab domlalarining ig‘vosi bilan, muftilarning “jadid xaromdir” fatvosiga uchrab, yopib qo‘yilgan. Ammo Abulqosim kechalari yashirin suratda xususiy uylarga bolalarni to‘plab, o‘qitishda davom etgan[4].

Abulqosim Sayfullazoda Jadidchilik harakatida faol ishtirok etadi. 1918-yil mart voqealaridan keyin Istanbulga muhojirlikka ketadi. 1920-yil sentabrda amirlik tuzumi tugatilgach, Buxoroga qaytadi. BXSR hukumatining Maorif nazorati huzuridagi

[1] Ёш бухороликлар қўмитасидан ўртоқ Пўлатхонов доклади // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 15 июнь.
[2] Умняков И. К истории новометодной школы в Бухаре. - С.84.
[3] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. - Б. 45.
[4] Дўст. Марҳум Абулқосим Сайфуллазода // “Бухоро ахбори” газетаси. 1923 йил 7 апрель.



www.nitropdf.com

Durdona



tojiklarning maktab rahbari lavozimida ishlaydi. Tojik maktablari uchun ta'lim-tarbiya kursi ochib, muallimlar tayyorlagan. 1923-yil 25-martda vafot etgan.

Ismoilbek Gaspirinskiy Amir Abdulahadxon bilan Yaltada uchrashganida amir: *"Bizni deganingiz Buxoroda bo'ldi, ya'ni talabalar usuli jadida maktabi ochdilar, xalq o'rgansun, maktabning muntazamini o'zim ta'mir etib ochturdim... men arz tashakkur va duolar etdim",* deydi. Ammo oradan hech qancha vaqt o'tmay, hukumat tomonidan maktablar yopib qo'yiladi. Keyingi uchrashuvlarida Ismoil Gaspirinsiy amirdan maktablarning yopib qo'yilishi sababini so'raganida u: *"O'lan yangi zamondir, eski zamon emas. Har maktabda usuli mashvarat joriy bo'libdur. Biz Buxoroda ham g'alvalar mashvarat ila bu yangi maktabni bo'lmasligini xohish etibdurlar. Binobarin maktab bog'landi...."*[1], – deb javob beradi. Amir Abdulahadxon shaxsan yangi usul maktablarini ochishga ruxsat bergach, poytaxtda va bekliklarda bunday maktablar soni keskin ortadi. Ammo yoshi kattalar uchun tashkil etilgan ayrim kechki maktablarda amir hukumatiga qarshi suhbatlar tashkil etilgach, amir bunday maktablarni yopib qo'yishga buyruq bergan.

Ammo oradan biroz vaqt o'tib, jadid maktablari faoliyati kengayib borganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. 1911–1912-yillarga kelib, Buxoro amirligida 57 ta yangi usuldagi maktablar faoliyat ko'rsatayotgan edi[2].

1913-yili Usmonxo'ja Po'latxo'jayev Govkushon mahallasida amakivachchasi, yirik savdogar Latifxo'ja uyida yangi usuldagi maktab ochdi. Oradan bir yil o'tib, bu maktabda tahsil oluvchi o'quvchilar soni 200 taga yetgan. Usmonxo'ja maktabining o'quvchilari asosan o'zining qarindoshlari bo'lib, keyinchalik ko'plab otalar farzandlarini bu maktabga o'qitish uchun olib kelganlar. O'sha yilning yozida maktab o'quvchilari sonining ko'pashi natijasida Usmonxo'ja boshqa binoni ijaraga oladi va ikkita yordamchi o'qituvchi bilan bolalarga tahsil bera boshlaydi.

[1] Маҳмудхўжа. Бухоро иморати // "Ойина" журнали. 1915. № 14. – Б. 375-381.

[2] Бендриков К. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 гг). Москва, 1960. - С. 260.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



1914-yilda o‘quvchilar soni 200 ga yetgani sababli Usmonxo‘ja maktabni o‘z uyiga ko‘chiradi[1].

Usmonxo‘ja maktabida bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo‘lish, bir kunda 4–5 soatdan ortiq dars o‘tmaslik, har bir darsdan so‘ng o‘n daqiqalik tanaffus joriy qilish, diniy va dunyoviy fanlarni barobar o‘qitish, har yili bolalarga ikki oylik ta’til berish, o‘quvchilardan vaqti-vaqti bilan imtihon olib turish kabi yangi tartiblar joriy qilingan. Dars jarayonlarida milliy o‘quv qo‘llanmalar va darsliklardan tashqari, Turkiyadan olib kelgan o‘quv qurollari, globus, xaritalar, turk tiliga tarjima qilingan Yevropa adabiyotlardan ham keng foydalanilgan.

Rossiya imperiyasining Buxorodagi amaldorlari jadid maktablarining xalq orasida tobora shuhrat topib borishidan xavotirga tusha boshlaydilar va bu maktablarini yopish uchun mutaassib ulamolardan foydalanishga qaror qiladilar. O‘zlarini Buxoro yoshlariga xayrixoh qilib ko‘rsatib, aslida ulamolarni ularga qarshi gijgijlaydilar.

Ulamolar va saroy amaldorlari jadid maktabdorlariga katta miqdorda pul va obro‘li yuqori lavozimlar berishni taklif qilishga urinib ko‘rganlarini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoro qozikaloni Burhoniddinning vakili Mulla Qamariddin Usmonxo‘jaga: “Agar siz o‘z ixtiyoringiz ila maktabingizni bog‘lasangiz, tilagan yeringizda qozi yoki rais qildirmoqni qozikalon tomonidan va’da beraman”, deydi. Shunda Usmonxo‘ja: “Muallimlik qilishimiz, ochlikdan yoki mansabga yetisha olmaganligimizdan emas, balki xalqqa va yurtimizning bolalariga bir oz foyda yetkuzarmiz deb muncha mashaqqatlarni boshimizga yukladik, tutgan muqaddas maslagimizni dunyo mansabiga sotmaymiz”, deb javob beradi.

Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agenti yordamchisi Shulga Usmonxo‘ja maktabiga ogohlantirmay borib, u yerdagi sharoitlarni ko‘rib, lol qoladi. Uning yozishicha, Usmonxo‘ja o‘z uyining ichki hovlisida birinchi va ikkinchi qavatda juda keng ikkita sinf xonasi tashkil qilgan bo‘lib, ularda Yevropa va Buxoroda ishlab chiqarilgan stol-stullar, devor ichidagi javonlarda ikki-uchta

[1] Ўз МА, И-3 фонд, 1-рўйхат, 268-иш, 3-варақ.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



globus hamda Samarqandda nashr etilgan ko‘plab kitoblar, talabalarga berilgan daftarlar mavjud bo‘lgan. Shulga “... maktab juda ozoda bo‘lib, eski usul maktablari bilan solishtirganda juda taraqqiy etgan edi”, deb tan olgan[1]. O‘zini Buxoro yoshlari va jadid maktablari himoyachisi qilib ko‘rsatgan Shulganing bu tashrifi aslida maktablar yopib qo‘yilganda, Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligini gunohsiz qilib ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan.

1913-yili Labi Hovuz mahallasida Homidxo‘ja Mehriy, Xiyobon mahallasida Mirzo Ismoil, Poyi Ostona mahallasida mulla Vafo va Yangi bozor mahallasida Homidxo‘ja eshon yangi usuldagi maktablar tashkil qilganlar. 1913–1914-yillar davomida Buxoro shahridan tashqari Karkida Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Shahrisabzda Ismoilqul To‘qsabo[2], Qorako‘lda Atoulla Xo‘ja[3], G‘ulom Qodir va qozi Ikrom maxdum[4] jadid maktablari faoliyatini yo‘lga qo‘yganlar. Jadid ziyolilari Turkiyada tahsil ko‘rayotgan buxorolik yoshlar bilan aloqa bog‘lab, ular orqali har bir yangi chiqqan kitoblar va darsliklarni Buxoro kutubxonalari uchun sotib olganlar. Bu kitoblarning ayrimlari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlanmoqda. Kitoblar maktab bolalarining yoshi va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan bo‘lib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Sadriddin Ayniylar darsliklar yozgunlariga qadar foydalanilgan. Jumladan, Turk dunyosining yetuk ma’rifatparvari, ziyolisi va davlat arbobi Ahmad Midhatning maktab uchun yozgan darsliklari “Xo‘jayi avval”, “Bola tarbiyasi” kabi kitoblari Buxoro, Samarqand va Toshkent yangi usul maktabdorlari uchun juda qimmatli bo‘lgan[5]. Shuningdek, turk ma’rifatparvari Ahmad Hamdiyning 1866-yilda Istanbulda chop etilgan “Usuli jo‘g‘rofiya” darsligi Toshkent, Samarqand va

[1] Жамолова Д. Миллий истиқлол ва тараққиёт курашчиси // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 4 июн.

[2] Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining tarikhi. (Nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo, Sharifa Tosheva). Tokio, 2010. B.135-136.

[3] Жалол Икромий. Он чи аз сар гузашт. Душанбе: Шарқи озод, 2009. – Б. 17.

[4] Бухоро хабарлари // “Ҳуррият” газетаси. 1918 йил 29 сентябр.

[5] Аҳмад Мидҳат. Хўжайи аввал. Истанбул, 1868; Ўша муаллиф: Бола тарбияси. Туркчадан Зиё Носир таржимаси. Қозон, 1911-. 51 саҳифа.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Buxorodagi yangi usul maktablarida asosiy darslik sifatida ishlatilgan. Kitob 187 betdan iborat bo‘lib, Umumiy maorif noziri Kamol afandining ijobiy taqrizi bilan nashr etilgan. Darslikdan 59 ta mavzu o‘rin olgan bo‘lib, dunyodagi o‘simlik va hayvonot dunyosi, qit’alar va ularning geografiyasiga oid ma’lumotlar taqdim etilgan[1]. Shuningdek, Ahmad Hamdiyning “Muxtasar usuli fiqh” kitobi Turkiston, Buxoro va Xiva madrasalarida darslik sifatida foydalanilgan[2].

Buxoro jadidlari faoliyatining navbatdagi yo‘nalishi matbuot ishlarini tashkil qilish bo‘lib, 1912-yili “Buxoroyi sharif” va uning ilovasi “Turon” gazetalariga asos soldilar.

“Buxoroi sharif” va “Turon” gazetalarining chop etilishi tarixi bo‘yicha jadidchilik harakati yirik namoyondalaridan biri Sadriddin Ayniy “Buxoro inqilobi uchun materiallar” asarida to‘liq ma’lumot bergan. U 1905-yil Rossiyada bo‘lib o‘tgan inqilobdan so‘ng, amirlik hududida Istanbul, Misr va Hindistonda nashr qilinadigan gazetalarning kirib kelishi, Eronda forsiy tilda chiqadigan “Sayohatnomai Ibrohimbek” kitobi Buxoroda ko‘p muxlisga ega bo‘lganini yozadi. Sadriddin Ayniy: “Bu kitob Eron ahvolig‘a doir yozilg‘on bo‘lsa ham, tanqid qilg‘on yerlari aynan Buxoroda bor edi. Shuning uchun shu kitobning mutolaasi ham, Buxoroda ba’zi fikrlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bunday o‘zgarish samarasi o‘laroq Buxoroda gazeta chiqarmoq kerak, degan fikrning mustahkamlanishi bo‘ldi va u 1912-yilga kelib amalga oshdi”[3], – deydi.

Bu gazetalar va kitoblarni targ‘ibot qilishda Buxoro taraqqiyparvarlari tomonidan 1909-yilda tuzilgan “Tarbiyai atfol” yashirin jamiyati asosiy rol o‘ynagan. Uning a’zolari xalq orasida chetdan kelgan gazeta, jurnal va yangi kitoblarni o‘qib berib, ishonchli kishilarni gazeta va jurnallarga obuna qilganlar. Sadriddin Ayniy gazetalarning tashkil etilishi to‘g‘risida shunday deydi: “Buxoro yoshlari qachonlardan beri bir gazeta nashr qilmoq fikrida edilar. Lekin buning chorasi hech topilmas edi. Zero, Buxoro hukumati oddiy biron madaniy ishga yo‘l bermadigi

[1] Аҳмад Ҳамдий. Усули жўғрофия. Истанбул. 1886. 187 саҳифа.
[2] Аҳмад Ҳамдий. Мухтасар усул фикҳ. Истанбул. 1883. 133 саҳифа.
[3] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 94.



www.nitropdf.com

Durdona



holda ko‘z oldida bir mufattish kabi bo‘laturg‘on gazetaga nechuk ko‘nar edi?”. 1912-yili Mirzo Muhiddin bilan Mirzo Siroj Hakim Kogondagi matbuot organi rahbari yahudiy millatiga mansub bo‘lgan Q.L.Levin bilan uchrashib, uni gazeta chiqarishga ko‘ndirganlar. Levin bu haqda rus elchixonasiga murojaat qilganda, elchixona xodimlari bilan yaqin aloqada bo‘lgan Mirzo Muhiddin: “Buxoro xalqini rus idoralari bilan tanishdirmoq va paxta ekiniga rivoj bermak uchun bir gazeta lozimdir”, deb, gazetaga ruxsat berish kerakligini aytgan. Elchixona syenzura o‘z qo‘lida bo‘lishi sharti bilan Buxoro hukumatidan Levin va Haydarxo‘jalar nomiga gazeta chiqarish uchun imtiyoz bergan[1].

Gazetaga muharrirlik qilish uchun Bokudan Mirzo Jalol Yusufzoda chaqirilgan. Gazetaning birinchi soni 1912-milodiy 11-martda yakshanba kuni nashr qilinadi. Oradan to‘rt oy vaqt o‘tib, Buxoro bekliklari aholisining ko‘pchiligi o‘zbeklar bo‘lgani uchun 1912-yil 11-iyuldan boshlab, “Buxoroyi sharif” gazetasining ilovasi “Turon” gazetasi nashr qilina boshlaydi. Shunday qilib, haftada to‘rt marta fors tilida “Buxoroyi sharif”, ikki marta o‘zbek tilida “Turon” gazetasi chiqa boshlaydi. Gazetalar faoliyati 1913-yil 3-yanvarga kelib to‘xtab qoladi.

Sadriddin Ayniy “Buxoroyi sharif” gazetasi haqida: “...birinchi sonidan boshlab o‘qug‘uvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qildi. Mirzo Jalol birinchi qalam egalaridan bo‘lib, buning ustiga, ulumi islomiyaning usul va farvi’dan yaxshig‘ina xabardor bir zot edi. Shuning uchun uning maqolalari umumga ta’sir qilar, zotan mustaid bo‘lg‘on Buxoro aholisi o‘z tilida yozulg‘on bu adabiy va sodda bandlarni seva-seva o‘qur edi...”[2], – deydi.

Sadriddin Ayniy gazetalar xalqning ongiga ijobiy ta’sir etganini quyidagicha izohlaydi: “O‘qug‘uvchilarning dumog‘larida boshqa bir fikr, boshqa bir o‘ylov paydo bo‘la berdi. Yoshlar boshig‘a adabiyot, qalam va o‘qumoq fikrlari tushdi. Otalar eslariga bola tarbiyasi va o‘qutmoq xayollari keldi. Bu ta’sirdan madrasalar ham quruq qolmadi. Madrasa shogirdlari dars islohni so‘ray boshladilar... Hatto shogirdlarning royiat va talablarini

[1] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 95.
[2] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 96.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



ko‘rib ba’zi mudarrislar (uddasidan chiqa olmasalar ham) o‘zlaricha darslarini isloh qila boshladilar...”[1]

“Buxoroyi sharif” va uning ilovasi “Turon” gazetalari juda qisqa muddat nashr qilingan bo‘lsa-da, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolarni tahlil qilib, mamlakatda islohotlar o‘tkazish lozimligiga qayta-qayta takrorlagan. Ammo siyosiy masalalardan iloji boricha chetda turganlar. Bu haqda Sadriddin Ayniy “... muharrirlar nihoyat darajada ehtiyotda bo‘lib, Rus siyosatiga tegaturg‘on biron narsa yozmas edilar. Bularning tutqon maslaklari qisqacha fikrni yoritish va o‘qug‘uvchilarning qo‘lig‘a bir chirog‘ bermak edi. Bundan u yog‘ini u chirog‘ yorug‘i bilan o‘qug‘uvchining o‘ziga havola qiling‘on edi. Shuning uchun yolg‘uz ijtimoiy nuqsonimizdan, iqtisod va ziroatdan, ilm va maorifdan, madrasa va maktablarimizning ahvoli, falokat ishtimolidan va bularning isloh yo‘llaridan bahs qilar edi”[2], – deb yozadi.

“Buxoroyi sharif” gazetasi 1912-yil 11-martdan 3-avgustgacha haftada olti kun, 1912-yil 3-avgustdan, 1913-yil 2-yanvargacha haftada uch marta nashr qilingan. Gazetaning 1–34 sonlarida Haydarhoja Mirbadalov va Mirzo Jalol Yusufzoda muharrirlik qilgan. 1912-yil 20-aprelidan to gazeta yopilguncha Mirzo Jalol Yusufzoda, Mirzo G‘affor bilan birgalikda muharrirlik qilishgan. “Buxoroyi sharif” gazetasining jami 153 ta soni nashr qilingan. Gazeta sahifalarida tarixiy, jug‘rofiy, adabiy, tilshunoslik, ekologiya, sog‘liqni saqlash, insoniyat sivilizatsiyasi va ijtimoiy, iqtisodiy hayotning turli-tuman mavzulariga oid maqolalar chop qilingan. Gazeta turli rukn va rubrikalar asosida maqolalar chop etish bilan birga rus va chet el adabiyoti namoyondalarining asarlarining fors-tojikcha tarjimasini o‘quvchilar hukmiga havola qilib borilgan.

Ushbu gazetaning ilk soni birinchi sahifasida “G‘oyai amol” (Umidlar g‘oyasi) nomi ostida muharririyat tomonidan tayyorlangan maqola bosilgan. Gazetaning birinchi sahifasini to‘la egallagan ushbu maqolada “Buxoroyi sharif” gazetasining chop etila boshlanganligi, u Buxoroning taraqqiy qilishiga hissa

[1] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 97.
[2] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 97.



DURDONA
www.nitropdf.com

Durdona



qo‘shishligi, mamlakatdagi o‘zgarish va yangilanishlar, maishiy va moddiy masalalar, hamda xorij xabarlaridan voqif qilishi, shu paytgacha Buxoroda gazeta chop etilmaganligining sabablari bayon qilingan. Maqola ostida Mirzo Jalol Yusufzoda[1] imzo chekkan.

1912-yilning 11-iyulida “Buxoroyi sharif” gazetasiga ilova sifatida o‘zbek tilida “Turon” gazetasi chop etila boshlagan. Keyinchalik avgust oyida alohida gazetaga aylangan. Gazetaning jami 49 ta soni nashr etilgan bo‘lib, oxirgisi 1913-yilning 2-yanvarida chop qilingan. Dastlabki 14 ta soniga Mirzo Jalol Yusufzoda muharrirlik qilgan. 15-sonidan noshirligi “Buxoroyi sharif shirkati” ixtiyoriga o‘tgan. Mazkur sondan boshlab, 21-soniga qadar Mirhaydarhoja Mirbadalov muharrir bo‘lgan. 22-sondan 25-songa qadar Husayn Ibrohimov, 26-sondan to yopilgunga qadar yana Mirhaydarhoja Mirbadalov muharrirlik qilgan.

Gazetalarda asosan, Buxoro jadidlari maqolalari chop etilgan bo‘lib, unda Buxoro jamiyatidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha fikrlar ilgari surilgan edi. “Turon” gazetasi sahifalarida asosiy e’tibor maktab va madrasalarni isloh qilish, maorifni zamonaviy yo‘lga olib chiqish masalasiga qaratildi. Gazetaning 9-sonida bosilgan Kamol No‘g‘ayning “Maktab va madrasa” nomli maqolasida eski maktablardagi ta’lim jarayoni, zamonga mos maktablar qurish va bolalarni yangi usulda o‘qitish kerakligini ta’kidlab, “Maktab, madrasa bo‘lmasa edi, ilm va ma’rifat qayda tahsil qilinardi? Muallim va mudarris bo‘lmasa edi, ilm va ma’rifat qanday o‘rganilar edi? Ilmning fazilatlilik narsa ekanini aql va zehn ilan bilmak mumkin bo‘lganidek, Qur’oni karim va Hadisi shariflar ila ham bayon qilinub, tahsil va ta’lim haqinda tashviq va targ‘iblar ko‘bdir... Endi bizlar ham zamonamizga muvofiq maktab bino

[1] Мирзо Жалол Юсуфзода (1278 / 1861 – 1350 / 1931 йиллар) Озарбайжон маърифатпарвари, Бухорога Мирзо Муҳиддин Мансуров ва Мирзо Сирож ҳакимларнинг таклифи билан келади. Бухорога келгунга қадар Бокуда чиқадиган “Иршод” газетаси ва “Мулла Насриддин” журналида фаолият юритиб, матбаачилик фаолиятида катта тажрибага эга бўлган. “Бухоройи шариф” ва “Турон” газеталарида 200 дан ошиқроқ мақола ва 40 дан ортиқ шеърлар ёзган. Ўз мақола ва шеърлари остига Жалол деб имзо чеккан.



www.nitropdf.com

Durdona



qilishimiz zarur va kerakli bo‘lgan ilmlarni o‘rgatmog‘imiz va o‘qitmog‘imiz darkordir”[1], – deb yozadi.

Gazetadagi “Tartib yo‘qlik zarari” sarlavhali maqolada esa maktab masalasi islom dini ahkomlari bilan bog‘liq holda ko‘tarilgan. Muallif musulmonlarning diniy savodxon bo‘lishi uchun ta’lim olishi zarurligini ta’kidlab: “... Bir odamning ilmi o‘lmasa, ul odam namoz, ro‘za va ahkomi islomiyaning qanday narsa ekanini bilmaydir...”[2], – deb yozadi va diniy bilimsizlikning sababi maktablarning tartibsizligidan degan xulosaga keladi.

“Turon” gazetasining shu sonida G‘iyosiddinning “15-avgust”[3] va “Talx bir haqiqat” nomli maqolalari chop etilgan bo‘lib, ularda ham jadid maktablarini tashkil etish masalasi yetakchilik qiladi. “15-avgust” sarlavhali maqolasida “Ko‘nglida zarra qadar Vatan hissi bo‘lgan odam Buxoroning bugungi g‘aflat, jaholat uyqusini ko‘rib, giryon bo‘ladir. Yuz minglarcha nufuzi bo‘lgan, eskidan beri an’anai ilmiya bo‘lgan bu shahar bugun bir dona muntazam madrasaga molik bo‘lmasa, inson bu shaharning, bu Vatanning holiga yig‘lamay, kimning holiga yig‘lar?”[4], – deb yozadi. G‘iyosiddin “Talx bir haqiqat” nomli maqolasida Buxoro qadimdan ilm-ma’rifat shahri bo‘lgani, ammo keyingi paytlarda bunday maqomini yo‘qotgani haqida fikr yuritadi. Buxoro madrasalari faqat diniy ilmlar o‘qitiladigan joyga aylanib qolganini aytib, “Asrimizda bir millatni olim va bir shaharni ilm yeridir deb aytmoq uchun ul millat va ul shaharning oshnoi ilmi ilohiy bo‘lmoqligi kifoyat qilmaydir”[5], – deb yozadi. Buning uchun zamonaviy tib ilmi, huquqshunoslik, tabiatshunoslik, muhandislik, me’morlik kabi mutaxassisliklarni o‘rgatadigan o‘quv maskanlari bo‘lishi kerakligi, shundagina Buxoro yana qadimdagidek ilm-ma’rifat markaziga aylanishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Gazetaning 46-sonidagi “Dorilfunun kerakmi yoki maktab” nomli maqolada Buxoroda faoliyat yuritgan dunyoga mashhur madrasalar faoliyatining bu davrga kelib o‘z ahamiyatini

[1] Камол Нўғай. Мактаб ва мадраса // “Турон” газетаси. 1912 йил 10 август.
[2] Абдурауф Фитрат. Тартиб йўқлик зарари // “Турон” газетаси. 1912 йил 15 август.
[3] Мақола номи эски мактабларда дарс жараёни 15 августда бошланиши муносабати билан шундай номланган.
[4] Ғиёсиддин. 15 август // “Турон” газетаси. 1912 йил 15 август.
[5] Ғиёсиддин. Талх бир ҳақиқат // “Турон” газетаси. 1912 йил 15 август.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



yo‘qotgani, o‘quv ishlarini isloh qilish zarurati haqida gapirib: “Turonliklar xohlasalar 10 yilda ilm xalqini hayron qilurlik taraqqiy va tole’ga yetusha bilurlar”[1], – deb yozadi. Ta’lim islohiga oid kichik madrasalarni maktabga aylantirish; o‘qitishni umumiy va majburiy qilish; vaqf mulklarini suiste’mol qilmasdan o‘rinli ishlatish kabi tavsiyalarini berib: “Turonliklar usuli qadimdami, usuli jadiddami, istaganlarida tahsil olsinlar, ammo maktab binolari talab darajasida bo‘lishi kerak. Chunki maktablar bo‘lmasa, madrasalar bo‘sh qoladi”, – deb yozadi.

“Turon” gazetasida chop etilgan No‘shiravon Yovushevning “Usuli ta’lim va tarbiyadan” nomli maqolasida maktablarda “usuli jadida” ning qo‘llashning afzalligi haqida ma’lumot berilib, ibtidoiy maktablarda o‘qitishning 3 usuli – “usuli tahajjiy” (Qur’oni karimni o‘rgatishda qo‘llanilgan), “usuli maddiya” (harflarni qo‘shish yo‘li bilan o‘qitish) va “usuli savtiya” mavjudligini yozadi. Usuli savtiyaga ta’rif berib: “Avvalo, bir kalima zikr qilinur. So‘ngra mazkur kalimada necha turli tovush borlig‘ini bildirilur. So‘ngra ul tovushlarni zikr qiling‘on kalimadag‘i harflar uzra tahlil qilinur va qayu tovush qayu harfdan chiqg‘onliqni tushundirilur... Munda muxlis 3000 turli suratlari ila biluvg‘a hojat yo‘qdir. Faqat 33 turli harfnigina yod olib, qurshog‘a biluv kerakdir. Uch usulning eng osoni ushbudir”[2], – deydi. Usuli jadid maktablari dinga qarshi kofirlar maktabi bo‘lmay, balki savod chiqarishning oson yo‘li ekanini ta’kidlaydi.

Faoliyatiga bir yil ham to‘lmagan gazetadan Rossiya imperiyasining Buxorodagi vakillari sarosimaga tushadilar. Ilg‘or g‘oyalar taqdim qilinayotgan, jamiyatdagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha dalil fikr bildirilayotgan matbuotni ular tezlik bilan yopib qo‘yish harakatiga tushdilar va o‘z maqsadlariga erishdilar. Eng achinarlisi, bu ishni amir hukumatining qo‘li bilan amalga oshirdilar.

Xalqni ma’rifatli qilishning navbatdagi yo‘nalishi teatr ishlarini tashkil qilish bo‘lib, bu ishlar boshida aynan Abdurauf Fitrat turgan. Qozon va Samarqanddan kelgan tatarlar ishtirokida

[1] Синиқ қалам. Дорилфунун керакми ёки мактаб // “Турон” газетаси. 1912 йил 24 декабр.
[2] Ёвушев Н. Усули таълим ва тарбиядан // “Турон”газетаси. 1912 йил 12 август.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



o‘zbek va tojik havaskorlarini ham ijrochi yoki tashkilotchi sifatida jalb etishga uringan. Ushbu teatr jamoasi o‘z faoliyatini tatar, ozarbayjon va turk dramalarini sahnalashtirishdan boshlagan. Jamoaga tatar ziyolisi Husayn Najib[1] boshchilik qilgan. U “Padarkush” asarini sahnalashtirishga ijozat so‘rab Mahmudxo‘ja Behbudiyga murojaat qilib, tomoshadan tushadigan foydani ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga tarqatilishi haqida ma’lumot berganida, o‘zbek oydini unga bajonidil rozi bo‘lgan. 1914-yil 5-mart kuni Buxoroning “Torikiston” binosida “Padarkush” dramasi namoyish etilgan[2].

1917-yil 19-mayda Buxoroda tatar va Kavkaz havaskor ijrochilari tomonidan madaniy kecha uyushtirilib, unda “Adashuv” komediyasi va Shokir Anbulatning[3] “Chingizxon qabrida” uch pardali tarixiy dramasi qo‘yilgan. Tatar milliy qo‘shiqlari kuylanib, Kavkaz raqslari namoyish etilgan. Kechada “Turkistonni boshqarish muvaqqat qo‘mitasi” a’zolaridan Sadri Maqsudiy[4] ham qatnashgan va tomosha yakunida so‘zga chiqib, o‘zbek, tatar va ozarbayjon xalqlarini birlik hamda ittifoqqa da’vat etgan[5].

Buxoro jadidchiligining ma’rifatparvarlik bosqichi maktablar tashkil qilish, kutubxonalar sonini ko‘paytirish, matbuotga asos solish, teatr ishlarini tashkil qilishdan iborat edi. Ular tinimsiz harakatlar bilan barcha yo‘nalishlarda o‘z maqsadlariga erishdilar. Buxoro shahri va bekliklarda jadid maktablari ochdilar. Maktablarda dunyoviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydilar. Buxoro amirligida ilk bor matbuotga asos soldilar. “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarida xalqni farovonlik, millat va Vatan

[1] Ҳусайн Нажиб — татар зиёлиси; Самарқанд ва Бухорода театр гуруҳлари ташкил қилган, ўзбек, озар, турк ва татар драматурглари томонидан яратилган кўплаб саҳна асарларини саҳналаштирган.

[2] Ризаев Ш. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент. 1995. 102 – 103-бетлар.

[3] Шокир Анбулат — татар драматурги; кўплаб тарихий пьиесалар муаллифи.

[4] Садри Мақсудий (1880 – 1957) — татар давлат ва жамоат арбоби; Исмоилбек Ғаспарали мактаби, Қозон мадрасаси, 1901 – 1906 йиллари Париж университети ҳуқуқшунослик факультетида ўқиган; 1919 йили Парижда Тинчлик йиғинида қатнашган ва туркий халқлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга даъват этган; 1925 йили Туркияга жўнаб, Истанбул ва Анқара университетларида дарс берган; 1957 йил 20 февралда Туркияда вафот этган.

[5] Бухорода театр жамияти // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1917 йил 31 май.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



taraqqiyotiga da’vat etdilar. Teatr ishini tashkil qilib, jamiyatning og‘riqli nuqtalarini fosh qildilar.

## §1.3. Fitrat hayotining asosiy bosqichlari va ma’rifatparvarlik qarashlari

Abdurauf Fitratning hayoti va faoliyati, tarixiy qararashlari, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilan bog‘liq holatlar tahlil qilinganda, quyidagi bosqichlarni ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir.

1. Abdurauf Fitrat dunyo qarashining shakllanishi va jadidchilik harakatiga kirib kelish bosqichi (1886-1909 yy).

2. Taraqqiyparvarning Turkiya (Istambul)dagi ta’lim olish yillari bilan bog‘liq bo‘lgan bosqich (1909-1913 yy).

3. Abdurauf Fitratning “Yosh Buxoroliklar” partiyasidagi ijtimoiy – siyosiy faoliyati (1913-1920 yy).

4. Abdurauf Fitratning BXSR hukumati tarkibidagi rahbarlik faoliyati (1920-1923 yy).

5. Abdurauf Fitratning ilmiy ijodiy faoliyatining so‘nggi bosqichi (1924-1938 yy).

O‘zbek xalqining zabardast farzandi, milliy ozodlik kurashchisi Abdurauf Fitrat Buxoro jadidchiligining eng ko‘zga ko‘ringan yorqin namoyandasi. U “Fitrat” taxallusi bilan tirikligida ham, undan keyin ham mashhur bo‘ldi. Fitratning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo‘yidagi hamkasablarigina emas, Moskva, Leningraddagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug‘ilgan. Fitrat uning taxallusi bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “Fitrat” so‘zi uchramaydi[1]. “Navoiy lug‘ati”da Fitrat so‘zi “tabiat, tug‘ma tabiat, yaratilish” deb izohlangan[2]. Fitratning otasi Abdurahimboy o‘qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishi bo‘lgan. Savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Qashqarga tez-tez borib turgan. Onasining ismi Nastarin Bibi bo‘lib, taxminan 1866-yillarda tug‘ilgan. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand – ukasi Abdurahmon va

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2015.

[2] *Бу ҳақда қаранг:* Жамолова.Д Фитрат йўли // “Миллий тикланиш” газетаси. 2022 йил 27 июл.



www.nitropdf.com

Durdona



singlisi Mahbuba bo‘lgan. XX asrning 20-yillarning faollaridan bo‘lgan, goho she’r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o‘quvchilarga bir qadar tanish. Abdurahmon esa XX asrning 10-yillarida Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo‘lib ishlagan[1].

Abdurauf eski maktabni tamomlagach, Mir Arab madrasasida o‘qigan. Aynan shu davrda Buxoro hududida jadidchilik harakati vujudga kela boshlagan edi. 1908-yilning oktabrida Buxoro taraqqiyparvarlaridan Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar tomonidan aynan buxorolik bolalar uchun tojik tilida tahsil beruvchi jadid maktabi tashkil etilgan[2]. Ushbu maktabda 20–30 yoshli kishilar uchun kechki o‘quv kurslari ham tashkil qilinib, katta yoshli talabalarga har kuni 2 soatdan dars o‘tilgan. Qisqa muddatda maktab xalq orasida shuhrat qozongan[3]. Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo‘lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo‘zg‘atishga kirishganlar. Vaziyat murakkablashgach, 1909-yil 26-sentabrda Ostonaqul qo‘shbegi, qozikalon Baqoxo‘ja va Burhoniddin raislar Mirzo Abduvohidga maktabning yopilganini rasman e’lon qilganlar[4].

Shundan so‘ng 1909-yili Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo‘ja Mehriy, Hoji Rofe’, Mukammal Burhonovlar Buxoroda “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli yashirin jamiyatini tuzganlar[5]. Jamiyat a’zolari tamomila yashirincha ish olib borib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G‘ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochadilar[6]. Bu jamiyatning sa’y-harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar o‘z ifodasini topmagan bo‘lsa-da, unda Buxoro amirligi siyosiy tuzumini isloh qilish, davlat ma’muriyatiga ilg‘or yoshlardan kiritish va shu yo‘l bilan davlat siyosiy tuzumida ilg‘or o‘zgarishlar

[1] Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 71.

[2] Ёш бухороликлар қўмитасидан ўртоқ Пўлатхонов доклади // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 15 июн.

[3] Умняков И. К истории новометодной школы в Бухаре. – С.84.

[4] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 45.

[5] Ражабов Қ. Тарбияи атфол. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2004. Б. 271.

[6] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материалллар. – Б. 84.



www.nitropdf.com

Durdona



yasash koʻzda tutilgan edi. Jamiyatning birlamchi masalasi Buxoro oʻquv muassasalarini tubdan isloh qilish edi. Buxoro eski maktablarini isloh qilish ishi amalda boshlangan boʻlsa-da, oliy oʻquv yurti hisoblangan madrasalar islohi boshlanmagan, ular ilmli, malakali mutaxassislar tayyorlashdan yiroq edi. Shuning uchun "Tarbiyai atfol" jamiyati iqtidorli yoshlarni Istanbul, Orenburg, Ufa, Qozon, Bogʻchasaroy kabi shaharlarga oʻqishga yuborishni birinchi vazifa sifatida belgiladi. Buning uchun mablagʻ kerak edi. Xalq istiqboli, maʼrifati uchun jon kuydiruvchi mulkdorlar ham, iqtisodiy yordam beruvchi ziyolilar, davlat arboblari ham topildi.

"Tarbiya atfol" jamiyati oʻz faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

Birinchidan, ilmga chanqoq yoshlarga har jihatdan: ham iqtisodiy, ham maʼnaviy yordam koʻrsatib, Turkiya hamda Rossiyaning Qozon, Ufa, Bogʻchasaroy shaharlariga oʻquvchilar yuborish masalasiga alohida eʼtibor berdi. Istanbul shahrida taʼlim olayotgan buxorolik talabalar soni 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda esa 30 dan oshadi[1].

Ikkinchidan, jamiyat Buxoro amirligida Turkiya va Eronda hamda Rossiya musulmon shaharlarida nashr qilinadigan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borishga katta eʼtibor berdi. Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining har qanday taʼqib va toʻsiqlariga qaramay, jamiyatning saʼy-harakati bilan bunday nashrlar amirlikda ham keng tarqala boshladi.

Uchinchidan, hamma jadid mutafakkirlari kabi "Tarbiyai atfol" jamiyati aʼzolari oʻrinsiz sarf-xarajatlarga, toʻy va maʼrakalarga sarf qilinadigan katta-katta xarajatlarga, isrofgarchiliklarga qarshi chiqdilar. Bunday mablagʻlarni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda oʻqitish uchun sarf qilishga daʼvat etdilar. Ushbu jamiyat 1914-yil martda "Maʼrifat" shirkati tuzadilar va 1915-yil 22-dekabrda amir Olimxon bu jamiyatning nizomini tasdiqlab beradi[2]. Bu shirkat kitob savdosi bilan shugʻullanar, usuli jadid maktablarini darslik va oʻquv

[1] Тоҳир Қаҳҳор. Ҳур Туркистон учун. Тошкент: "Чўлпон", 1994. – Б. 29.
[2] Ўз МА, И-461, 1-рўйхат, 1919-иш, 12-варақ.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



qo‘llanmalari bilan ta’minlashga jamiyatning birlamchi vazifasi sifatida qarar edi.

“Tarbiyai atfol” jamiyatni o‘z faoliyatining dastlabki yilidayoq bir guruh yoshlarni Istanbulga o‘qishga yubordi. Turkiyada ta’lim olishdan maqsad o‘lkadagi “usuli jadid” maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, “usuli tadris”ning ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar, o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalar yaratish edi.

Sadriddin Ayniy Fitrat hayotining ana shu davri to‘g‘risida bunday ma’lumotni bergan: “...Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan biri hisoblanar edi. Mirzo Abdulvohidning maktabiga ko‘p bormagan bo‘lsa-da, mudarris Abdulqodir mahdum vositasida “Siroj ul-mustaqim” jurnalini mutolaa qilishi natijasida fikri ancha ochilgan edi. U Istanbul shahariga (o‘qishga borish uchun) tayyorgarlik ko‘rardi. Bir bahona bilan Buxoro (amirligi) viloyatlariga sayohat qilib, ko‘p narsalarni to‘pladi va Istanbul safariga tayyor bo‘ldi. Nizomiddin Urganjiyning jiyani Muqimbek Abdurahim bilan birga o‘qir va uning yaqin do‘sti edi. Amakisi bilan munosabati yaxshi bo‘lmagani tufayli Muqimbek Chorjo‘yda mahbus sifatida saqlanardi. U ham Fitrat bilan birga Istanbulga qochmoqchi bo‘lib, qulay fursatni kutardi. Shia va sunniy fojiasidan so‘ng Mirzo Urganjiy Buxoroga kelgach, Muqimbek bu qulay fursatdan foydalanib, 1911-yilning bahorida Abdurauf bilan Eron orqali Istanbulga qochib ketdi”[1].

Istanbul dorulfunida tahsil olayotgan Abdurauf Fitrat Turkiyada o‘qiyotgan vatandosh o‘quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma’naviy yordam ko‘rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko‘paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzadi va uning mukammal Nizomnomasini ishlab chiqdi[2]. Bu hujjat 1909-yilda Istanbulning Vazirxon ko‘chasida joylashgan “Matin”

[1] *Бу ҳақда қаранг:* Каримов Н. XX аср адабиёти намуналари. Тошкент: Ўзбекистон. 2008. – Б. 105.

[2] Истанбулда Бухоро жамияти хайрияси // “Таржимон” газетаси. 1909 йил 25 декабр.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



tipografiyasida nashr qilingan bo‘lib, 4 bobdan iborat. 1-bob “Buxoro ta’mimi maorif xayriya jamiyatining asosiy qoidalari”, 2-bob “Favqulodda yig‘inlar, umumiy yig‘inlar, muntazam yig‘inlar”, 3-bob “Talabalarni jamiyatga qabul qilish” va 4-bob “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati xayriyasining xatti-harakatlari” deb nomlanadi[1].

“Buxoro ta’mimi maorif jamiyati”ning tarkibi doimiy va muxbir a’zolardan iborat bo‘lgan. Jamiyatning bosh organi Kengash bo‘lib, uning 14 kishidan iborat tarkibi doimiy a’zolardan saylangan. 14 kishi orasidan esa jamiyat raisi tayinlangan. Jamiyatga a’zo bo‘luvchilar har oy 10 piastr[2] miqdorida badal to‘lashi shart bo‘lgan[3]. Turkiyada tahsil olishni xohlovchi Buxoro va Turkistondagi kambag‘al oilalarning farzandlariga moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida ochilgan bu jamiyat – 10 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan sog‘lom bolalarni qabul qilishni shart qilib qo‘ygan. Jamiyat faol a’zolaridan Hamidxo‘ja Mehriy nafaqat Buxoro va Turkistonda, balki 1910-yilda Xiva xonligiga ham borib, u yerdagi yoshlarni Turkiyaga borib tahsil olishga da’vat etgan[4].

“Nizomnoma”ning “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati xayriyasi” xatti-harakatlari bobi jamiyatning maqsadlarini ifodalovchi 14 moddadan tashkil topgan:

“1-modda. “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” Turkistonda, va bilxossa, Buxoroda nashri ulum (ilm yoyish) va ta’sisi makotib (maktablar ochish) maqsadida qurilgan bir xayriya jamiyati bo‘lib, hech qanday siyosiy maqsad ko‘zlamagani kabi mavjud jamiyat siyosatga ham hech bir munosabati yo‘qdir.

2-modda. Jamiyatning ko‘zlagan yagona maqsadi moddiy imkoniyatlari doirasida Buxoro va Turkistondan har yili lozim ko‘rilgani qadar talaba keltirib, ularni Istanbul maktablarida o‘qitmoqdir.

3-modda. Talabalar jamiyatning himoyasi ostida bo‘lib, axloqi va boshqa turli jihatlari nazorat qilinadi.

---

[1] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш. 17-20-варақлар.

[2] Пиастр – юнонча сўз бўлиб, “Италия кумуш тангаси” деган маънони англатади. Туркия, Миср, Ҳиндихитой давлатларида амалда бўлган қадимий пул бирлиги.

[3] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш, 17-варақ.

[4] Ўз МА, И-2 фонд, 1-рўйхат, 285-иш, 11-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



4-modda. O‘qishni tugatgan talabaning istiqboli va maslaki otiysini (kelajakdagi ish o‘rni) jamiyat hal etadi va bu xususda aksariyat chiqariladigan qarorga hech bir talaba xilof ish tutmaydi. Aks holda, u tahsil uchun sarflangan xarajatlarni qaytarishga majburdir.

5-modda. Buxoroda ochiladigan maktablarning qurilishiga va olib kelinadigan talabalarning yillik tahsil xarajatlariga ko‘mak berish maqsadida Buxoroning fidoyi boylariga murojaat so‘nggida berilajak ionalar qabul qilinadi.

6-modda. Ta’sis etiladigan maktablarning idora hay’ati va ta’limida faqat jamiyat tomonidan tayinlanadigan shaxslar jamiyat qo‘yadigan talablarni qabul qilish sharti bilan faoliyat yurgizadilar.

7-modda. Tahsil xarajatlarini boshqa jamiyatga yillik ellik rubl berishni bo‘yniga olgan ag‘niyoning muxodimi jamiyatning nazorati va himoyasida tahsil ola biladilar.

8-modda. Muxbir a’zoga har uch oyda bir marta jamiyatning chiqarilgan qarorlarini o‘z ichiga olgan hujjatlar to‘plami yuboriladi.

9-modda. Yuborilgan hujjatning ba’zi jihatiga muxbir a’zolar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar muzokara so‘nggida e’tiborga olinadi.

10-modda. Hozircha jamiyatning sho‘balari yo‘q. Biroq bir necha ishonchli vakillari mavjuddir.

11-modda. Vakillarning jamiyat doktrinasiga xilof harakat qilganlari ma’lum bo‘lib qolgan taqdirda a’zoyi mushovari qarori bilan bir umumiy bayonnoma chiqarilib, mazkur kishiga berilgan ishonchnoma hukmi bekor qilinadi.

12-modda. Jamiyatning bir kutubxonasi bo‘ladi va arbobi hamiyat tomonidan sovg‘a etilgan kitob va risolalar bilan to‘ldiriladi.

13-modda. Jamiyatning hujjati rasmiy muhr bilan tasdiqlanadi.

14-modda. Jamiyat maqsad-g‘oyalarini amalga oshirish uchun lozim bo‘lsa, nashr ishlariga ham murojaat qiladi[1].

[1] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш, 19-20-варақлар.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



“Buxoro ta’mimi maorifi jamiyati” hech qanday siyosiy maqsadni ko‘zlamagan, uning asosiy vazifasi Buxoroda ilm tarqatish va maktablar ochish, moddiy imkoniyat doirasida har yili Buxoro va Turkistondan Istanbulga tahsil olish uchun talabalar yuborishdan iborat bo‘lgan. Istanbulga tahsil olish uchun ketgan talabalar oldiga bir qator talablar qo‘yilib, ular qonuniy jihatdan asoslangan. Jumladan, talabalar jamiyat himoyasida bo‘lgan va ularning axloqi va boshqa jihatlari nazorat qilingan. Yevropa madaniyatini ko‘r-ko‘rona qabul qilmaslik, kelgusida o‘z yurtlariga yaxshi mutaxassis bo‘lib qaytishlari va uning istiqboli uchun fidoyi vatanparvar sifatida xizmat qilishlari, o`qishni tugatgan talabalarning kelajakdagi ish o‘rni jamiyat tomonidan hal etilishi, talaba jamiyat tomonidan chiqarilgan qarorga xilof ish tutmasligi, aks holda unga sarflangan sarf-xarajatlarning undirib olinishi uqtirilgan.

Ushbu jamiyat haqida Zaki Validiy To‘g‘on quyidagilarni yozadi: “Bu jamiyat (Tarbiyai atfol) Istanbulda bir sho‘ba ocharoq, unga 1911-yil 15, 1912-yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu sho‘ba “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” (“Buxoro umumiy maorif jamiyati”) nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1909-yilda Eron yo‘li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo‘li bilan kelgan Usmonxo‘ja, g‘uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o‘g‘li bu jamiyatning quruvchilari edi”[1].

Sadriddin Ayniy esa: “Ikmoli tahsil uchun Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, uning ukasi Ato Xo‘ja, Mazhar Mahzum Burhon Mahzum o‘g‘li, Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istambulga safar kildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste’dodlisi va eng fozili edi”[2], bejizga aytmagan.

Istanbulda o‘qiyotgan talabalar, ayniqsa Fitrat tahsil olish bilan birga Turkiyada chiqadigan “Hikmat”, “Ta’rifi muslimin”, mashhur turk shoiri Mehmet Akif muharrirligidagi “Sirot ul-mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) kabi gazeta va jurnallarini Buxoroga jo‘natib turadilar va bu nashrlar tez orada o‘z muxlislariga ega

[1] Заки Валидий Тўғон. Бугунги турк эли. Туркистон ва унинг янги тарихи. 2-босқи. Истанбул, 1981. – Б. 354.
[2] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 69.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



bo‘lgan[1]. Inqilobiy Turkiya “Ittihod va taraqqiy” partiyasi bilan yaqinlashuv, usmonli turklarning inqilobiy-demokratik tafakkurida muhim zamin bo‘lib xizmat qilgan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g‘oyalari Fitratning ham ijodkor, ham siyosiy arbob sifatida shakllanishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatdi. U tahsil olgan Istanbul dorilfununida Turkiya adabiyotidagi islomchilikning 1910-yillardagi eng mashhur vakili “Sirot ul-mustaqim” jurnalining muharriri Mehmed Akif turk adabiyotidan dars berardi. Mehmed Akif 1921-yilda Turkiya milliy madhiyasi matni uchun konkurs o‘tkazilganida, u “Istiqlol marshi” she’ri bilan 724 shoir orasidan birinchi o‘rinni olgan. “Ittihod va taraqqiy”ning nashri afkori “Yangi majmua”ning bosh muharriri, turkchilik g‘oyasining bayroqdori shoir Ziyo Go‘k Alp ijtimoiyotdan kirardi. 1898-yilda “Turkcha she’rlar”i bilan barmoqda she’r yozishni boshlab bergan Mexmed Aminga ergashish avjga chiqqan, “Turk yurdu” (1911), “Ganch qalamlar” (1911) kabi jurnallar maydonga kelib, tilni arabiy va forsiy unsurlardan tozalash boshlangan yillar edi[2].

1913-yilning bahorida Istanbulda o‘qiyotgan bir guruh yoshlar – Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Atoxo‘ja, Fitrat, Homidxo‘ja vatanlariga qaytib keldilar va Buxoroda “usuli jadid” maktabi ochishga kirishdilar. Bu maktablarni kitoblar, darsliklar bilan ta’minlash maqsadida “Ma’rifat kutubxonasi” va “Barakat shirkati”ni ochadilar. Turkiya, Tatariston, Qrim, Ozarbayjonda chiqadigan har bir yangi chiqqan kitoblar, darsliklar va nashrlar kutubxonaga kelib turadi.

Fitrat 1914-yillarda Buxoroda havaskor teatrchilik ishini yo‘lga qo‘ygan. Sahnada rollar o‘ynagan. Tushgan pullarni 1914-yil urushida jabrlangan musulmonlar foydasiga o‘tkazgan[3].

Bundan tashqari, davriy matbuotda, jumladan, “Oyina” jurnali, “Samarqand” gazetalarida maqolalar nashr qildirgan. Jumladan, “Oyina” jurnalida “Buxoro hukumatining islohotchilik

[1] Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари. “Ҳуқуқ ва бурч” журнали. № 1, 2008. – Б. 43.

[2] Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 79.

[3] Абдулҳамид Сулаймонов кўрсатмаларидан кўчирма. 1937 йил 10 август. 5-саҳифа.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



qadamlari” maqolasi chop etilgan bo‘lib, unda amir Olimxonning ta’lim sohasida amalga oshirgan o‘zgartirishlari haqida ma’lumot beradi[1]. Maqola “Bir necha muddatdan beri kamoli jiddiyat bilan ovozimizning boricha madrasa va maktablarimizni isloh qilish lozimligi haqida faryod chekib, millat diqqati nazari oldida arz qildik. Millatimizni kishanlab, ortga tortayotgan, bee’tiborlik, xorlik tomir-tomiriga singib ketayotgani, bularning barchasi beilmligimizdan ekanligini minglab dalil va isbot bilan aytdik. Bu beilmligimiz o‘z navbatida madrasa va maktablarimizdagi dars usullarining buzilishi, beintizomlik keltirmoqda. Qo‘limizdan kelgancha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdikki, bundan buyon hozirgi ijtimoiy qonunlar, zamon taqozosicha maktab va madrasalarimizni isloh qilmas ekanmiz, hayot muhofazasi, milliyat sharafimizdan ojiz qolamiz. Kamoli shukr aytish bilan shuni iqror qilurmizki, bu barcha xolisona faryod ko‘tarishlarimiz tamoman beta’sir ketmadi. Bir to‘da yoshlar dilida mutafakkir naqsh bosdi. Bugun mamlakatimizning har tomonidan anchagina taraqqiyparvarlar va islohotchilar paydo bo‘lib, islohkorona harakatlar bilan mashg‘ul bo‘lmoqdalar. Faryodlarning eng buyuk go‘zal taassurotlaridan biri, Buxoro amiri janobi oliylarining muborak dillarida hosil bo‘lgan taassurotdir”[2], deb boshlanadi.

Fitratning yozishicha, amir Olimxon jadidlarning ta’lim tizimini isloh qilishga oid ma’ruzalarini tinglagan va ularni e’tiborga olib, Buxoro maktablarini isloh qilishga kirishgan. Maktablardagi mavjud dars berish tartibini o‘zgartirib, muallimlarga maosh belgilagan hamda maktab o‘qituvchilarini umumiy nazorat qiluvchi mufattish (ta’lim inspektori) lavozimini joriy qilgan.

Fitrat amir Olimxon Buxoro jadidlarining madrasalar islohiga oid fikrlarini ham inobatga olgan va yangi madrasa qurdirgan. Madrasada tafsir, hadis, kalom, fiqh, usuli fiqh, hisob, tajvid, tarix fanlaridan ta’lim berilishi belgilab qo‘yilgan. Fitrat amirning bu ishlarini alohida e’tirof etib, “Oh, naqadar yaxshi, naqadar mamnuyat boisi! Bu mujdani eshitgan inson shu qadar shodmon

[1] Фитрат. Иқромот ислох корони ҳукумат Бухоро // “Ойина” журнали. 1915. № 8. – Б 198-200.

[2] Фитрат. Иқромот ислох корони ҳукумат Бухоро. – Б 198.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



va mamnun bo‘ladiki, uning tasviri bayon doirasidan tashqaridir. Qanday mamnun bo‘lmaylik? Diniy darslar xususida Turkistonning barcha nuqtalarida Buxoroga iqtido eturlar. Bundan buyon Buxoroga iqtido qilib, o‘z madrasalarini isloh niyatidalar. Bugungi kungacha biz diniy ilmlarni hosil qilmoq uchun uzoq shaharlarga safar qilgan bo‘lsak, endi o‘z vatanimizda o‘qiydigan bo‘ldik. Binobarin, bu in’om janobi oliylarining dindorona in’omlarini qalb samimiyati bilan muborakbod etamiz. Yana shuni arz eturmizki, agar yolg‘iz bir madrasa qurmoq, unga bir mudarris tayinlamoq bilan ta’lim ishlarimiz isloh qilinsa, ish oson ko‘chardi. Balki, biz buxoroliklar bu barcha madrasa va mudarrislarimiz bilan johil bo‘lib qolmasdik”[1], deb ta’kidlaydi va maqolani “Biz, inshoolloh, bu muborak madrasada dars berish va idora qilish uchun bir nizomnoma tuzib, arzingizga yetkazurmiz. Lekin, eshitishimizcha, hukumat iqtidorli va islohotchi mudarrislardan birini bu madrasa uchun tayinlashga qaror qilgan. Bas, kechga qoldirmay, ul muhtaram zotga xitob eturmizki, ey janob, shuni bilingki, janobi oliy hazrati amir bu madrasani tafsir, hadis, fiqh, usuli fiqh, kalom, faroyiz va tajvid o‘qitmoq uchun bino qildilar. Agar yana janobingiz o‘sha Qul Ahmad va sarix bilan mashg‘ul bo‘ladigan bo‘lsangiz, biz bu harakatingizni... kufroni ne’mat va isyon deb tushunurmiz va bor quvvatimiz bilan noloyiq harakatingizni janobi oliy nazarlariga arz qilgumizdir”, deb yakunlaydi.

Abdurauf Fitratning jurnalda chop etilgan yana bir maqolasi “Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdir” bo‘lib, unda millatni birlashuvga chorlash, islom sofligini asrash, ilm-fanni rivojlantirish masalasi yetakchilik qilgan. Fitratning “Hammamizga ma’lumdirki, bukun islom dunyosi qo‘rqinch bir tezlik bilan halokat chuqurig‘a to‘g‘ri ketmakdadir. Ovrupo dedigimiz ashaddiy kuch dunyosi bizni har taraftan ixota qilibdur. Ilman, iqtisodan, siyosatan bizdan ko‘klar qadar yuqori chiqibdir... Ovrupo ruhoniylari o‘z dinlarini to Afriqoning quruq cho‘llariga qadar nashr qildilar. Bizning muqaddas dinimizni o‘z avomlarig‘a tushuntiradurg‘on bir olimimiz yetishmaydi. Dinimizning

[1] Фитрат. Иқромот ислох корони ҳукумат Бухоро. – Б. 199.



www.nitropdf.com

Durdona



sharafini, payg‘ambarimizning ulug‘ligini Ovrupo olimlari qadar bilaturg‘on bir mullomiz maydong‘a chiqmaydi. Hech shubha yo‘q, shul deganlarimning hammasini ko‘z sohibi bo‘laturg‘on har musulmon-da ko‘radur, shubha yo‘q, ko‘radur. Va agar musulmonlarg‘a muhabbati bor bo‘lsa, aning ko‘ngli manim ko‘nglim kabi yonadir”[1], degan hikmatomuz gaplari bugungi kun uchun ham eskirmagan haqiqatdir.

Jurnalning yana bir sonida Abdurauf Fitratning “Taraqqiy va tajaddud” maqolasida rivojlanish va yangilanish insonlar hamda hayotdagi barcha narsalarning yashash shakli ekanligini uqtirib: “Agar bashariyat tarixiga nazar solsak, ko‘ramizki, insonlarga aloqador barcha ishlar – din, turmush, adabiyot, iqtisod, urush, sulh – bularning barchasi taraqqiyot va yangilanishga bog‘liq bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi”, deb yozgan. Millat masalasiga alohida to‘xtalib: “Xo‘sh, olam sahnasida munosib o‘rin egallamoqchi bo‘lgan millat nima qilishi kerak? Bu shunday bir masalaki, agar bizning kattalarimiz uni to‘g‘ri va kamoli pok niyat bilan hal qilsalar, “eskilik” va “yangilik” nomlari bilan oramizda mavjud bo‘lgan barcha ixtiloflar bartaraf qilinadi”, deb uqtiradi. Uning fikricha, taraqqiyot va yangilanish insonlar hamda jamiyatning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, “ehtiyojni qondirmagan millat, hukumat ham mahv va nobud bo‘lishga mahkumdir”[2], deb ta’kidlaydi.

Abdurauf Fitrat “Oyina”da ko‘plab maqolalar chop etgan va Turkiston taraqqiyparvarlarini bu jurnalning davomiyligini ta’minlash uchun ilmiy mazmuni yuqori bo‘lgan, jamiyatdagi illatlarni ko‘rsatuvchi maqolalar yuborishlarini va unga obuna bo‘lishlarini so‘ragan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning yoshlik yillari Buxoroning eski maktabi, Mir Arab madrasasi hamda Istanbulda kechdi. Navqiron va ilmiy kuchga to‘lgan Abdurauf Fitrat 27 yoshidan Buxoroda maorif tizimini isloh qilish ishlariga kirishdi. Amir Olimxonning ta’limga e’tiborini qo‘llab-quvvatladi. Qarshi va

[1] Фитрат. Ҳиммат ва саботи бўлмаган миллатнинг ҳаққи ҳаёти йўқдир // “Ойина” журнали. 1915. №7. – Б. 8.
[2] Фитрат. Тараққий ва тажаддуд // “Ойина” журнали. 1915. №3. – Б. 34.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Shahrisabz shaharlarida maktab ochib, bolalarning savodlarini qisqa muddatda chiqarish usullarini qo‘lladi. Bundan tashqari, nazmiy, nasriy asarlar, ilmiy maqolalar yozib, jamiyatdagi muammolarni ko‘rsatdi, amaldorlar hamda ulamolarning poraxo‘rligi jamiyat ildiziga bolta urayotganligini afsus bilan qayd qildi, xalqni uyg‘otishga da’vat etdi.

Abdurauf Fitratning til-imlo masalalari bo‘yicha tashabbuslari ham diqqatga sazovordir. Fitrat Toshkent shahrida tashkil qilgan “Chig‘atoy gurungi” jamiyatiga 1919–1921-yillarda rahbarlik qilgan paytlardayoq turkiy xalqlar imlo va yozuvini isloh qilish, o‘zbek adabiy tilining grammatikasi qoidalarini ishlab chiqishga faollik ko‘rsatdi. U adabiyotshunoslik va tilshunoslikka bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqolalari va risolalarida bu haqda maxsus to‘xtab o‘tgan. U 1921-yil yanvarda bo‘lgan O‘zbek tili va imlo qurultoyi faoliyatida ham muhim rol o‘ynagan.

Fitrat turkiy xalqlar yozuvini lotinlashtirish masalasida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Bu sohada u O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘istondan bo‘lgan salaflari Nazir To‘raqulov, Shokir Rahimiy, Ahmad Boytursun va boshqalar bilan birgalikda Boku qurultoyini tayyorlash va o‘tkazishda o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek yozuvini lotinlashtirish g‘oyasi birinchi marta 1921-yil yanvarda Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbek tili va uning imlosiga bag‘ishlangan qurultoyda o‘rtaga tashlangan bo‘lsa ham dastlab ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi[1]. Qurultoyda bu haqda maxsus ma’ruza qilgan Abdurauf Fitrat o‘z so‘zida arab grafikasini bosmalash va qo‘llash ishida bir qator qiyinchiliklar borligini ko‘rsatib o‘tish bilan birga uni soddalashtirish zarurligini taklif qilgan holda arab grafikasini saqlab qolish zarurligini ta’kidlaydi. Bu paytda Turkistonda arab imlosidagi o‘zbek yozuvi 2 marta isloh qilingan.

Fitrat oradan ko‘p o‘tmay o‘zbek yozuvini lotinlashtirish g‘oyasining tarafdori bo‘ldi. Bu yo‘lda u o‘zining safdoshlari bilan tinimsiz kurash olib borib, lotin imlosi tarafdoflarining arab imlosi tarafdorlari ustidagi g‘olib chiqishida muhim rol o‘ynadi.

[1] Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент: “Шарқ”. 2000. – Б. 391.



www.nitropdf.com

Durdona



Turkiston ASSRda 1922-yilning oxiriga kelib imloni o‘zgartirish masalasida muzokaralar yanada kuchaydi. Maorif va madaniyat xodimlarining qurultoyida bu masalada juda keskin tortishuvlar bo‘ldi. Bu qurultoyda asosiy ma’ruzachi bo‘lgan turkiy tillar bilimdoni professor Ye.D.Polivanov O‘rta Osiyo xalqlari uchun arab imlosidan voz kechish og‘ir ekanligini aytsa-da u arab imlosini o‘zgartirish tarafdori bo‘ldi[1]. Keskin munozara va bahslardan so‘ng Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi huzuridagi Davlat Ilmiy kengashi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan arab imlosini yengillashtirish va isloh qilish tarafdorlari g‘alaba qildilar. Qurultoyda bu haqda 6 ta moddadan iborat qaror qabul qilindi.

1926-yil 26-fevral – 5 martda Boku shahrida turkologlarning Butunittifoq I qurultoyi o‘tkazildi. Uning ishida O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissari Rahim Oxunjon o‘g‘li Inog‘omov boshchiligidagi O‘zbekiston delegasiyasi (10 nafar kishi) ham faol qatnashdi[2]. R.Inog‘omovdan tashqari qurultoyda Abdurrashid Abdujabborov (Samarqand), Mixail Gavrilov (Toshkent), Ashurali Zohiriy (Farg‘ona), Elbek (Mashriq Yunuso‘g‘li) [Toshkent], Shokirjon Rahimiy (Toshkent), Bekjon Rahmonov (Xiva [Xorazm]), Ismoil Sadriy (Buxoro), Majid Usmonov (Samarqand), G‘ozi-Olim Yunusov (Samarqand) delegat sifatida O‘zbekistondan bordilar[3]. Biroq mashhur tilshunos va adabiyotshunos olim, shoir va yozuvchi, lotinlashtirish g‘oyasining izchil tarafdori bo‘lgan Fitrat bu qurultoyda qatnasha olmaydi. Bizning fikrimizcha, sovet hokimiyati va bolsheviklar Fitratga qurultoyga borib qatnashish imkoniyatini berishmaydi.

Boku qurultoyida turkiy xalqlar yozuvini arab imlosidan lotin imlosiga o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi. Qurultoy

---

[1] Поливанов Е. О принципах построения тюркской грамматики (Тезисы доклада на заседании педагогической комиссии Научного Совета // «Наука и просвещение», 1922. № 1. – С. 12.

[2] Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган 6-нашр. – Тошкент: “O`zbekiston”, 2015. – Б. 190.

[3] Мусаева Т., Мамедов А. Важная веха по пути развития письменности азербайджанского народа (к 80-летию Первого Тюркологического съезда). – Баку: Тахсил, 2006. – С. 39 – 47.



www.nitropdf.com

Durdona



faoliyatiga Ozarbayjon Yangi turk alfaviti (alifbosi) komiteti raisi Samad Agamali o‘g‘li rahbarlik qildi. Unda jami 131 nafar delegat qatnashdi. Ulardan faqat bir nafari ayol kishi bo‘lib, u qurultoy delegatlari ro‘yxatida ozarbayjon turki sifatida qayd etilgan Ayna Sultanova edi. Qurultoy ishida SSSRdagi barcha turkiy xalqlarning vakillari, shuningdek, akademiklar V.V.Bartold va S.F.Oldenburg, Butunrossiya Sharqshunoslar ilmiy assosiasiyasi raisi M.Pavlovich, Dog‘iston ASSR Xalq Komissarlari Soveti raisi qo‘miq Jaloliddin Qo‘rqmasov, Leningrad, Moskva, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardan kelgan eng yaxshi mutaxassislar qatnashdilar. Shuningdek, qurultoyda xorij, ya’ni Turkiya (3 kishi), Germaniya (2 kishi), Avstriya va Vengriya (1 tadan vakil)dan kelgan mehmonlar ham ishtirok qildilar[1].

Qurultoy Prezidiumiga 22 nafar kishi saylandi. Ular orasida S.Agamali o‘g‘lidan tashqari V.Bartold, A.Boytursun (Qozog‘iston), Galimjon Ibrohimov (Tatariston), M.F.Ko‘prulizoda (Turkiya), R.Inog‘omov (O‘zbekiston), professor A.N.Samoylovich, B.Berdiyev (Turkmaniston), U.Aliyev (Shimoliy Kavkaz) va boshqalar bor edi. Qurultoyda 17 ta majlis o‘tkazilib, unda juda ko‘plab masalalar ko‘tarildi, 40 ta ma’ruza va qo‘shimcha ma’ruzalar tinglandi.

Qurultoyda “Turkiy xalqlar tarixini o‘rganishning hozirgi ahvoli va yaqin vazifalari” (ma’ruzachilar: V.Bartold, G.Gubaydullin[2] va I. Borozdin), “Zamonaviy turkiy tillarning hozirgi ahvoli va o‘rganilishi” (ma’ruzachilar: A.Samaylovich, N.Ashmarik va S.Malov), “Turkiy xalqlar adabiyotini o‘rganish” (ma’ruzachilar: M.F.Ko‘prulizoda, A.Guseynzoda), “Turkiy tillar ilmiy terminologiyasining tashkil etish prinsiplari” (ma’ruzachilar: B.Cho‘bonzoda, A.Boytursun va b.), “Turkiy tillar imlo qoidalari” (ma’ruzachilar: L.Shcherba, G.Ibragimov), “Alfavit to‘g‘risida” (ma’ruzachilar: N.To‘raqulov[3], U.Aliyev va b.) kabi qiziqarli

[1] Рамис Аскер. Бакинская заря на Востоке // “Turkologiya” (Baki), 2016. № 1. – С. 94 – 99.

[2] Газиз Губайдуллин. Труды (Статьи и выступления). – Baki: “Sarq-Garb”, 2010. – С. 22 – 43.

[3] Алаштын асыл перзенті. Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 125-летию видного государственного и общественного деятеля, дипломата Назира Торекулова (1-2 ноября 2017 г.). Туркістан, 2017. – С. 165 – 168.



www.nitropdf.com

Durdona



ma’ruzalar tinglandi. Ma’ruzalar shiddatli muhokama va tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Qurultoyda yozuv masalasida ikki xil yondashuv: lotin imlosiga o‘tish tarafdorlari (J.Qo‘rqmasov) va arab imlosini isloh qilish tarafdorlari (G‘.Sharof) o‘rtasida shiddatli kurash ketdi. Bu kurashda juda ko‘pchilik ovoz bergan lotin imlosiga o‘tish tarafdorlari g‘alaba qozondi. O‘zbekistondan Boku qurultoyiga borib qatnashgan Ashurali Zohiriy, G‘ozi Olim Yunusov va ularning respublikadagi tarafdorlari Qayum Ramazonov, Abdurahim Yo‘ldoshev, Po‘latxon Qayumov va boshqalar lotin imlosiga o‘tishga keskin qarshilik ko‘rsatdilar. Fitrat domla ularning bu qarshiligini sindirishda o‘zining ilmiy maqolalari va risolalari bilan faol xizmat qildi.

Turkiy xalqlar yozuvining arab imlosidan lotin imlosiga o‘tkazish haqida qaror qabul qilinishi nafaqat Sovet Ittifoqidagi turkiy xalqlar hayotida, balki butun dunyodagi turkiy xalqlar uchun ham olamshumul voqea bo‘ldi. Boku qurultoyida ikki yildan keyin O‘zbekiston SSRning poytaxti Samarqand shahrida Butunittifoq turkologlar II qurultoyini o‘tkazishga kelishib olindi. Biroq keyinchalik sovet hokimiyati Samarqandda bunday qurultoy o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymadi.

Qurultoyda Ozarboyjonning lotin imlosiga o‘tish tajribasidan boshqa turkiy xalqlar o‘rnak olishi masalasiga alohida to‘xtab o‘tildi. Buning uchun Butunittifoq yangi turkiy alfavitiga o‘tish Markaziy qo‘mitasi tashkil qilindi. Bu qo‘mitaning birinchi plenumi Boku shahrida 1927-yili o‘tkazilib, unda 34 ta harfdan iborat bir tizimga solingan yangi turkiy alifbo loyihasi qabul qilindi.

1929-yil 15–23 martda Samarqandda o‘tgan O‘zbekiston adiblari, imlochilari va yetakchi ziyolilari qurultoyida o‘zbek yozuvini arab imlosi (grafikasi)dan lotin yozuviga o‘tkazish haqida qaror qabul qilindi. Bu qaror O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi hay’ati tomonidan 1929-yil 10-avgustda tasdiqlandi[1].

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komitetining 1929-yil 7-avgustda qabul qilingan “Sovet Ittifoqi xalqlarini arab yozuvidan yangi lotin alifbosi (alfaviti)ga

[1] Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. – Б. 194.



www.nitropdf.com

Durdona



o‘tkazish to‘g‘risida” qarori bilan mamlakatda turkiy xalqlar yozuvi lotin imlosiga o‘tkazildi. 1930-yildan boshlab lotinlashtirishning yangi erasi boshlandi. Turkiya Respublikasida esa 1928-yilda lotin yozuviga o‘tish boshlangan edi.

Biroq sovet hokimiyati turkiy xalqlarni lotin yozuviga o‘tib, til va imlo jihatidan o‘zaro birlashishiga qarshi edi. Buning ustiga Turkiya Respublikasida ham lotin yozuvi qabul qilinib, sovet turkiy respublikalari uchun Turkiya bu jihatdan ham o‘rnak bo‘lishini xohlamas edi. Sovet hokimiyati SSSRda yashovchi barcha xalqlarni kirill asosidagi yozuvga o‘tkazishga harakat qildi. Rus tili asrlar davomida shu yozuvda olib borilgan. VKP(b) Markaziy Komiteti va SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1939-yil boshlarida qabul qilgan qaroriga ko‘ra, barcha respublikalarda kirill yozuviga o‘tish kerak edi. 1940-yil 8-mayda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida T.N. Qoriniyozovning ma’ruzasi bo‘yicha lotin yozuvidan kirill (rus grafikasi) asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilindi[1].

Fitratning asosiy xizmatlaridan biri “Chig‘atoy gurungi”ni yo‘lga qo‘yganligidir. Ayrim olimlar ushbu uyushma 1918-yildan ish boshlagan deb ko‘rsatishsa, ba’zilari buni 1919-yildan deb hisoblaydilar. “Chig‘atoy gurungi” a’zolarining bu haqda bergan ma’lumotlari ham xuddi shunday yagona emas. Tashkilotning faol a’zosi bo‘lgan Elbek (Mashriq Yunusov) bu sanani goh 1918-yil, goh 1919-yil deb qayd etsa[2], “Chig‘atoy gurungi” asoschilaridan biri Shokirjon Rahimiy 1919-yilda ochilgan, deb ma’lumot beradi[3].

“Ishtirokiyun” gazetasida “Toshkentda “Yosh Buxoroliklar”ning faol a’zolaridan – Fitrat afandi ila o‘zbek yoshlari tarafindan “Chig‘atoy gurungi” nom yangi bir jamiyat tuzilgan. Milliy ishlar komissariyati tarafindan tasdiq etilib, ishga kirishgan. Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondagi eski va yangi

[1] Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккита китоб. Иккинчи китоб. 1939 – 1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Абдуллаев.Р, Рахимов.М, Ражабов.Қ – Тошкент: “O`zbekiston”, 2019. – Б. 467.

[2] Элбек. Ўзбек билим ҳайъатининг тузилиши ва ишлаган ишлари // “Инқилоб” журнали. 1922. №10; Шу муаллиф. Яқинлашмоқдалар // “Туркистон” газетаси. 1923 йил 22 сентябр.

[3] Раҳимий Ш. Тилимизни бир қоида остиға олайлиқ // “Туркистон” газетаси. 1923 йил 7 январ.



www.nitropdf.com

Durdona



turkiy asarlarni jam qilib, turkiy tilini ihyo qiluv (jonlantiruv) haqinda materyol hozirlamak, lug‘at va adabiyot dunyosini boyitmoqdir. Bik vaqtli ham o‘rinli ta’sis etilgan bu jamiyatni samim qalbdan tabrik qilamiz...”[1], deb xabar berilgan.

Agar Fitratning Toshkentda 1918-yilning 15–25-avgust kunlari bo‘lib o‘tgan Musulmon maorif qurultoyida tashkilotchilardan biri sifatida ishtirok qilganini, “1918-yilning o‘rtalarida sakkiz oylik kurslarda Chig‘atoy tili va Chig‘atoy adabiyotini targ‘ib etgan”ini nazarda tutsak[2], “Chig‘atoy gurungi” Fitrat va unga maslakdosh yoshlar o‘rtasida rasman tasdiq etilishidan avvalroq tashkil topgan, deyish mumkin. Binobarin, “Chig‘atoy gurungi” 1918-yilning so‘nggi choragida yuzaga kelgan va 1919-yilning boshidan rasmiy suratda ishga kirishgan. Jamiyat Ishtirokiyun firqasi – TKP musulmon byurosining Turkiston xalqlari madaniy merosini to‘plash va o‘rganish haqidagi topshirig‘ini bajargan[3].

1919–1921 yillarda faoliyat ko‘rsatgan ushbu madaniy-ma’rifiy va ilmiy-adabiy tuzilma turkiy xalqlar madaniyati, san’ati, adabiyoti, tarixi, tili va imlosi kabi sohalarni jiddiy o‘rganishga kirishgan. Uning “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “San’at va teatr to‘dasi” va boshqa bo‘limlari bo‘lgan. “Til va imlo to‘dasi”ga dastlab Cho‘lpon, so‘ngra Elbek rahbarlik qilgan. “Chig‘atoy gurungi” faoliyatida Fitratdan tashqari Qayum Ramazon, Cho‘lpon, Elbek, G‘ozi Olim Yunusov, Mannon Uyg‘ur, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Akmal Ikromov kabilar muhim o‘rin tutganlar. “Chig‘atoy”chilar adabiy til, uning nazariy-amaliy masalalari bilan shug‘ullandilar. O‘tmishga, xususan chig‘atoy adabiyotiga katta ixlos bilan qaragan holda xalq tiliga, xalqona ifodaga, milliy zaminga alohida e’tibor berildi. “Chig‘atoy gurungi” tomonidan 1919-yili arab alifbosini isloh qilgan holda yangi alifbo yaratilgan. 1921-yil yanvarda Toshkentda bevosita “Chig‘atoy gurungi” tashkilotchiligida Til va imlo qurultoyi bo‘lib o‘tgan[4].

[1] “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 4 феврал.
[2] Каримов Н. Чиғатой гурунги // “Ватан” газетаси. 1994. № 44.
[3] Қосимов Б. Маслакдошлар. Тошкент: Шарқ. 1994. – Б. 96.
[4] Тоғаев Т. “Чиғатой гурунги” фаолияти тўғрисида баъзи мулоҳазалар // Oriental



www.nitropdf.com

Durdona



“Chig‘atoy gurungi” milliy tarixni o‘rganishga ham alohida e’tibor qaratib, ishni aholi qo‘lida saqlanayotgan nodir manbalarni yig‘ishdan boshlagan. 1919-yili Turkiston ASSR va Turkiston o‘lkasi Musulmon byurosi “Milliy madaniy merosni to‘plash va o‘rganish haqida” Qaror qabul qilgan va bu ishni amalga oshirish uchun Abdurauf Fitrat, Nazir To‘raqulov va Laziz Azizzodadan iborat hay’at tuzilgan. Gurung a’zolaridan Po‘lat Soliyev, O‘ktam va Abdurauf Fitrat Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Samarqandga ilmiy safarlar uyushtirib, Buxorodan Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asari qo‘lyozmasi, Amir Temurdan boshlab, Zahriddin Muhammad Boburning nabirasi Akbarshohga qadar o‘tgan temuriylar suratlarini topib, Toshkentga olib kelganlar. Fitratning Buxoro Respublikasida Maorif noziri bo‘lib ishlagan davrida uning talabi asosida chop etilgan Sayyid Muhammad Nosirning “Tadqiqoti arki Buxoro” (“Buxoro arki tarixi”, 1921), Sadriddin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” (1926) va Po‘lat Soliyevning “O‘rta Osiyo tarixi” (1926) kabi asarlar “Chig‘atoy gurungi” dasturi asosida rejalashtirilgan edi. Milliy o‘zlikni anglash yo‘lida tuzilgan mazkur gurung faoliyati 1921-yil 10-yanvarda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan to‘xtatilgan. Keyinchalik Fitrat va uning shogirdlari qamoqqa olingach, ularga qo‘yilgan eng katta ayblardan biri ushbu gurungda qatnashganliklari bo‘lgan[1].

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat Turkiston hamda Buxorodagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar alohida o‘rin egalladi. Davriy matbuot orqali xalqqa ma’lumotlar berish bilan birga muammolarni tanqid qildi va unga yechim izladi. O‘zbek tili muhofazachisi sifatida esa uni asrab qolish uchun kurashdi. O‘zbekistonda 1940-yildan boshlab lotin yozuvidan voz kechildi hamda kirill imlosiga o‘tildi. Bolsheviklar til va imlo siyosatini ham o‘z maqsadlariga bo‘ysundirib, undan yagona sovet xalqi yaratish, bu xalqni faqat rus tilini gapirish va yozishga majbur qilish, ya’ni ruslashtirish siyosatini avj oldirdilar. Tabiiyki, sovet hokimiyati yillarida buyuk taraqqiyparvar islohotchi Fitratning bu sohadagi xizmatlari ham unutilishga mahkum qilindi. Barcha

Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №2. – Б. 424.

[1] Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Б. 96.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



turkiy respublikalar qatorida O‘zbekistonda ham bu davrda millat xotirasi va xalq ma’naviyatiga kuchli zarba berildi. “Chig‘atoy gurungi” tugatilib, a’zolari turli jazolarga hukm qilindi.

## Birinchi bobga xulosa

XIX asr oxiri – XX asr boshlari butun dunyo tarixida mustamlakachilikka qarshi kurash vujudga kelgan davr bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, Sharqning ayrim musulmon o‘lkalarida zamonaviy yangiliklarni qabul qilmaslik, o‘rta asr an’analariga sodiqlik, xalq xo‘jaligida har qanday texnikaviy yangiliklarni joriy etilishiga qarshilik ko‘rsatish mamlakatlarda islohotparvarlar guruhining shakllanishiga turtki bergan. Buxoro amirligida ham xuddi shunday vaziyat yuzaga kelgan bo‘lib, konservator qarashdagi ulamolar va amaldorlarning qarashlarini inkor etuvchi jadidlar harakati vujudga keldi. Bu harakatning shakllanish va faoliyati davrida Buxoro amirligini amir Abdulahadxon va uning o‘g‘li amir Olimxonlar boshqarar edi. Har ikkala amir ham dunyodagi o‘zgarishlardan yaxshigina xabardor bo‘lib, ularni o‘z davlatlarida joriy etishga intilganlar. Amir Abdulahadxon zamonaviy tibbiyot muassasalari, dorixonalar, nogironlar uyi ochish, temir yo‘llar, pochta, telegraflar qurishga e’tibor qarati, jadidlarning yangi usul maktablari ochishlarini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, amir Olimxon islohotparvar amir sifatida jamiyatning turli jabhalarida o‘zgarishlar joriy qildi. Buxoro jadidlarining maktab, madrasa ta’limini isloh qilish borasidagi hatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. Ammo 1917-yili Buxoro jadidlarining so‘l guruhi shakllanishi va hokimiyatni egallashga bo‘lgan intilishlari kuchiyishi oqibatida amir Olimxonning jadidchilikka nisbatan munosabati keskin o‘zgardi. Bu harakat ishtirokchilarini jismonan yo‘q qilishga kirishdi.

Jadidlar o‘z faoliyatining dastlabki davrida maorif tizimini isloh qilish, milliy matbuotga asos solish, teatrlar tashkil etish maqsadida amaliy harakatlar boshladilar. Buxoro amirligida 1909–1917-yillarda 50 ga yaqin jadid maktablari faoliyat yuritdi. 1909-yili iste’dodli yoshlarni xorijga o‘qitish uchun moddiy mablag‘ to‘plash hamda ularni ma’nan quvvatlash maqsadida



www.nitropdf.com

Durdona



“Tarbiyai atfol” jamiyati tuzildi. Xalqni ma’rifatli qilish, dunyo yangiliklaridan xabardor qilish maqsadida “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalariga asos solindi.

Ayni shu javrda Buxoroda jadidchilik harakatining yorqin vakili Abdurauf Fitrat dunyoga keldi. Buxoro maktab va madrasalarida tahsil oldi hamda o‘sha paytda vujudga kelgan jadid tashkiloti “Tarbiyai atfol” ta’sischilarining nazariga tushdi. Ushbu jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy ko‘magida Turkiyada tahsil olish uchun jo‘nab ketdi. Istanbulda “Tarbiyai atfol” jamiyatining sho‘basiga asos soldi hamda maslakdoshlari Hamidxo‘ja Mehriy, Usmon Xo‘ja, Otaulla Xo‘jalar ko‘magida tashkilot faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. 1909–1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan mutafakkir Buxoroga qaytadi va jadidlarning ma’rifatparvarlik harakatida faol ishtirok etdi. Bundan tashqari ilmiy va badiiy ijod bilan shug‘ullanib qator asarlar, risolalar, maqolalar va she’rlar yozdi. Buxoro, Qarshi, Shahrisabzda jadid maktablariga asos soldi. Amir Olimxonning 1910–1915-yillardagi islohotchilik harakatini e’tirof etdi. 1917-yilda Buxoro jadidlari orasida bo‘linish sodir bo‘lgach, so‘l qanot rahbariga aylandi. Buxoroda konstitutsion monarxiya tartiblarini joriy qilish uchun kurashdi. 1917-yil aprel hodisalaridan keyin Samarqandda yashashga majbur bo‘ldi. Shu yili “Hurriyat” gazetasi muharrirligi tayinlandi va milliy matbuotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shdi. 1918-yil voqealaridan so‘ng, Toshkentga ko‘chib o‘tgan Fitrat “Chig‘atoy gurungi”ga asos soldi. Til – imlo masalasida o‘z qarashlarini ifoda etib, lotin alifbosini joriy qilish tarafdorlaridan biri bo‘ldi. 1920-yili Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, turli yuqori lavozimlarda xizmat qildi. Millatparvar Abdurauf davlat ishlaridan uzoqlashtirilgach, asosan ilmiy faoliyat bilan shug‘ullandi.

DURDONA



www.nitropdf.com

Durdona



# II BOB. ABDURAUF FITRATNING TARIXIY HAMDA BADIIY ASARLARIDA TURKISTON VA BUXORO TARIXI MASALALARINING O‘RGANILISHI

## §2.1. Mutafakkirning tarixiy tadqiqotlari

Abdurauf Fitrat nafaqat davlat va jamoat arbobi, balki – tarix va fanning boshqa sohalarida ham samarali ijod qilgan qomusiy olim edi. U tarixchi sifatida amirlik hududida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni faqat qog‘ozga tushiribgina qolmasdan, ularga faol siyosatchi, olim hamda davlat va jamoat arbobi sifatida o‘z munosabatini bildirib kelgan. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan voqea-hodisalarni xolis baholab, o‘zining ilmiy maqolalari, risola va asarlarida keng tadqiq qilib borgan.

1909–1913-yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosilib chiqdi. Chunonchi, 1909-yilda “Munozara” (“Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilg‘on munozarasi”) asari bosilgan. “Munozara” asarida Buxoroda faoliyat ko‘rsatgan yosh taraqqiyparvarlarning maqsad va vazifalari o‘z ifodasini topgan. Bu haqda Fitrat ijodining tadqiqotchisi yaponiyalik H.Komatsu shunday degan edi: “1911-yilda[1] Istanbulga o‘qishga borgan yosh buxorolik jadid Abdurauf Fitrat “Munozara” nomli forscha adabiy asar yozdi. Bu asar o‘sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o‘rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo‘yish uchun yozilgan edi; asar faqat Buxorodagina emas, balki butun Turkistondagi jadidlar harakatiga ruh va kuch berishi bilan mashhur bo‘ldi”[2].

“Munozara”ning markazida buxorolik yoshlar tashkil etgan birinchi forsiy “usuli jadid” maktabi va uning atrofida paydo bo‘lgan janjal voqealari turadi. Maktab 1326 hijriy, 10 shavvol kuni (1908-yil, 5-oktabr) Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim,

[1] Х. Коматцунинг асарни чоп этилиш санасини 1911- йил деб кўрсатиши янглишдир. Филология фанлари доктори Зайнобиддин Абдирашидов асар 1909 йили чоп этилганини тасдиқлайди.

[2] Ҳисао Коматцу. Уч жадидчи ва ўзгарган дунё (Турк тилидан Баҳодир Нурмуҳаммад таржимаси) // “Жаҳон адабиёти”, 2017. - № 4. – Б. 133.



www.nitropdf.com

Durdona



Homidxo‘ja Mehriy va Ahmadjon mahdum Hamid (bu ikkisi Ayniyning madrasadosh do‘stlari edi) tarafidan Abdulvohid Munzim hovlisida ochiladi[1]. Oradan deyarli bir yil o‘tib, 1327-hijriy 20-sha’bon kuni (1909-yil, 6- sentabr) maktabda tantanali ochiq imtihon o‘tkazildi[2]. Buxoroda jadid maktablarini ta’qiqlanishiga olib kelgan voqealar aynan shu kuni sodir bo‘ldi. Fitrat “Munozara”ni aynan Buxoroda, 1909-yil sentabr – oktabr oylaridan so‘ng, maktab janjali chiqib, mutaassib ulamolar g‘alabasidan keyin yozib tugallagan deb ayta olamiz. Fitrat bu haqida oradan 20 yil o‘tib yozgan bir maqolasida shunday eslaydi: “1908-yilda (Voqealar 1909-yili sodir bo‘lgan edi. Fitrat yilni xato ko‘rsatgan) yozganim bir asarimda Buxoro amiriga qaratilgan bir xatim bor... Lekin 8 yilda Buxoro xonligida hukm surgan diniy taassubni va shunga tayangan idora usuli... hibs qilish, o‘ldirish, sangsor qilish kundagi odatlardan edi. U zamonlarda kitob yozishning o‘zi “kofirlik” edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarimni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta’lim-tarbiya usulini, bir ko‘p rasmiy idoralarni tanqid qildim”[3]. Fitratning bu so‘zlari ham “Munozara”ni aynan Buxoroda yozilganini tasdiqlaydi. H.Komatsu ta’kidlaganidek, Fitrat “Munozara”da Buxoro amiri Abdulahadni bir o‘rinda “marhum” deb tilga oladi. Fitrat Turkiyaga yo‘lga chiqqan paytlari moddiy jihatdan ancha qiynalgan va safari davomida pul topish uchun ba’zi joylarda ishlashga ham majbur bo‘lgan edi. Bundan tashqari, u Istanbulda yashagan vaqtida ukasi Abdurahmondan moddiy yordam ham olib turgan. Ehtimol, shu bois 1909-yili yozib tugallangan “Munozara”ni muallif moddiy qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, 1911-yili nashr etgan. “Munozara” so‘ngida Fitrat Buxoro aholisini sunniy-shia nizosiga barham berishlariga chaqirgan[4]. Ma’lumki, Buxoroda ikki mazhab o‘rtasidagi nizo ancha uzoq yillardan beri rivojlanib borib, 1910-yilning 8-yanvarida haqiqiy janjalga aylandi. Bu janjal tafsilotlari

[1] Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. — Душанбе: Адиб, 1987. – Б. 32-33.
[2] Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. — Душанбе: Адиб, 1987. – Б. 48.
[3] Фитрат. Ёпишмаган гажжаклар. Ўртоқ Бойбўлатовга очиқ хат. — Фитрат. Чин севиш. Шеърлар, драмалар, мақолалар. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 248.
[4] Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. Б. 68.



www.nitropdf.com

Durdona



o‘sha davr vaqtli matbuotida ham o‘z aksini topgan[1]. Fitrat Buxorodagi bu janjal boshlangan vaqtda shaharda edi. U: “Shanba kuni hujramdan chiqib Toqi telpakdo‘zonga kelganimda, ellikka yaqin mullabachchalar yig‘ilib bir narsani muhokama qilayotganlarini ko‘rdim. Borib quloq tutdim. Aytishlaricha, “Samarqand” darvozasi tashqarisida tamoshaga borgan ikki-uch nafar mullabachcha bilan eroniylar o‘rtasida janjal chiqqan. Bu 1328-hijriyning 10 muharrami edi”[2]. Fitrat ushbu janjal tafsilotlarini bayon qilar ekan, bevosita o‘zi guvoh bo‘lgan voqea-hodisalardan bahs qiladi[3]. Ushbu tafsilot esa, H. Boltaboyevning “Fitratning shia-sunniylar nifoqi paytida Buxoroda bo‘lmagan”[4], degan fikrini tasdiqlamaydi.

Fitratning ilk asari hisoblangan “Munozara” muallifning moddiy qiyinchilikni kechirayotganiga qaramay, Istanbulda nashr etilgan va har xil yo‘llar bilan Buxoroga olib kelingan. Ushbu asar davr taqozisi bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil dunyoqarashga ega bo‘lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi[5]. Muallif xurofotni, bid’atni qoraladi, unga chinakam e’tiqodni qarshi qo‘ydi. Aqlu donishni, uning samarasi taraqqiyot va farovonlikni himoya qildi. Mashhur usmonli inqilobchilar Anvarbek, Niyozbeklarning, Eron xalq qahramoni hurriyatchi Sattorxonu Boqirxonlarning o‘z millatining saodat va osoyishi yo‘lidagi xizmatlarini ibrat qilib ko‘rsatadi[6].

Asardagi farangi orqali esa Buxoroning o’tmishda ikki million aholiga ega ekanligi, amir Muzaffarning mag‘lubiyati johil ulamolarning, “nodonlik sahrosi uyquchilarining g‘aflati dastyorligida” aholisi uch barobar, hududi o‘n barobar kamayib ketganligini, amirlik Rusiya vassalligiga tushganini, bu g‘aflat, bu

[1] Телеграм. Дохилия хабарлари. // “Таржимон” газетаси. 1910 йил 13 январ.

[2] Фитрат. Давраи ҳукмрониии Амир Олимхон. Душанбе: Палатайи давлатийи китобҳо, 1991. Б. 19-20.

[3] Фитрат. Давраи ҳукмрониии Амир Олимхон. Б. 20-23.

[4] Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. Б. 19.

[5] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 46.

[6] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. Тошкент: Маънавият, 2000– Б. 55.



www.nitropdf.com

Durdona



jaholat yana bir oz muddat davom etsa, “jahongir Temur bobokaloningiz sha’ni-izzatiga xiyonat qilsangiz, nom-nishonsiz, sharafsiz, izzatsiz rohat uyida azal-abad uxlayajaksiz”, degan achchiq haqiqatni aytadi. Farangi bu qadar g‘aflat va tanballikdan, jaholat va mute’likdan qutulishning birdan-bir yo‘li sifatida jadid maktablari ochish zarurligini aytadi. “Usuli jadid” maktabi xabarini eshitishi bilanoq mudarris yana jazavaga tushadi. U Buxoroda “usuli jadid” maktabi bir qatla ochilganiyu bir yil faoliyat ko‘rsatgani, Rusiya fuqarosi tatar mudarrisining ko‘rsatmasiga muvofiq “ulamoi buzrukvorlar” bu maktabni tezda yoptirganliklari to‘g‘risida gapiradi. Bu o‘rinda mudarris 1908-yil oktabr oyida Buxoro shahri ichida - Darbozai Sallohxona guzarida Mirza Abdulvohid Munzim (1875-1934) Sadriddin Ayniy bilan birgalikda o‘z uyida ochgan birinchi “usuli jadid” maktabi haqida gapiryapti. Darhaqiqat, bu maktab katta shuhrat qozondi, tantana bilan imtihonlari ham o‘tkazildi. Ammo Rusiya elchixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. Bu ishda Rusiya hukumati oxrankasining maxfiy a’zosi, qozonlik tatar mudarris Mulla Qamariddin hamda elchixona xodimi, poraxo‘rlikda nom chiqargan Shulga ismli kimsa katta faoliyat ko‘rsatdilar. Mudarris “usuli jadid” maktabiga qarshi chiqqan Rusiya fuqarosi - tatar mudarrisi” deganda Mulla Qamariddinni ko‘zda tutgan[1].

Fitrat xalq o’rtasida ilm-ma’rifatni keng tarqatish, ulamolarning musulmon dini ahkomlarini chuqurroq tushunib yetishlari uchun “Qur’oni karim” oyatlaridan va “Hadisi sharif”dan namunalar keltiradi, ularni sharhlaydi. Ayniqsa “Qur’oni karim”ni o‘qib, savobini ota-onalari arvohiga bag‘ishlashdan nariga o‘tmaydigan ba‘zi bir din peshvolarini qattiq qoralaydi. “Qur’on” o‘liklar uchungina emas, ayniqsa, tiriklar uchun hayotda jamiyat taraqqiyoti uchun dasturul amal ekanligini farangi tilidan bayon etadi. Fitrat shunday xulosaga keladi: “musulmon Sharqi Yevropa taraqqiyotining asosini tashkil qiladi.

“Munozara”da xotin-qizlarning ta’lim olish masalasi ustida ham bahs ketadi. Fransuz ayollar ta’lim va tarbiyada erkaklardan kam emasligi, Amerika hamda Fransiyada ayollar amalga oshirgan

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 77.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



ixtirolar erkaklar tadqiqot darajasidan past emasligini ta'kidlab, mudarrisga "Buxoroda ayollar ham tahsil ko'radimi?" degan savolni qo'yadi. Mudarris esa ayolning vazifasi tug'ish va nasl qoldirish ekanligi, Buxorodagi ta'lim muddati 37 yil bo'lib, xotin-qizlar keksayib, nasl qoldirishga yaroqsiz bo'lib qolishi, qizlarni tahsil uchun ko'chaga chiqarib yuborishsa, erkaklarning axloqiy buzuqligi sababli ularga aldanib qolishi mumkin[1], deb javob beradi. Bu munozara orqali Fitrat ayollarning ta'lim olishi va savodxon bo'lishini yoqlab chiqqan. Asarda jamiyatning turli jabhalari haqida ham bahslar mavjud bo'lib, uning iqtisodiy, siyosiy jihatlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

Abdurauf Fitrat asarning "Xotima"sida Buxoro amiri Said Olimxonga ochiq murojaat qildi. Muallif amirni musulmonlarni qaro asirlikdan, zulmdan, haqoratlardan, muqaddas Vatanimizni jaholat botqog'idan, dini sharifimizni tahqirlardan qutqarishga da'vat etadi. "Ey, Buxoro millatining mehribon otasi! Raiyat holig'a tushunib rahm qilg'in, muborak vujudingga Haq taolo tarafidan topshirilgan Muhammadning nurli shariatig'a xizmat qilib, yiqilg'an millatning nurli fikrlarig'a va maorif taraqqiyotining tavsiyasig'a iqdom qil". Fitrat vatandoshlariga, dindoshlariga murojaat qiladi, ular g'aflat og'ushidan tezroq qutulishga, "otash aroba", "o't kema", "teleg'raf", "tipograf" kabi ming turli hunarlar zohir qilayotgan ovro'poliklar bilan qadam-baqadam bo'lishga, musulmonlarning shia, sunniy, zaydiy, vahhobiylar ixtilofiga barham berishga, buning uchun birdan-bir najot yo'li - ilm-ma'rifatga keng yo'l ochishga, jadid maktablari tarmoqlarini kengaytirishga dav'at etadi[2].

"Munozara" 1911-yili Hoji Muin tarjimasida "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida bosilib chiqdi. 1913-yili Behbudiy so'zboshisi bilan alohida kitob holida nashr qilindi[3].

Fitrat 1912-yilda Istanbulda nashr etilgan "Hind sayyohi bayonoti" asarida o'lka hayotining ko'plab muammolari – xalqning

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 59-60.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 94-95.
[3] Абдирашидов З. Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: "Мунозара" ва Истанбул Бухоро жамияти хайрияси // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 2 (31), – P. 287.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



nochor hayoti, harbiy nozirlarning intizomsizligi, shahar va uning atrofidagi qishloqlarning ekologik ahvoli, el sog‘ligini saqlash – tabobat va davolash usullari, sanoat va ishlab chiqarishning nochor holati, qozixonalar ishi, qator viloyatlarning milliy gazetaga muhtojligi, yo‘l qurilishi, hatto temir yo‘llar, dehqonchilik va hunarmandchilik – hayotning barcha sohalari keskin islohga muhtoj ekani hind sayyohining nazari orqali idrok qilinadi. Bu asarda nafaqat islohotchilik g‘oyalari, balki yangi kapitalistik munosabatlarga o‘tish ham targ‘ib qilingan[1].

Buxoroga kelgan hindistonlik musulmon sayyoh tilidan hikoya qilingan qissada aslida hind sayyohi yozuvchining o’zi bo’lib, asar yozilgan paytda Rossiyada inqilob yuz bergan, yurtimizda esa ma’rifatparvar jadidlar harakati ancha kuchaygan edi. Fitrat jamiyatdagi kuchlar nisbati, kim-kimning hisobiga yashayotganligi va kim adolatsizlik qurboni bo’layotgani haqida fikr yuritadiki, ko’p gaplar yaqin o’tmishimiz haqida tasavvur uyg’otishi barobarida millatning teran fikrli farzandlarini o’ylantirgan, qiynagan masalalardan darak beradi.

Asarda Buxoro madrasalarida diniy ta’limning og‘ir ahvolda ekanligi, nafaqat talabalar, hatto mudarrislarning ilm saviyasi, arab tilini sayoz bilishi natijasida islomning muqaddas kitoblari noto‘g‘ri talqin qilinayotgani bayon etilgan: “Madrasamiz bor, kutubxonamiz bor, biroq yurtimizda tafsir va hadisning biror betini, hatto arab tilidan biror betini xatosiz o‘qib, komil ravishda tushuntirib beradigan birorta allomaga ega emasmiz”[2].

Fitratning fikricha, buning oqibatida xalq hayotiga kirib kelayotgan yangiliklar, ilg‘or g‘oyalar shariatga xilof deb qoralanadi. U shunday deydi: “Ovro‘podan muallimlar olib kelish va har yili bir necha iste’dodli yoshlarni tibbiy ta’lim olish uchun Rossiyaga yuborish, bularning birontasi shariatga qarshi ishlar emas[3]. Zero, olamning faxri bo‘lmish alayhissalavotu vassalla buyurganlar: “Utlub il-ilma va lav bas-Sini”, ya’ni “ilm agar Chinda bo‘lsa ham tilab o‘qingiz”. Ana shu hadisi sharif mazmuniga diqqat bilan e’tibor qilaylik, Payg‘ambarimizning Chinni misol

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 98-168.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 114.
[3] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 134.



DURDONA
www.nitropdf.com

Durdona



keltirishlaridan maqsadlari albatta fiqh va tafsir ilmini o‘rganish emas, chunki Chin kofiristondir. Bu hadisda tilga olingan ilm, ya’ni tib va san’atdir. Ma’lum bo‘ldiki, dunyoviy ilmlarni g‘ayridinlardan o‘rganish ham bizning shariatimizga mosdir”[1].

Hind sayyohi Buxorodagi ta’lim tizimi ancha eskirib, islohotga muhtoj ekanligini qayd qiladi va: “Haqiqatdan ham Buxoro va buxoroliklar holi juda achinarli bo‘lib, voqean hudpisand ulamolarning ishlari bu millatning tanazzuliga sabab bo‘lgan. Faqat sizning ulamongiz emas, islom olamidagi barcha ulamolar ham so‘nggi uch yuz yil ichida shunga o‘xshash xiyonatlarga yo‘l qo‘ymoqdalar. Kuni kechagina usmonli tatar, Eron va Hindiston ulamolari ham sizning ulamongiz singari, o‘zlarining mazlum xalqining qonini ichib keldilar. Faqat bu millatlar sizdan oldinroq ushbu harakatdan ogoh topib, imkon boricha bu ulamolarning tomiriga bolta urishga intilib, qisqa vaqt ichida millatparvar ulamolarni qorni yo‘g‘on ulamolardan farqlab, birinchilarini boshlariga toj qilib, ikkinchilarini esa oyoq ostiga olmish”[2], deb yozadi.

Fitratning ushbu asarida til o‘rganish masalasiga oid qarashlari alohida ta’kidlangan bo‘lib, Buxoro madrasalarida 20 yilda o‘rganilmagan arab tili Hindiston madrasalarida 4 yil davomida o‘rgatilayotgani va hind yoshlari buxoroliklardan bu tilni ancha mukammal bilishlari hamda ravon so‘zlay olishlarini uqtiradi[3].

Fayzulla Xo‘jayev “Hind sayyohi qissasi”ga munosib ta’rif berib: “Fitratning “Sayyohi hindi” asarining ahamiyatini bu yerda qayd etmasdan o‘tolmaymiz. Faqat Buxorodagina emas, uning tashqarisida ham bu asar qiziqib o‘qildi. Keyin bu kitob rus tiliga tarjima qilinib, bosilib chiqdi”[4], deb qayd qilgan.

Fitratning dastlabki she’riy to‘plami “Sayha” ham Istanbulda 1911-yilda nashr qilingan bo‘lib, undagi she’rlar Vatan haqida edi. She’rlar bilan tanishib chiqar ekanmiz, ularda Fitrat Vatani uchun baxt va najot izlaganini yaqqol ko‘rinib turadi:

---

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 136.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 116.
[3] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. I жилд. – Б. 123.
[4] Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 томлик. I том. Тошкент, 1976. – Б. 99.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



“Binmo sahari azmi tavofi vatani man,
Oh-oh, chi vatan, sajdagohi jonu tani man.
Ham mohi manu osoyishi, izzu sharafi man,
Ham Qa’bai man, qiblai man, ham chamani man”.

(Mazmuni: Vatanimni ziyorat qilmoqqa erta tongda kel. Hay-hay, qanday vatan bu! U – mening sajdagohim, jonu tanimdir. U mening osmondagi oyim, osoyishim, izzatim, sharafim, ka’bam, qiblam va chamanimdir.)

Shoirning bu kabi she’rlari 1914-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasida ham bosildi. “Vatanparvarlik she’rlari to‘plami bo‘lgan “Sayha”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Chunki bu she’rlarda Buxoro mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi”[1], deb yozgan edi Fayzulla Xo‘jayev.

Fitratning “Najot yo‘li” asarisiz esa jadidlarning harakatiga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Bu asar jadidlarning g‘oya va maqsadlarini baholashda yagona va birlamchi manbadir. Muallif millatni qoloqlikdan qutqarish yo‘li deb islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimni biladi. Bu muqaddas kitob va islom dini g‘oyalari atrofida millatni jipslashtirishga da’vat etadi. Uning fikricha, “Qur’oni karim” – bu ilm va ma’rifatdir, ota-bobolarimiz har sohada, ayniqsa, ilm va ma’rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo`lganlar, ular har bir ilmning asosiy mohiyatini yaxshi bilib, undan yaxshigina istifoda va iste’mol qilganlar[2].

Fitrat Buxoroning taraqqiyotdan orqada qolib ketayotganiga asosiy sabab qilib, mamlakat aholisining savodsizligi, siyosiy ongi rivojlanmaganligi va ilmu ma’rifatdan uzoqda ekanligini ko‘rsatadi. U mamlakatni tanazzuldan, xalqni nochor ahvoldan qutqarish uchun ilm-fanni rivojlantirish zarurligini uqtiradi.

Abdurauf Fitrat islom “Najot dini” ekanligini ulamolar va oddiy xalqqa isbotlab berdi. Mutaassiblar o‘ylab topgan fikrlarga qarshi chiqdi.

Bu paytda Turkiston mintaqasi Yevropa davlatlaridan tabiiy va aniq fanlar sohasida ancha orqada qolgan, texnikaviy

[1] Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 томлик. I том. – Б. 100.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 66.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



yangiliklar bo‘lishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Taraqqiyparvar ulamolar turkiy xalqlarning bunday qoloqligini ilmsizlik va dangasalikdan deb, bilsalar, konservativ qarashdagi ulamolar bunga quyidagilarni sabab qilib ko‘rsatganlar:

1. Parishonligimiz va tushkunligimizga sabab yo‘q. Bu ilohiy xohishdir.

2. Xudo bu dunyoni kofirlar uchun jannat, mo‘minlar uchun do‘zax qilib yaratgandir.

3. Qiyomat yaqindir, musulmonlar bu dunyoda asta-sekin kamayib bormoqdalar.

4. Hazrat payg‘ambarimiz “kulli yavmin badtar” deb aytganlaridek, musulmonlarning kuni kundan battar bo‘lib bormoqda[1].

Fitrat ulamolarning bu mulohazalari puch va botil ekanini ta’kidlab, unga javob berish u yoqda tursin, balki ularni eshitish to‘g‘ri emasligini uqtiradi. Xalq va millat xarobligi sabablarini topish uchun “Qur’oni karim”ni o‘qib chiqadi va quyidagi javobni oladi: “Albatta, ne’mat berilgan qavm o‘zlarini o‘zgartirmagunlaricha Alloh ularni holini o‘zgartirmas”[2].

Fitrat Muhammad payg‘ambar davridan ummaviy va abbosiy xalifalar davrigacha, islom dini mamlakatlari taraqqiyoti haqida ma’lumot berib, turkistonliklarining nochor ahvolga tushib qolganiga kuyunadi. Farobiy, Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Ulug‘bekni yetkazib bergan zaminni oldingi holatiga qaytarish choralarini izlaydi. Ulamolarning tushkunliklar ilohiy rizo degan so‘zlarini rad etib, turli dalillar keltirish orqali xalqni taraqqiyotga chorlaydi. Xor-zorlikning asosiy sababi nosoz amallar ekani qayd etib: “O‘zimizni musulmon deb bilamizu, lekin muhim islom ahkomlarini tamoman tark qilganmiz. Agar ilohiy dargohga ruju’ qo‘yib, ahvolimizni isloh qilib, Qur’oni karim ahkomlarini o‘zimizga yagona rahbar deb bilsak, taraqqiyotga umidvor bo‘lish mumkin, illo bizni bu parishonlikdan hech bir avliyoning karomati xalos etmaydi!”, deb yozadi. “Biz o‘zimizni musulmon deb

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 63.

[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 64.



www.nitropdf.com

Durdona



bilamizu, lekin islohot amrlarini ko‘rib, bilib turib ko‘plariga amal qilmaymiz, ilohiy hukmlardan kamoli beboshlik bilan chiqib ketamiz, ittifoqimiz yo‘q, taqvo qilmaymiz; o‘rtamizda o‘zaro yordam yo‘q, haq talabini bajarish yo‘lida birga qadam bosmaymiz; riboxo‘rlik qilamiz, sharob ichamiz, g‘iybat va hasad qilamiz. Shariat man etgan barcha ishlarni qilamiz va shuning uchun ham axloqiy razilliklarga giriftormiz. Vujudimizdagi shuncha nuqson bilan o‘zimizni komil musulmon deb bilamiz, birov bizni bu insofsizliklardan man qilsa, uni kofir deymiz”[1], deb afsuslanadi mutafakkir.

Mirshabning “Kechki payt ko‘chaga chiqsang, qamalasan”, degan hukmiga amal qilgan xalqning Qur’ondagi hukmlarga bo‘ysunmasligini qoralab: “Bugun boshimizga kelgan falokat va badbaxtliklarning yagona sababi shuki, hikmatli hukmlardan va Qur’on natijalaridan uzoqlashib ketdik. Agar biz dunyo va oxirat saodati talabida bo‘lsak, barcha g‘arazli va fasod ishlarimizni bir tarafga qo‘yib, samimiy qalb bilan unga mute bo‘lib, Qur’on hukmlariga bo‘ysunib, ijtimoiy hayotimizni shunga muvofiq tarzda tartiblaylik”[2], deb xalqni islom dinining muqaddas kitobini o‘rganishga va undagi hukmlarga amal qilishga chaqirdi.

Mamlakatimizda ikki guruh baxtsiz odamlar borki, harakatlari tanqid va tanbehga sazovordir. Birinchi guruh hayotlarining maqsadlari deb, yeb ichishni biladilar, ular bir luqma taom va yotadigan joy uchun insoniy vazifalarini esdan chiqaradilar, biron-bir ish haqida o‘ylamaydilar ham. Kechasi erta uchun qorinlarining g‘amida, kunduzi esa yotish to‘shaklari g‘amida bo‘ladilar. Xulosa qilib aytganda, ular bu dunyo osoyishtaligini o‘ylab, boshqa narsa bilan ishlari yo‘qdir. Allohning o‘zi saqlasin, bu pastkash jamoa o‘zlarini insoniylikning baland martabasidan maxluqiylik darajasiga tushadilar. Ikkinchi guruh shunday jamoaki, hayot g‘oyasini faqat oxirat saodati deb biladilar, bu dunyo saodatiga erishish uchun hech harakat qilmaydilar, balki bu dunyo saodatini kofirlarga xos deb biladilar, boshqacha qilib aytganda, dunyoni kofirlar jannatiyu musulmonlar do‘zaxi deb biladilar. Bular ham insoniylik

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. – Б. 68.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. – Б. 69.



www.nitropdf.com

Durdona



vazifasini, bashariyat yaratilishining hikmatini idrok qilmaganlar, ularning fikri ham ilohiy hukmga to‘g‘ri kelmaydi[1].

Ikki dunyo saodatini talab qilgan insongina komil musulmondir. Baqara surasida jamoani duo qilib, “nimaiki talab qilsalar, topadilar”, demasdan, balki “o‘zlarining say’-harakatlari evaziga topadilar”, deyilgan. Negaki, bizlar kechayu kunduz vaqtimizni behuda ishlarga sarflaymiz. Ba’d, falon masjid yoki falon mozorga borib, maqsadimizni Xudodan so‘raymizda, yana chiqib bema’ni va noloyiq ishlarimiz bilan mashg‘ul bo‘lamiz, maqsadimizga yetish uchun o‘zimiz say’-harakat qilmaymiz. Birovning biron bir maqsadi bo‘lsa, eng avval himmat kamarini beliga mahkam boylab, maqsadiga yetishish uchun say’-harakat qilib, keyin duo qilsa, duosi ijobat bo‘ladi.

Komil musulmon ham dunyo saodatini, ham oxirat saodatini talab etuvchidir. Dunyoni tark etib oxirat talabida bo‘lish shar’iy hukmlarga muvofiq kelmaydi. “Dunyoni mo‘minlar do‘zaxi va kofirlar jannati” deb qaysi teran aqlimiz bilan aytib, bu xom xayolimizni ilohiy farmon deb bilamiz? Muhammad alayhissalom muborak umrlarini say’-harakatda o‘tkazganlar. Ular cho‘ponlik qilganlar, tijorat bilan shug‘ullandilar, muallimlik qildilar, va’z aytdilar, imomlik qildilar, ba’zan askar, ba’zan sartib, ba’zan xatib, ba’zan tabib bo‘ldilar. Bular harakat bo‘lmay, nima edi? Ular say’-harakatda bo‘lsalar, nima uchun biz tanballik va harakatsizlikni o‘zimizga shior qilib olganmiz?[2].

Abdurauf Fitrat “Najot yo‘li” asarida bag‘rikenglik masalasini ham keng tadqiq qilgan bo‘lib, insonni kamolotga olib boruvchi fazilatlarga aql, ilm, hilm, shukr va sabr-qanoatni, insonni tubanlashuviga olib keluvchi illatlarga esa ta’ma, hasad, baxillik, hirs va kibrni kiritgan hamda hikoyalar bilan bu xususiyatlarning ahamiyatini ochib bergan.

Xullas, Abdurauf Fitrat “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” hamda “Najot yo‘li” asarlarida XX asr boshlarida Buxoroda kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va diniy jarayonlarni yoritib berdi. Jadid maktablarining tashkil etilishi, unga qadimchilarning munosabati, ayollarning bilim olishi masalalarini “Munozara”da,

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. – Б. 73-74.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. V жилд. – Б. 76.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Buxoro amirligi bekliklaridagi iqtisodiy ahvol, aholining mashg‘ulotlari haqida “Hind sayyohi bayonoti” asarida, islom diniga e’tiqod va unga kirib qolgan bid’atlar haqida “Najot yo‘li”da to‘xtalib o‘tdi. Buxoro amiri Olimxonning islohotparvar hukmdorligini e’tirof etib, jamiyatdagi muammolardan ogoh bo‘lishga chaqirdi.

## §2.2. Fitratning publisistikasi va risolalarida Turkiston va Buxoro tarixi masalalari

Abdurauf Fitrat faoliyatining muhim jihati uning davriy matbuot sahifalarida muntazam ravishda maqolalar berib borishi edi. U jadid matbuoti sahifalarida mamlakatda sodir bo‘layotgan voqealarga o‘zining munosabatini bildirib borgan. “Oyina” jurnali hamda “Hurriyat”, “Ulug‘ Turkiston” kabi gazetalarda uning Buxoro va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tahlil qiluvchi maqolalari nashr etilgan bo‘lib, bugungi kunda ular o‘sha davr tarixini yoritib beruvchi muhim manbalardan bo‘lib hisoblanadi. Samarqandlik jadidlar tomonidan 1917-yilning 15-aprelidan boshlab “Hurriyat” gazetasi chiqa boshlaydi. Gazetaning 1918-yilgi 27-sonidan to oxirgi 87-sonigacha Abdurauf Fitrat muharrirlik vazifasini bajargan.

“Hurriyat” gazetasida Abdurauf Fitratning “Bir o‘zbek yigitining tilidan” badihasi nashr qilingan bo‘lib, unda Vatan bosh-oyog‘i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko‘ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol timsolida tasvirlangan. Bu timsol, bu xayol “o‘zbek yigiti”ni tushida ham, o‘ngida ham ta’qib qilgan. O‘zbek yigiti “g‘amli ona – muqaddas Turon”dan ayrilmoqni o‘zi uchun o‘lim, uning uchun o‘lmoqni esa tiriklik hisoblagan va uni uni qutqarishga qasam ichgan: “Ustimga ilonlar emas, shaytonlar qo‘shini kelsa, oyog‘imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari choparman. Dunyoning butun balolari boshimga to‘kilsa, zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlarimg‘a kirsa, yana seni qutqaraman. Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman!.. O‘lim sening o‘liming istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga!”[1].

[1] Фитрат. Бир ўзбек йигитининг тилидан // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 18



www.nitropdf.com

Durdona



Boshqa bir maqolasida esa “sharafi talangan, nomus-e’tibori, imon-vijdoni oyoq osti bo‘lgan, yurti ulog‘i, o‘chog‘i yot qo‘llarga tushgan” avlod nomidan sohibron Amir Temurdan panoh so‘ragan[1].

Shu gazetaning 1917-yil 49-sonida “Xabarlar” ruknida 25-oktabrda Rossiyada qishki saroyning egallanishi va Muvaqqat hukumatning qamoqqa olinishi munosabati bilan Fitratning “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi – bolshevik balosi!” degan qaydini ko‘rish mumkin[2]. Abdurauf Fitrat so‘ngroq bu voqeani “Yurt qayg‘usi” sifatida baholaydi.

1917-yil 15-noyabrda Lenin va Stalin imzo chekkan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”dagi “millatlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilash huquqi”, “barcha milliy va milliy-diniy imtiyozlar va cheklanishlarni man etish” haqidagi bayonot bir chetda qolib ketdi. Turkistonning 98 foizini tashkil etuvchi 10 million musulmonlarning xohish-irodasi bilan hech kim hisoblashmadi. Aksincha, “musulmonlarni o‘lka oliy inqilobiy organiga kiritish” mumkin emas deb topildi. Mana shunday bir sharoitda 26-noyabrda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining favqulodda IV-qurultoyi ochildi. Unda o‘lkaning turli shaharlaridan 203 vakil ishtirok etdi. Muhimi shundaki, yig‘in milliy va diniy cheklashlardan holi bo‘ldi. Hay’atga saylanganlar orasida yevropaliklar ham bor edi. 27-noyabr kechda qurultoy tarixiy qaror qabul qilib, Turkiston muxtoriyatini tuzgan[3]. Abdurauf Fitrat “Hurriyat” gazetasida 1917-yil 5-dekabrda e’lon qilingan “Muxtoriyat”[4] nomli maqolasida xalqimiz uchun muxtoriyatchilik harakati va Turkiston Muxtoriyati hukumatining tarixiy o‘rnini, muxtoriyat uchun kurash va uni saqlab qolish kerakligini quyidagicha ko‘rsatadi:

“Turkiston Muxtoriyati... Temur Hoqonning chin bolalari yoninda, Turkistonni tubchak turklari orasinda, shundan o‘g‘urli

август.

[1] Фитрат. Юрт қайғуси // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 31 октябр.

[2] Хабарлар // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 7 ноябр.

[3] Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти вазирлари ҳамда Миллий Мажлис аъзолари ҳаёти ва тақдири. Тошкент. 2021. Б. 11-12.

[4] Фитрат. Мухторият // “Ҳуррият”газетаси. 1917 йил 5 декабрь.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



[haybatli, buyuk], mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so‘zni borlig‘iga ishonmayman.

Turkiston turkining qonini qaynatg‘uchi, imonini yuksaltg‘uchi bir quvvat bor esa, yolg‘iz shu so‘zda bordir: Turkiston Muxtoriyati.

Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to‘zimli turdik, sabr etdik.

Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yinsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashrunturdik, emgaklarimizg‘a o‘rab saqladik: Turkiston Muxtoriyati!

...Turkistonning tarixiy xonbaliqlarindan ikkinchisi bo‘lgan Xo‘qand shahrinda to‘plang‘an Turkiston qurultoyi 27 no‘yabrning “milliy laylatulqadrimiz bo‘lg‘an” yarim kechasinda Turkiston Muxtoriyatini e’lon qildi”[1].

Fitrat muxtoriyat hukumatini turkistonliklar millati himoya qilishi va saqlashi kerakligini ta’kidlab, o‘zining ehtiros va o‘ta pafosga to‘la maqolasini quyidagicha tugatadi: “Lekin shunisi borkim, bir millatning muxtoriyati yolg‘uz bir s’ezdning e’loni bilan tamom bo‘lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. S’ezd o‘z ishini qildi. Qolg‘anlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdir. Bularni millat hozir qilsun”[2].

“Hurriyat” gazetasida chop etilgan Abdurauf Fitratning yana bir maqolasi “Turkistonda ruslar” Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatining mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini ochib beradi: “Mana shul edikim: Rusiya davlati bizning o‘lkalarimizni kelib bosdi. Ortuq biz Turkiston turklari Ovro‘pa madaniyati tashiguchi bo‘lg‘an rus millatiga yo‘liqg‘an bo‘ldik. Madaniy ruslar bilan qorishib unlarning dalolati Ovro‘paning madaniy va ijtimoiy usullaridan ta’sir olmog‘imiz kerak edi.

---

[1] Фитрат. Мухторият // Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 198-199.

[2] Фитрат. Мухторият. – Б. 199.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Shuni ham aytib o'taylukkim munday bir ta'sirni rus millatining avom tabaqasindan olmog'imiz mumkin emas edi, chunki bizning avomimiz unlardan yuz marotaba madaniyroq edilar (hozir ham shunday). Ruslarning o'qug'an, tarbiyali kimsalarindan sosializm va qardoshliq maslakinda yurg'anlar ham imperatorlik hukumati tarafindan quvilib, qisilib turg'anlari uchun bizga biror ta'sir qo'yolmas edilar.

Qoldi: rus millatchilari, rus boylari va rus po'plari bilan shunlarning qorovuli bo'lg'an imperator hukumati. Biz turkistonlilar yolg'iz shunlarning qo'linda qoldiq. Ne ko'rgan bo'lsak shunlardan ko'rdik"[1]. Fitrat ushbu maqolasida millatparast, jadid maktablariga qarshi chiqqan, ularning yopilishi uchun qattiq kurashgan Ostroumovni ham keskin tanqid qilgan: "Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o'ldurmak tilagi bilan O'straumov kabi mutaassib po'plarning idorasinda gazit chiqarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni onglatmoq uchun o'z tarafimizdan ochilg'an maktablar va gazitlar bog'landi, sha'riy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g'asb etildi"[2].

"Hurriyat" gazetasida Fitratning Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bag'ishlangan maqolalari ham chop etib borilgan. Uning "Buxoro ulamosi" maqolasida ulamolarning jamiyatni boshqarishdagi o'rni, harakatlari, ularning mamlakatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabatlari va qarashlari, shu bilan birga o'zining rahbarligida jadidlarning talabi bilan amir tomonidan qozikalon Burhoniddin, rais Abdullaxo'ja Sadur va mufti Askar Masnaf maxdumlarning qatl ettirilgani, ularning o'rniga esa Muhammad Sharif maxdumning – qozikalon va Abduhamid maxdumning – rais etib tayinlanganligi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan[3].

"Hurriyat" gazetasining 1918-yilgi 62-sonida Abdurauf Fitratning "Buxoroning holi" maqolasi chop etilgan bo'lib, unda amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'rif bergan holda, jadidlarni jiddiy harakatga chorlab, shunday yozgan: "Endi Buxoro

[1] Фитрат. Туркистонда руслар // "Ҳуррият" газетаси. 1918 йил 2 январ.
[2] Фитрат. Туркистонда руслар.
[3] Фитрат. Бухоро уламоси // "Ҳуррият" газетаси. 1917 йил 4 ноябр.



www.nitropdf.com

Durdona



yoshlari uchun lozimdirkim “bayonnoma – hamma bunga ko‘mak etmak” shiorini miyalaridan chiqarg‘aylar. Buxoro inqilobini istar esalar, inqilobchilarga yarashur harakatlar qilg‘aylar. Yaxshi so‘zlar bilan, tavozelar bilan, yolvorishlar bilan Buxoro hukumatini yo‘lga kelturmak bo‘lmas. Zolimlarning bir tabiati bordir: “Qochganga – quvar, quvganga – qochar”. Zolimlarning shu tabiatlarini, shu “ahvoli-ruhiyalari”ni ko‘zda tutmayin harakat qilaturganlar xato yo‘ldadirlar, zarar ko‘rarlar. Qo‘rqmayin, tortinmayin keskinroq harakat qilmoq kerak”[1].

Shu gazetaning 75-sonida e’lon qilingan “Buxoroda inqilob” nomli maqolasi esa keyinchalik Abdurauf Fitrat tomonidan yozilishi rejalashtirilgan risolaning boshlang‘ich bobidir. “Hurriyat” gazetasini chop etish taqiqlanganligi sababli ushbu risola oxiriga yetkazilmagan va keyinchalik ham alohida shaklda yoki boshqa vaqtli nashrlarda e’lon qilinmagan. Bu maqolada Abdurauf Fitrat 1917-yil 7-aprelda e’lon qilingan amir manifesti, unga nisbatan Buxoro ulamolari va yoshlarining turli xil munosabatlari natijasida amirlikda yuzaga kelgan qaltis vaziyatni yoritib, tahlil qilishga harakat qiladi va shunday yozadi: “Dunyo hodisalar o‘chog‘idir” – demishlar, bu to‘g‘ri so‘z. 28-fevralda Rusiyada hurriyat bo‘ldi. Imperator Nikolay II taxtdan tushirildi. Konsul Miller Kogondan Buxoroga kelib, “Naminol” hovlisida o‘tirdi. Xalq og‘ziga yangi bir so‘z tushib qoldi: “Buxoroda hurriyat bo‘lar ekan. Buni yoshlar bilagi bilan rus konsulxonasi qilar ekan”. Aprelning yettinchisida amirimiz birinchi bayonnoma chiqardilar. Aprelning sakkizinchisida Buxoro yoshlari boydoq chiqarib muborakbod qildilar. Mullalardan bir jamoa chiqib, shul boydoq chiqorg‘onlarni kofir deb o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. Hukumat amri bilan yoshlarning birini tutib, 75 tayoq urdilar. Aprelning to‘qqizinchisida qo‘shbegi odamlari yoshlarning uylarini bosdilar. Topganlarini keltirib, “obxona” degan rutubatli bir mahbusda qamadilar va ikkitasini yana hukumat amri bilan 75 tayoq urdilar. Yoshlar qochib Kogonga chiqdilar. Abdulhamidxon raislikdan tushdi. Masnad maxdum rais bo‘lib ketdi. Samarqanddan rus soldatlari kelib, obxonadagi yoshlarni qutqardi.

[1] Фитрат. Бухоронинг ҳоли // “Ҳуррият” газетаси. 1918- йил 13 январ.



www.nitropdf.com

Durdona



Mana shular bir-ikki haftada bo‘lib o‘tgan hodisalar. Har biri bir ma’no. Men aniq bilamanki, shul ishlarning haqiqat hikmatlarindan ruslar bilan yoshlar va Buxoro beklarindan boshqa kimsa xabardor bo‘lmadi. Buxoro xalqi na mullabachchalari, na sahroyilari, na kosiblari bu qorong‘i voqealardan biror narsa anglayolmadilar. To‘g‘ridir: har yonga yugurdilar, istamaymiz, o‘ldiramiz, g‘azo qilamiz, dedilar. Nimani istamadilar, kimni o‘ldirmoqchi bo‘ldilar, kimning g‘azosiga chiqdilar? Bularni anglaganlari yo‘q! Mana bu risolani shularni anglatmoq uchun qo‘shimcha oldim. Negakim, tilagim xalqga haqiqatni anglatmoqdir.

Haqiqatni butun ochib anglatmak uchun bu risolani 3 bo‘lakka tartib etdim: 1. Buxoroning holi; 2. Fitna soatlari; 3. Yoshlarning tilaklari[1].

Shu bilan risola yakunlanmasdan qolib ketgan. Risolaning “Buxoroning holi”, – deb nomlangan birinchi qismi bo‘yicha ayrim maqolalar chop etilgan. Biroq “Fitna soatlari”, – deb nomlangan – ikkinchi, “Yoshlarning tilaklari”, – deb nomlangan uchinchi qismi hech qayerda e’lon qilinmagan.

“Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1918-yil may oyida chop etilgan 98-sonida e’lon qilingan “Buxoro yoshlari to‘g‘risida” nomli maqolasi F.Kolesov voqealaridan keyin Yosh buxoroliklar boshiga tushgan musibatlar va ushbu harakat a’zolarining tarqalishga majbur bo‘lganliklari oqibatida tashkilotning bo‘linib ketishi haqida ma’lumot beradi.

Muhojirlikdagi jamiyat a’zolarinig taqdiri xususida Abdurauf Fitrat quyidagilarni xotirlaydi: “Buxorodan yolg‘iz jonlarini olib qochgan 200 dan ziyod jamiyat a’zolari Samarqandga kelgach, hollari yomonlashdi. Och va yalang‘och qoldilar va hatto ba’zilari tilanchilik qilurga majbur bo‘ldilar. Hollarini so‘ragan bo‘lmadi. Raislariga buyuk bir e’timod ko‘rsatib, sabr ila o‘tirdilar”.[2] Fayzulla Xo‘jayev Ijroiya komitetning 4 a’zosini olib, Toshkentga jamiyat a’zolari ehtiyoji uchun yordam so‘rab, Fedor Kolesov

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асар. 5 жилдлик. III жилд. Тошкент: Маънавият, 2003. – 205.

[2] Фитрат. Бухоро ёшлари тўғрисида. // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1918- йил 30 май.



www.nitropdf.com

Durdona



huzuriga ketadi. 1-2 kundan so‘ng, Samarqandga qaytib kelgan Fayzulla Xo‘jayevning 4 a’zosidan ikkitasi jamiyat a’zoligidan chiqib ketgani ma’lum bo‘ldi. Abdurauf Fitrat bu holatdan hayratga tushganlarini e’tirof etib, so‘ngra Fayzulla Xo‘jayev yoshlar ehtiyoji uchun Kolesovdan 10000 so‘m olgani, jamiyat a’zolaridan 40 kishini Toshkentga olib ketish uchun saylab qo‘ygani, qolganlarga 50 so‘mdan “aqcha”[1] berib, uning “Har kim o‘zining chorasini ko‘rsin”, – degan so‘zlarini qayd etib o‘tadi.

Yana Toshkentga qaytib ketgan Fayzulla Xo‘jayev 3-4 kundan so‘ng bir partiyadoshini yuborib, 40 kishini Toshkentga chaqirtiradi. Maqoladagi ma’lumotlarga qaraganda, Toshkentga keltirilgan 40 kishini bir necha kun vagonlarda saqlagandan so‘ng bir kvartiraga tiqib qo‘yadilar.

Komitetdan katta pul evaziga har bir kishi uchun yarim qadoqdan non hamda juda ham kam miqdorda choy va qand berilgan. Buning natijasida jamiyat a’zolari orasida norozilik holatlari kelib chiqqanini Abdurauf Fitrat quyidagicha izohlaydi: “Zulm isyonning onasidir”. Zulmga qarshi isyon chiqarmoq odam bolalarining tarbiyatlarinda bordir. Fayzulla Xo‘janing bu harakatlarindan mamnun qolmag‘an a’zolar orasinda ba’zi so‘zlar, shikoyatlar chiqa boshlamish. Shul asnoda ba’zilari komissar Kolesov tarafindan Fayzulla Xo‘jaga berilgan aqchaning 10000 tugul 30000 ekanini sezmishlar. Ochlar orasinda e’tirozlar ko‘payib ketmish”[2]. Maqolada bu e’tirozlardan keyin Fayzulla Xo‘jayev jamiyat a’zolariga kundalik nonlarini ham bermay qo‘ygani, ochlikdan “dod” – deb kelganlarga: “O‘z orangizdan e’tirozchilarni chiqarsangizlar non olib berarmiz, yo‘qsa yo‘q”, – deb javob bergani va bu taklif bilan yangi bir ixtilof va nizoga sabab bo‘lganini aytib o‘tdi.

Fitratning yozishicha, Samarqanddagi yoshlarning ahvoli Toshkentdagilarnikidanda yomonroq bo‘lib, ular ochlikdan o‘lim to‘shagiga tushadilar. Bu holatni Fayzulla Xo‘jayevga yetkazish

[1] Фитрат. Бухоро ёшлари тўғрисида // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1918- йил 30 май.

[2] Фитрат. Бухоро ёшлари тўғрисида // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1918- йил 30 май.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



uchun Toshkentga kelgan muallim Ato afandi[1] Toshkentdagi yoshlarning qo‘rqinchli hollarini ko‘rib, Fayzulla Xo‘jayevdan butun umidini uzdi va komissar Obidovga murojaat qildi. Ahvolni o‘nglatib, Toshkentdagi jamiyat a’zolariga yer topib beradi va ularni oziq-ovqat bilan ta’minladi.

Ushbu vaziyatdan so‘ng Fayzulla Xo‘jayev iste’foga chiqariladi, jamiyat yangi bir idora hay’atini sayladi. Muallim Ato afandi o‘z yonidan 300 so‘m berib, Samarqandda qolgan harakat a’zolarini ham Toshkentga keltiradi hamda ularni joy va oziq-ovqat bilan ta’minladi. Fitratning yozishicha, eski hay’at idorasida 10 kishi bo‘lib, Fayzulla Xo‘jayev iste’foga chiqarilgach, uning ikki a’zosi yangi hay’at idorasiga o‘tadi, to‘rttasi shu harakatga sherik bo‘ladi, bir nafar a’zosi esa o‘z ixtiyori bilan yangi jamiyatga muxolif bo‘lib qoldi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Abdurauf Fitratning “Buxoro yoshlari to‘g‘risida” nomli maqolasi “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 94-sonida e’lon qilingan “Turkiston va Buxoro hodisalari” nomli maqolaga izoh sifatida yozilgan bo‘lib, unda muallif maqolada berilgan bir-biriga zid jumlalarni ko‘rsatib, bu maqola Fayzulla Xo‘jayev tomonidan emas, balki ahvoldan butunlay xabarsiz kishi tomonidan yozilganini ta’kidlab, bunday maqolafurushlarga qarata: “O‘zlarining mantiqsiz maqolalari bilan chorasi mumkin bo‘lmagan ixtilolarga sabab bo‘lmasliklarini”, iltimos qiladi.

Abdurauf Fitratning davriy nashrlarda chop etilgan maqola va risolalari bilan tanishib chiqib shuni anglash mumkinki, u mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan voqea-hodisalarni doimo xolis baholagan va haqiqatni yoritishga harakat qilgan. Shu bilan birga, o‘z davrining yetuk olimi, siyosatchi, jamoat va davlat arbobi sifatida o‘zining qarashlari bilan munosabat bildirib kelgan.

1920-yillar Fitratning ilmiy-adabiy faoliyatida sermahsul yillar bo‘lgan. U “Bedil” ilmiy-ommaviy ocherki, “Eng eski turkiy adabiyot namunalari” (matn, tadqiqot, izohlar), “O‘zbek adabiyoti namunalari” (matn, tadqiqot, izohlar), “Fors shoiri Umar Hayyom” ilmiy-adabiy ocherki, “Adabiyot qoidalari” (adabiyot muallimlari

[1] Buxoro jadidchilik harakatining yirik vakili Otaulla Xo’javev ko’zda tutilmoqda.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



ham adabiyot havaslilari uchun qo‘llanma), “O‘zbek tilining sarfi” (darslik), “Sarfi zaboni tojiki” (darslik), “Sharq shaxmati”, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, “Abulfayzxon” besh pardali dramasi, “Shaytonning tangriga isyoni” pyesasi, “Arslon” besh pardali dramalarini yozdi[1].

Fitrat bu asarlari bilan yangi o‘zbek fan-madaniyatining bir qator yo‘nalishlariga yo‘l soldi. Xususan, Turkiston xalqlarining boy va qadimiy madaniy merosini har tomonlama, muntazam, ayni paytda chuqur ilmiy o‘rganishni boshlab berdi. Ming yillar osha yonma-yon yashab kelgan o‘zbek-tojik xalqining adabiy-madaniy merosidagi mushtarak jihatlariga diqqatini qaratdi. O‘zbek adabiyotining manba-mansha’larini aniqlab berdi, tarixiy taraqqiyotini, yuksalish-tushish bosqichlarini yoritdi. Adabiy oqimlar, maktablar, ularning vakillarini o‘rgandi. O‘z davrida shuhrati olamga yoyilib, zamonlar o‘tishi bilan tarix zarvaraqlaridan unutilgan o‘nlab shoirlarning merosini izlab topdi, qayta kashf etdi. Afrosiyob – Alp Erto‘nga marsiyasidan tortib, Muhammad Solihgacha, shoir Turdidan boshlab, zamondoshlari Elbeku Cho‘lpongacha yozdi. Namangandagi Muxammad Lolaresh kutubxonasidagi “Qutadg‘u bilig”ning eng eski qo‘lyozmasini qo‘lga kiritib, u haqida ilmiy jamoatchilikni xabardor qildi[2]. Ahmad Yassaviy faoliyatini chuqurroq tadqiq qildi[3]. Bu tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan yuksak darajada edi. Muallif Ahmad Yassaviy ijodi, umuman, tasavvuf haqida fikr yuritar ekan, Ko‘prilizodaning XX asrning 20-yillari oxirida keng shuhrat qozongan “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” kitobiga yuksak baho beradi. Har bir mutaxassisning u bilan tanishishi

[1] Фитрат. Бедил. Москва, 1923. Тошкент, 1924; Шу муаллиф: Абулфайзхон. Москва, 1924; Шу муаллиф: Шайтоннинг тангрига исёни. Самарқанд - Тошкент, 1924; Шу муаллиф: Ўзбек тилининг сарфи. Самарқанд - Тошкент, 1924; Шу муаллиф: Сарфи забони тожики. Самарқанд, 1925; Шу муаллиф: Арслон. Самарқанд - Тошкент, 1926; Шу муаллиф: Адабиёт қоидалари. Самарқанд - Тошкент, 1926; Шу муаллиф: Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Самарқанд - Тошкент, 1927; Шу муаллиф: Энг эски туркий адабиёт намуналари. Самарқанд - Тошкент, 1927; Шу муаллиф: Шарқ шахмати. Самарқанд - Тошкент, 1928;Шу муаллиф: Ўзбек адабиёти намуналари. Самарқанд - Тошкент, 1929; Шу муаллиф: Форс шоири Умар Ҳайём. Самарқанд - Тошкент, 1929.

[2] Фитрат. Қутадғу билиг // “Маориф ва ўқитғувчи” журнали. 1925. №2. – Б. 28.

[3] Фитрат. Аҳмад Яссавий // “Маориф ва ўкитғувчи” журнали. 1927. №6. – Б. 31.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



lozimligini shart deb biladi. Ayni paytda, “Devonu lug‘otit turk”dagi qadim marsiyalarni o‘rganar ekan, Ko‘prilizodaning mashhur “Turk adabiyotining manshai” maqolasidagi ayrim fikrlarga aniqlik kiritdi, Masalan, u Alp Erto‘ngaga nisbat bergan 4 marsiyadan 2 tasiga e’tiroz bildiradi. Qolgan ikkitasiga “boshqa unvon” berish lozimligini aytadi. Adadi haqida ham har tomonlama asoslangan fikrini o‘rtaga tashlaydi[1]. Najib Osimbekning esa 1916-yilgi “Hibbatul haqoyiq” nashridagi jiddiy matniy kamchiliklarni juda ko‘p dalillar bilan isbotlab berdi. Sharhidagi noto‘g‘ri talqinlarni ko‘rsatadi. “Najib Osimbekning sharhi til havaskorlarini juda yomon yanglishlarga tushururlik darajada xatolikdir”, deb yozadi va yangidan tuzatib bosilishga ehtiyoj borligini ta’kidlaydi. Buning asosiy sababini olimning “Devonu lug‘otit turk”ni chetlab o‘tganligidandir, deb izohlaydi[2].

“XVI asrdan so‘nggi o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash” maqolasida temuriylarning inqirozidan boshlab, shayboniylar, ashtarxoniylaru so‘nggi davr o‘zbek xonliklarigacha bo‘lgan tarixni ko‘zdan kechiradi[3]. “Temuriylar saroyining dabdabali, bezakli, safoli hayotlariga taqlid qilishga uringan” shayboniylar davri adabiy hayotini kuzatadi. Ma’lumki, Shayboniyxon poytaxt Hirotni olgach, u yerdan shoirlar, olimlar, musiqachilarni Samarqand va Buxoroga ko‘chirishga kirishgan. Shunga qaramasdan madaniy hayot temuriylar davridagidek yuksalmaydi. Buning asosiy sababi iqtisodiy hayot, birinchi navbatda, dengiz yo‘llarining ochilishi va karvon yo‘llarining ahamiyati tushishi bilan bog‘liq edi, deb hisoblaydi Fitrat. Shunga qaramasdan, “adabiy tarbiya” ko‘rgan Shayboniyni (Fitrat uning “Devon”ini topolmaganidan afsuslanadi), Ubaydullaxonni (Ubaydiy), So‘fi Olloyor, Mashrab Namangoniy, Turdi, Huvaydo, Poshshoxo‘jani tilga oladi.

Xonliklar davri adabiy harakatchiligi, chunonchi, Xorazmda Abulg‘ozidan Komil Xorazmiyning jiyani Mirzogacha, Buxoroda

[1] Энг эски турк адабиёти намуналари, Тошкент, 1927.

[2] Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. 2-жилд. Тошкент: Маънавият. 2000. – Б. 45

[3] Фитрат. XVI асрдан сўнгги ўзбек адабиётига умумий бир қараш // “Аланга” журнали. 1929. №8 – 9.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Mujrim, Xiromiydan Qo‘qondagi Olimxon va Umarxon davri shoirlarigacha o‘rganadi. XVII – XIX asrlar o‘zbek adabiyotining keng, yaxlit manzarasini tiklashga harakat qildi. Firdavsiy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan XX asrning 30-yillarida e’lon qilgan qator maqolalarida Xuroson va Movarounnahrning arab istilosidan keyingi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy turmushini bilimdonlik bilan yoritadi.

Abdurauf Fitrat 1930-yili yana bir tarixiy asar yozgan[1]. Bu asar sovet hukumatining buyurtmasi asosida yozilgan bo‘lib, unda Buxoro amirligini boshqargan mang‘it hukmdorlari, asosan so‘nggi hukmdor Amir Olimxon faoliyati keskin tanqid qilingan edi. Bu asarning chop etilishi va keng ommaga kirib borishi aholi orasida Abdurauf Fitratga nisbatan salbiy fikr uyg‘onishiga sabab bo‘lgan. Buni Davlat Xavfsizligi xizmati arxivi hujjatlaridagi ko‘rsatmalar ham tasdiqlaydi. Asarda mang‘it hukmdorlari Amir Doniyolbiy, Amir Shohmurod, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Abdulahadxonlar faoliyatiga umumiy ta’rif berilgan bo‘lib, asosiy e’tibor Amir Olimxonning 10 yillik hukmronlik yili hamda boshqa yirik amaldorlar shaxsiyatini noxolis, biryoqlama yoritib berishga qaratilishi tayinlangan[2]. Chunki Abdurauf Fitrat 1916-yilga qadar yozilgan bir qator maqola va asarlarida Amir Olimxonning islohotchilik faoliyatiga yuksak baho bergani ilmiy jamoatchilikka ma’lum. Shu o‘rinda sovet hukumati Vatanimiz tarixini millatimiz ziyolilari qo‘li bilan soxtalashtirishga harakat qilganini Abdurauf Fitratning “Amir Olimxonning hukmronlik davri” asari orqali ham ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning davriy matbuotda nashr ettirgan ko‘plab maqolalarida tarixiy jarayonlar o‘z aksini topgan bo‘lib, XX asr boshlaridagi Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot tarixini o‘rganishga xizmat qiladi. Mutafakkirning zamondosh sifatida mintaqada sodir bo‘layotgan voqealarga teran munosabati, jamiyatdagi muammolar va ularning yechimi bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalari bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. XX asrning 20-yillaridan keyin sovet hukumati boshlangan tarixni

[1] Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. Тошкент: Минҳож, 1992. 61 бет.
[2] Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. – Б. 11 – 57.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



soxtalashtirish harakatiga milliy ziyolilarning jalb qilinishi va ularning mafkura talablariga bo‘ysundirilishi Abdurauf Fitratning tarixiy asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Fitratning buyurtma asosida yozilgan bu asarlari orqali ham XX asr boshlaridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni ham tanqidiy jihatdan o‘rganish imkoniyati mavjuddir.

## §2.3. Abdurauf Fitrat dramalarida tarix jarayonlarning aks etishi

Abdurauf Fitrat dramaturgiya sohasida ham ijod qilib, asosan xalqni ozodlik uchun kurashga da’vat etuvchi sahna asarlari yaratdi. Uning 20-yillar arafasida Toshkentda yozilgan “Begijon”, “Abu Muslim”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon”, shuningdek, “Qon” dramalari bizgacha yetib kelmagan. 1934-yilda yozilgan “To‘lqin” opera librettosining taqdiri ham noma’lum. Bizgacha Fitratning “Chin sevish” (1920), “Hind ixtilolchilari” (1923), “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni” (1924), “Arslon” (1926) va fors-tojik tilida yozilgan “Vose qo‘zg‘oloni” (1927) asarlari yetib kelgan. 1927-yilda o‘zi singari “keksa” yozuvchilarga qarshi kurash boshlangani va badiiy ijod qilish imkoniyati berilmaganidan keyin Fitrat asosan ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan.

Fitrat 1917-yildan 1927-yilga qadar bo‘lgan davrda, ya’ni o‘n yil mobaynida dramaturgiya bilan faol shug‘ullanish imkoniga ega bo‘ldi. Bu davrni shartli ravishda quyidagi ikki bosqichga ajratish mumkin: 1) 1917 – 1921 va 2) 1923 – 1927 yillar. Agar Fitrat ijodining birinchi bosqichi uning Buxoro va Toshkentdagi hayoti, ayniqsa, o‘zi tuzgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi bosqichga oid asarlar adibning Moskvadagi surgun yillarida yozilgan.

“Milliy Turkiston” jurnalining 1952-yilga oid sonlaridan birida Fitratning bizgacha yetib kelmagan “Temur sag‘anasi” asari haqida Erturk taxallusli muallifning maqolasi bosilgan va unda, jumladan, bunday ma’lumot berilgan: “Fitrat o‘zining sahna asarlarinda bobolarning qoldirgan meroslarindan bahs etadir. U Turkiston merosini chetlilar har jihatdan yo‘q etayotganligini



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



xalqqa tushundirish fikrinda bo‘ladir. U “Temur sag‘anasi” asarinda sahnada ko‘k o‘rmon va uni kesilib turilganligini ko‘rsatadir. Shu vaqtda Temur kelib: “Bu o‘rmonlarni kimlar kesayotirlar? Bobolarning meroslari ne holga tushdi?” deb chaqiradir. Fitrat bu usulda bobolar qoldirgan merosni asramoq lozimligini xalqqa uqdirmoqchi bo‘ladir”[1]. Bundan Germaniyaga o‘qishga ketgan yoshlar Fitratning ushbu asarini olib ketishgan va keyinchalik davriy matbuotda bu asardan iqtiboslar berishgan.

Yana bir saqlanib qolgan asari “Abu Muslim” tarixiy dramasi 747–750 yillarda Movaraunnahr va Xurosonda ummaviylar hukmronligiga qarshi Abu Muslim boshchiligida ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni to‘g‘risida hikoya qiladi. Tarixdan ma’lumki, Abu Muslim dastlab ummaviylarning Xurosondagi voliysi Nasr ibn Sayyorni, so‘ngra xalifa Marvon II ni yengib, abbosiylarning tarix sahnasiga kelishlariga zamin hozirlagan.

Abu Muslim boshchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni haqidagi asarni Fitrat 1917-yil voqealariga munosabat bildirish va bolshevizm xavfiga qarshi xalq ommasini uyg‘otish maqsadida mazkur asarini yozgan. Besh pardali yetti ko‘rinishli bu asar, Cho‘lpon ifodasi bilan aytsak, “tarixning eng chuvalashgan davri”ni tasvirlashga bag‘ishlanganligi sababli unda qahramonlar ham ko‘p bo‘lgan. Asarning eng ta’sirli sahnalaridan birida Marv begining qizi Gulnor bir to‘da “yovvoyi” kishilar orasida qoladi. Gulnorning “odam bolalarining axloq vajidan qanday quyi darajalarga tushganligi to‘g‘risida xalqqa qaratib qilg‘on xitoblari” ham, “ul kishilarning har birini bitta-bitta ta’rif qilishi” ham o‘tkir aql egasi bo‘lganini alohida ta’kidlaydi. Taxmin qilish mumkinki, dramaturg ana shu sahnada, umuman, “odam bolalari”ning emas, balki bolsheviklar va ularga hamtovoq bo‘lgan kimsalarning “axloq vaji”dan qanday quyi darajalarga tushganligini ko‘rsatmoqchi va vatandoshlarini shunday kimsalardan qutulishga da’vat etmoqchi bo‘lgan[2].

Abdurauf Fitratning “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarlarining mavzusi Hindiston ozodligi masalalariga bag‘ishlangan. XX asr boshlarida Sharq mamlakatlaridagi

[1] Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Б. 119.
[2] Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Б. 118.



www.nitropdf.com

Durdona



mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Shu jumladan, Hindistonda ingliz mustamlaka zulmiga qarshi kurash avj oldi. 1918–1919-yillarda dastlab Bengaliyada, so‘ng Amritsarda xalq g‘alayonlari qonli to‘qnashuvlar bilan tugadi. Bu voqealar haqida jahon matbuotida maqolalar paydo bo‘ldi. Jumladan, hindistonlik Jabbor Qahhoriyning “Hindistonda ixtilol harakatlari” sarlavhali maqolasi “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 14-aprel sonida o‘zbek tilida chop etildi[1].

Turkistonliklar, jumladan, Fitrat ham Hindistonda yuz berayotgan voqealardan xabardor edi. M.Raxmonov maqolasida Fitratning Hindistonda bo‘lganini urg‘ulaydi. “Chin sevish” dramasining yaratilish sabablaridan biri yozuvchining Hindiston taassurotlaridir”, deb ko‘rsatadi: “Fitrat Turkiya, Eron, Hindiston, Afg‘oniston kabi mamlakatlarda bo‘lib, ularning tarixi, hayoti, adabiyoti, san’atini o‘rganadi. Istanbul va Hindiston kutubxonalaridagi Turkistonga aloqador qo‘lyozmalar bilan tanishadi. 1914-yili Buxoroga qaytib keladi”[2].

M.Raxmonov yuqoridagi fikrlari bilan Fitratning “Chin sevish” va “Hind ixtilochilari” asarlarini bevosita Hindiston safari taassuroti natijasida yaratgan, deb isbotlashga harakat qiladi. Fitratning Hindiston safarida bo‘lganligini tasdiqlovchi materiallarga murojaat qilamiz. Yozuvchi Vasiliy Yan 1928-yili “Узбекиская драма” maqolasida XX asrning 20-yillarida yozilgan va teatr sahnalarida qo‘yilgan asarlar haqida so‘z yuritadi va Fitrat ijodiga keng to‘xtalib o‘tadi: “Hozirgi o‘zbek teatrining mashhur dramaturgi, Samarqand Oliy Pedagogika instituti professori Abdurauf Fitratdir. “Arslon”, “Chin sevish”, “Hind ixtilochilari” kabi pyesalari hind inqilobchilarining Hindiston mustaqilligi uchun kurashini ko‘rsatdi. Muallif Yaqin Sharq bo‘ylab ko‘p sayohatda bo‘lgan, Hindistonda yashagan va shuning uchun Fitrat

[1] Жаббор Қаҳҳорий. Ҳиндистонда ихтилол ҳаракатлари // “Иштирокиюн” газетаси, 1919 йил 14 апрел.

[2] Рахмонов М. Фитрат драматургияси ва унинг саҳна тарихи // “Ёшлик” журнали. 1987. №8. – Б. 17.



www.nitropdf.com

Durdona



pyesalari yangi uyg‘onayotgan Sharq hayoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan qalam sohibi sifatida alohida qimmatga egadir”[1].

Xuddi shunday fikr B.Pestovskiyning maqolasida ham uchraydi. U “18 yoshlariga qadar Buxoroda tahsil ko‘rib, Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston kabi yerlarda Markaziy Rusiyaning Maskov, Peterburg kabi shaharlariga sayohat etgandir”[2], deb yozadi.

Fitratning biror asarida Hindiston safariga ishora qiluvchi ma’lumot uchramaydi. Faqat musiqa asboblari, xususan rubob haqida “20-yillarda Hindistondan keltirganim “Sarangi” ismli bir cholg‘uning rubobga juda o‘xshagani meni shoshirgan edi”[3], deb yozadi.

Hindlarning ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashi ko‘p hollarda Mahatma Gandining “satyagraha” (kuch ishlatmasdan kurashish) shaklida, ya’ni tinch namoyishlar o‘tkazish, mustamlaka tovarlarini boykot qilish, rasmiy mansab-unvonlardan voz kechish, soliq to‘lashdan bosh tortish kabilar orqali amalga oshirildi. Tabiiyki, hukumat itoat etmaslik bilan qarshilik ko‘rsatishga zo‘ravonlik bilan javob berdi. 1919-yil 13-aprelda Amritsarda tinch miting qatnashchilari o‘qqa tutildi. 2000 ga yaqin kishi halok bo‘ldi. Kurash yana avj oldi[4].

Inqilob qilishning yana bir imkoniyati boy berilgani, biroq yana bir imkoniyatdan “Hindiston o‘z mustamlakachilariga qarshi foydalana olmadi, uning tebranib turgani”dan ibrat olib, fursat qidirmoq uchun Fitrat “Chin sevish” dramasini G‘arb va Sharq muammolari asosiga qurdi: “Sharq masalasi ko‘b eski bir masalaladir, ko‘bdan Ovrupo, Amriqo va Osiyodagi madaniy davlatlarning matbuot betlarini to‘ldurib siyosat haqida yozub kelmishdir. Biroq, burungi Sharq masalasi bu kungi Sharq orasinda yer-ko‘k ayirmasi bordir. Ovrupo jahongirlari orasindag‘i burungi Sharqni ulashuv bo‘luv, talov masalalari edi. U o‘g‘irsiz

[1] Ян В. Узбекская драма // Жизнь, искусство. 1928. №4. – С. 34.
[2] Рахмонов М. Фитрат драматургияси ва унинг саҳна тарихи // “Ёшлик” журнали. 1987. №8. – Б. 17.
[3] Ғаниев И. Фитрат мусиқа асбоблари ҳақида // “Нафосат” журналию 1993. №9-10. - Б. 21.
[4] Турдиев Ш. “Ҳинд ихтилолчилари” фожеаси ҳақида // “Шарқ юлдузи” журнали. 1990. №4. – Б. 32.



www.nitropdf.com

Durdona



masala bu kunda ham bitmamish, bordir, tushmamish yuksalmishdir”[1].

Fitrat har bir Sharq mamlakatining Yevropa davlatlariga qarshi chiqqan vaqtda undan xalq inqilobi yo‘lida foydalanish mumkin, deb hisoblardi. Afg‘on hukumati inglizlarga qarshi chiqqan bir paytda ko‘pchilik Sharq mamlakatlari qatori Turkiston ham Afg‘onistonni qo‘llab-quvvatlagan edi, o‘z navbatida Turkiston bu vaziyatdan foydalanib, o‘z istiqlolini amalga oshirar edi. Afsuski, mustamlakachilar ustalik bilan bu imkoniyatga yo‘l bermaydilar. Fitrat yozadi: “Turkiston jumhuriyati Afg‘oniston hukumatiga ko‘mak bermakni nechun munosib ko‘rmagan ekan, bu so‘rog‘ning javobi sakkizinchi syezdda o‘rtoq Kazakov tomonidan shu yo‘lda berildi: Afg‘onistonning siyosiy siymosi hali ma’lum bo‘lmag‘an ekan. Turkiston jumhuriyatidan oldig‘i ko‘mak bilan Turkistonning o‘ziga qarshi chiqishi ehtimoli bor ekan”. Fitrat bu fikrlarni aytgan rahbarlardan xafa bo‘lgan va ular haqida ortiqcha fikr bildirishni istamagan: “Afg‘oniston hukumati bu urushdan Sharq uchun, inqilob uchun ko‘zga ko‘rinurlik foyda chiqara olmadi. Biroq buning yozug‘i, gunohi Afg‘on hukumatiga emas, Sharqg‘a, inqilobchilarga oiddir. Sharq! Afg‘onistonga ishonsa edilar, yuqorida dedigimiz kabi bu urushdan buyuk foydalar chiqarmoq ko‘zga ko‘runib turgan edi. O‘tgan o‘tdi, bo‘lg‘an bo‘ldi. Biz yana bir fursatni qo‘ldan berdik”[2].

Adib ushbu risolada Sharqni yirtqich hayvonlar orasida qolgan semiz, lekin kuchsiz bir qo‘yga o‘xshatadi. O‘sha qo‘y Ovro‘po yirtqichlari to‘dasida qolib ketgan, unga madad bermoq istaydi. Biroq uni yirtqichlar changalidan tortib olish oson emas. Fitrat ana shu qiyinchilik tufayli bu baloni jami musulmonlarga anglatishga harakat qiladi. “Boyaqish Sharq o‘z jonini qutqargali ko‘p tirishdi, tebrandi, qichqirdi, dodladi, yugurdi, hamla qildi, qochdi, qo‘rqutdi, yalindi, esiga kelgan har yo‘lga kirib ko‘rdi. Biror osug‘, biror unum, biror foyda ko‘ra olmadi, negakim, unga

[1] Абдурауф Фитрат. Шарқ сиёсати // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 25 сентябр.

[2] Фитрат. Афғон ва инглиз сулҳи // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 19 сентябр.



www.nitropdf.com

Durdona



osug‘ bo‘lg‘an yirtg‘uvchilarning kuchlari ko‘p, tish-tirnoqlari o‘tkir edi”[1].

“Sharq siyosati” bilan yozuvchi Sharq xalqlarining o‘tmishda qanday bir yuksaklikda turganiyu, endilikda qanday chohlarga irg‘itib yuborilganini ko‘rsatib berdi. Shu qarashlari “Chin sevish” da yana yorqin ifodalab berildi.

1920-yili “Chin sevish” nashr qilingan bo‘lib, asar Karimbaxsh uyidagi suhbat bilan boshlanadi. Karimbaxsh Yevropada o‘qib kelgan bo‘lib doimo uni maqtar edi. Uyidagi suhbatda esa, uning salbiy tomonlarini ko‘rsatib, fikri o‘zgarganini namoyish etgan: “Ovrupoda bilim bor, lekin insof yo‘q. Ovruponing bilimi qoplonning tishi, tirnog‘i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib yemak to‘g‘risida ko‘p ish ko‘rmishdir...”. Fotimaxonim hayron bo‘lib: “Bukung‘acha Ovrupoda o‘qimoqni maktashdan tilingiz tinmas edi. Ovrupo bilimlarini o‘rganishni kerak topgan edingiz. Bu kun u so‘zingizdan qaytib qolibsizmi”, deb dashnom beradi. “Qaytg‘onim yo‘q. Ovrupo ishlarini o‘rganmak, albatta kerakdir. Ovrupoda o‘qimoq ovrupolilarni insofli, adolatli deb maqtamok uchun emas, ulardan o‘zimizni saqlamoq, tishli, tirnoqli bo‘lish uchun kerakdir... Ovrupoda o‘rganib kelganimiz bilimlarni kishilik dunyosining yuksalishi va tinchlig‘i yo‘linda ishlatish qulaydir... Butun Ovrupo musulmonning yovidir. Yovlarning eng buyugi, eng qo‘rqinchlisi inglizdir”[2], deb javob beradi Karimbaxsh.

Suhbatdoshlardan Rahmatulloh esa oldingi qarashlarida sodiq bo‘lib, hali ham Ovruponi ustoz deb biladi. O‘rgangan har bir narsasi uchun uning oldida o‘zini qarzdor hisoblaydi. Ovrupolilar orasida musulmon bo‘layotganlari borligini, masjidlar qurayotganligini hayajon bilan gapiradi. Lekin Karimbaxshning o‘z nuqtayi nazari bo‘lib, uningcha, inglizlarning “masjid yasamoqlari ka’bani buzmoq uchundir”[3].

Karimbaxsh o‘z fikrida yakka emas. Bu fikr aslida hind ixtilolchilaridan kelgan haqiqat. Chunonchi, Nuriddinxonning do‘sti Sarvarxon shunday deydi: “Biz, musulmonlar, yolg‘izgina

[1] Фитрат. Шарқ сиёсати // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 25 сентябр.
[2] Фитрат. Чин севиш. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 44.
[3] Фитрат. Чин севиш. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996– Б. 45.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



aldanmoq uchun dunyoga kelibmiz, chog‘i... Boyimiz, ishchimiz, mullomiz, shogirdimiz, yozuvchimiz, o‘qituvchimiz, shoirimiz, faylasufimiz, kattamiz, kichigimiz Ovruponing gazetasiga, kitobiga, so‘ziga, ishiga, qonuniga, vaziriga, oltuniga, qiziliga aldanmoqdan bo‘lak ishni bilmaydir”[1].

Oila masalasida ham Karimbaxshning o‘z “falsafasi” bor. U qiziga sovchi kelganda: “Erga bermoq to‘g‘risinda erk va ixtiyor qizning o‘zindadir. Bir qizni bir yigitga kuchlab yuborurga ota-onaning haqlari sira yo‘qdir. Bizning ishimiz qizimiz yoqtirgan yigit to‘g‘risinda qizimizning foydasin ko‘zda tutib, tushunmak, qizimiz o‘ziga zararli bir yigitni saylagan bo‘lsa, unga mantiqiy o‘gutlar bermakdir”[2], deb ta’kidlaydi.

Nuriddin ixtilolchi bo‘lib, Vatanini chin dildan sevadi. Uning o‘zgalar oyog‘i ostida toptalishidan qattiq iztirob chekadi. Peshovarda bir ingliz o‘ldirilgani uchun Dehlida harbiy holat e’lon qilingan. Shu bahona “Vatan!” degan hindning bari qo‘lga olinmoqda. Rahmatulloxon Zulayho tufayli uni yo‘qotish rejasi bilan band. Nuriddinxon ko‘nglida esa bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan ikki xayol, bir timsol bor. Vatan va Zulayho. Zulayho va Vatan. U qamoqda ekan, bu tuyg‘u yanada kuchayib boradi.

Dramada Nuriddinxonning ukasi Ahmadxon Ovrupodagi “ishq” haqida gap ochadi. Nuriddinxon shunday javob qaytaradi: “Ovruponi qo‘ya ber. Ovrupoda hayvonlikdan boshqa narsa yo‘qdir. Ovrupoda ruh yo‘qdir. Ular ruhoniy lazzatdan bir narsa anglayolmaylar. Chin sevish va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdir. Majnunlar, Farhodlar kabi ishq payg‘ambarlari Sharqda yetishdilar. Bugun Ovrupongda ishq otini olgan hollar hayvonliq havaslardan boshqa narsa emasdur”. Muallif asar qahramoni Nuriddinxon nomidan Yevropaning bosqinchilik siyosatini ochib berishga harakat qilgan. “Tangrining qiziq ishlariga boq. Mening torgina miyamda yer yuzining qayg‘usini sig‘dirar ekan, o‘zimni yer yuzinda sig‘dira olmaydur... Ishmi bu? Yurtimning to‘rt yuz minglarcha qon-qardoshlarim ochlikdan o‘lib turalar. Qorong‘u zindonlarda og‘ir kishanlar ostinda jon berganlarning son-sanog‘i

[1] Фитрат. Чин севиш. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996– Б. 46.
[2] Фитрат. Чин севиш. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996– Б. 49.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



yo‘q. Ularning qutulish yo‘llarini axtarasiz, deb yozug‘siz kishilarni, tinch kimsalarni ham qirib turalar. Yana o‘zlarini inson, madaniyatli, odil atab yurarlar. Uyatsizlar, vijdonsizlar, yovuzlar! Bugun maymun sirasinda qo‘ydig‘ingiz Hindiston bolalari qiyomatga dovur buyla qolmaslar. Bunlarning dahi ko‘zi bor, ochilur. Vijdoni bor, uyg‘onur. Qoni bor, qaynar. To‘rt yuz million inson bolasining buyla ezilib qolishiga tangri ko‘nmas, tabiat rozi bo‘lmas, adolat qarab turmas”[1], deganida Nuriddin nomidan mustamlakachilik zulmi va unga qarshi ko‘tarilishi tayin bo‘lgan milliy ozodlik harakatlari haqida o‘z fikrlarini taqdim qiladi.

“Chin sevish” ko‘p o‘tmay, Toshkentda Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnaga qo‘yildi. Cho‘lpon u haqida “o‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak ham go‘zal bir tomosha ko‘rdi”[2], deb yozadi. Vadud Mahmud esa uni “o‘zbek sahnalarida shu kungacha o‘ynalib kelgan pyesalarning eng kuchlisi, eng buyugi”,[3] deb baholaydi.

Xullas, “Chin sevish” dramasi tom ma’noda milliy ozodlik kurashi g‘oyalarini yoritishga bag‘ishlangandir. Fitratning bu dramani yozishdan maqsadi millatning o‘z taqdiri haqida o‘ylashi uchun turtki beradigan tomosha yaratish edi. Istiqlolchilar timsoli orqali muallif ko‘zlagan maqsadiga erishadi.

“Chin sevish”da boshlangan “Hindistonni tozartish” g‘oyasi “Hind ixtilolchilari”da davom ettiriladi. Ikki yosh – Rahimbaxsh va Dilnavoz bir-birlarini sevadilar. Biroq yurtda erk yo‘q. Vatan o‘zgalar oyog‘i ostida. Shu tufayli ular ham erkin emaslar. Bir kuni kuppa-kunduzi bosqin qilib, “Hukumatga qarshi yashurin kengashasiz” deb ikki yoshni qo‘lga oladilar. Rahimbaxsh qamoqqa tashlanadi. Dilnavozni Loxur po‘lis boshlig‘i Okunar ishrat uchun olib ketadi. Rahimbaxsh qamoqdan chiqqach, inqilobchilarga qo‘shiladi. Do‘stlari yordamida Dilnavozni qutqaradi. Biroq inqilobchilarning turgan joylari inglizlarga ma’lum bo‘lib qoladi. Asar ularning ozod qilinishi, hammalarining “Yurtimizni qutqaramiz! Yashasun istiqlol!” – degan xitobalari bilan yakunlanadi.

---

[1] Фитрат. Чин севиш. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 62.
[2] “Иштирокиюн” газетаси. 1920 йил 25 ноябр.
[3] “Қизил байроқ” газетаси. 1920 йил 12 декабр.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



“Meni Hindistonni sevganingcha sevarmisan?” – so‘raydi Dilnavoz. “Hindistonni sevganim seni sevganim emasmi?!”, javob beradi Rahimbaxsh. U yurtini sevadi. Tosh tuproqlari uchun emas, go‘zalligi, fazilati, tarixi uchun. Dilnavoz mana shu yurtning, ulusning fazilatlaridan biri, birinchisi. Aslida ularga ko‘p narsa kerak emas. Hatto birgina narsa – erkinlik kifoya. “Kimsaning bizga hech ishi bo‘lmasa...” – zorlanadi Dilnavoz. Rahimbaxsh xayoliga birdan ularni har qadamda ta’qib etguvchi ingliz keladi. Ularni Hindistondan quvish kerak. Boshqa yo‘l yo‘q. Lekin bu ish osonlikcha bo‘larmikan?

“Ishning qulayini axtarmoq yalqovlikdir, deydi Rahimbaxsh. Qulay ishdan buyuk unum chiqmas. Buyuk, unumli ishlar qulayda bo‘lmas. Inglizni Hindistondan quvmoq, yer yuzini o‘z qora qanotlari ostig‘a olg‘on olbostini yo‘q etmoqdir. Qulay bo‘lmas, nima bo‘lsa ham bir yovni yurtdan haydamoq bir yurtni yov qo‘lida ko‘rmakdan qiyin emasdir”[1].

Lekin baribir oson emas. Chunki ozodlikka chiqmoq uchun, avvalo, uni xohlash kerak. Qulning qul ekanligini anglashi yarim ozod bo‘lganidir. So‘ng unga tayyor bo‘lish kerak. Bir so‘z bilan aytganda, kuch kerak. “Miyalari tamug‘ puchmoqlarindan qorong‘uloq, ko‘zlari oyoq ostidan nariroqni ko‘rmaydir”gan, “olg‘a bosmoq, kelgusini o‘ylamoqni “kufr” deb biluvchi, “dunyo bularni talamoq uchun birlashgan”da ham “talondan qutulmoq uchun birlashmay”digan to‘dadan nima umid qilish mumkin?

Biroq Rahimbaxsh noumid emas. “Zulm mazlumlarni birlashtirmoq uchun eng buyuk quroldir”[2], – fikrlaydi u. Bu yo‘lda chinakam insonlar, albatta birlashadilar. Chin insonlik esa ma’juslikka, musulmonlikka qaramaydi. Darhaqiqat, yurt yonmoqda. “Ulus ezilib bitdi... Omonlik, tinchlik, erk degan narsalarni kimsa bilmaydir. Masjidda namoz uchun yig‘ilganlar siyosiy yig‘in yasag‘on bo‘lib to‘pg‘a bog‘lanalar, er bilan xotin o‘zaro ko‘proq gapirganda hukumatga qarshi bo‘lib, dorg‘a

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 44 – 46.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 47.



www.nitropdf.com

Durdona



osilalar... Shular orasindada tinch turmoq... Lolaxardiyol aytmoqchi, sag‘ana boshida chog‘ir ichmakka o‘xshaydir”[1].

Rahimbaxsh xalq orasiga kirib borgan sayin Hindistonni qutqarmoq haqidagi tilagi o‘sib boradi. Ingliz ham anoyi emas. U Hindiston aholisining turli din-e’tiqodga, maslak-mazhabga mansubligidan, ular orasidagi o‘zaro janjallardan ustalik bilan foydalanadi. Bir-birlariga qayrab qo‘yib, chetdan kuzatadi. Dramadagi ikkinchi parda voqealari shu haqida bo‘lib, u afg‘on chegarasidagi Bunir qo‘rg‘onining boshlig‘i Mavlono No‘mon uyida gazeta varaqlab o‘tirishi sahnasi bilan boshlanadi. Gazetada inglizlarning g‘alabasi haqida xabarlar yozilgan bo‘lib, No‘monga qaysi hukumatga xizmat qilishning ahamiyati yo‘q. Bu qahramonda or-nomus yo‘q bo‘lib, inglizlarga xizmat qilishga ham tayyor. U shunday fikrlaydi: “Ingliz – tangrining balosi. Nima qilamiz, “kofir” bo‘lsa xam tangri shunga yaxshi karag‘on endi”[2].

Ko‘p o‘tmay, uning huzuriga ingliz josusi Marling keladi va o‘rtada suhbat boshlanadi: “Bilasizkim, ingliz ulusining Hindga kelganliklari hindlarni yetishtirmak, “madaniy qilmak” uchun edi... Biz kelmasdan burun Hindiston din janjallari, mazhab g‘avg‘olari, qorin-qursoq urushlari bilan to‘lg‘on edi...

Biz kelgach, shul buzuqliklarni tuzatdik! Janjallarni ko‘tarduk. Madaniy yashamoq yo‘llarini ko‘rsatdik, hindularni o‘qitduk. Biz Hindistonni adolat bilan oldik, adolat bilan saqladiq. Yana adolat bilan o‘zingizga qaytarmoqchi bo‘lamiz (chunki hindular yashamoq yo‘llarini bilib olmishlar). Biz ishonamizki, bu kun Hinduston o‘z erkini olg‘och, burung‘i yovvoyiliklarini, yovuzliqlarini qilmas...”, deydi Marling.

Marling Angliyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatini oppoq qilib olgach, navbatdagi ishga mamlakatdagi millatlararo munosabatni ichdan yemiradigan zahri qotil – o‘zaro dushmanlikni tayyorlashga kirishadi. Buning uchun milliy g‘urur, iftixorni ishga soladi: “Eski Hindiston madaniyatining tub egasi musulmonlar edilar. Shu pallada ham Hindustonda eng yaxshi tayyorlangan ulus musulmon ulusidir. Biz istar edikkim, butun Hind hukumatini musulmonlarg‘a topshiraylik. Buni kim

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 48.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 53.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



istamaydi? Bilasizkim, Hindustonda ko‘pchilik musulmonlarda emas. Hindular, sekxiylar, ma’juslar birlashib, hukumatni o‘z qo‘llarig‘a olmoqchi bo‘lsalar nima qilamiz?” [1].

Shu tariqa ular allaqachon birlashgan, bu tilakni Olmoniyaga bildirib ham ulgurgan va bu borada oralaringizda josuslar ham ishlab turibdi, degan yolg‘on ma’lumotni ustalik bilan qistiradi. Va, tabiiyki, shubha-gumon boshlanadi.

Inqilobchi Abdusubbuhning fikri shunday: “Inglizlarni tarqatmoq uchun Hindistonni birlashtirmoq kerak. Hindu bilan musulmonni birlashtirmak yo‘lida ular har narsaga tayyorlar. Lekin Marling bergan og‘uning ta’siri Mavlono No‘monda allaqachon boshlangan: “Shariatda musulmon bilan hinduning birlashmagi tuzuk emas, qatag‘ondir. Hindular musulmon bo‘lmag‘uncha, biz ular bilan birlasha olmaymiz”, deydi u inqilobchilarga. Abdusubbuh “Biz zulmga qarshi har kim bilan birlashurmiz”, deb hisoblaydi. Mavlono o‘z fikrlarini “mushrik”, “ahli kitob” haqidagi uzoq dalolatlar bilan isbot etmoqchi bo‘ladi. Abdusubbuh o‘z fikrida qat’iy. Uningcha, Angilyani Hindistonga boshlab kelgan narsa ham yurt ichidagi shu xil janjallardir. “Siz, mullalar, tutash shunday qilasiz. Hindustonni yillarcha el-aymoq janjallari bilan to‘ldurdingiz. Ulusni yetmish to‘rt bo‘lak qildingiz. Har bo‘lakni boshqalarga yov etdingiz. O‘lkamizni ichki janjallar bilan to‘ldirdingiz. Shunday qilib, inglizni boshimizga kelturdingiz. Yuz yillardan keyin biz o‘zimizni qutqarmoq uchun bosh ko‘tardik. Birlashdik, qutulmoq istadik. Yana mazhab, din janjallari bilan yo‘limizni to‘smoqchi bo‘lasiz! Uyalingiz! Erkimizg‘a tirnoq urmoqchi bo‘lg‘onlarg‘a qarshu chiqurmiz. Qo‘lg‘a-qo‘l berib kurashamiz, bizni bu yo‘ldan sizda, dinda qaytara olmas!”[2]

Ko‘rinib turibdiki, asar voqealari faqat Hindistongagina tegishli emas. Bu muammo mustamlaka va mustamlakachi mavjud har bir mamlakatga daxldor edi. Shu jumladan, Turkistonga ham. Shu sababli bu asar haqida o‘nlab taqrizlar bosilishi, hatto Germaniyada maqola chop etilishi va Fitratning mashhur Husayn Jovid bilan yonma-yon qo‘yilishi bejiz emas edi[3]. “Turkiston va

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 55 – 59.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 61 – 63.
[3] Қаранг: Турдиев Ш. «Хинд ихтилолчилари» фожиаси ҳақида // “Шарк юлдузи”



www.nitropdf.com

Durdona



Buxorodag‘ina emas, balki Sharqning boshqa go‘shalaridagi xalqlar ham Fitratni taniydilar. Bir musulmon shoirining dunyog‘a qarashi buddistlarning qarashidan uzoq tursa kerak degan bir fikr miyaga kelsa ham Fitratning ba’zi bir asarlarida ko‘rilgan dunyog‘a qarashi hind shoiri Rabindranat Tag‘urning qarashlari bilan bir nuqtag‘a kelub birikadur”, deb yozganda Pestovskiy adibning “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarlarini ko‘zda tutgan edi[1]. Pestovskiyning ushbu fikrlariga qo‘shilgan holda, Fitratning bu ikki dramasida Mahatma Gandi, Muhammad Iqboldan ham bahramandlik bor deyish mumkin.

1924-yili Moskvada Fitratning “Abulfayzxon” dramasi chop etildi[2]. O‘zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy dramada muallif Ashtarxoniylar davri tarixini shunday yoritib beradiki, uni o‘qigan kitobxon o‘z davrida ham shu tarixiy vaziyatni his qiladi. Abulfayzxon (1711–1747) – ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili bo‘lib, undan hokimiyat mang‘itlar qo‘liga o‘tadi. Va bu jarayon odatdagidek eroniy Nodirshohning chetdan aralashuvi va ichki xiyonat bilan kechadi. Abulfayzxon davrida mamlakatda Hakimbiy boshchiligida mang‘itlarning nufuzi ortib ketadi. Ikkinchi tomondan joriy an’anaga muvofiq ashtarxoniylardan boshqani xon ko‘tarish mumkin bo‘lmaganligi tufayli mang‘itlar o‘z vakillarini taxtga o‘tqiza olmas edilar. Shu sabab Abulfayzxon nomigagina xon bo‘lib, hamma ishlar mang‘it Hakimbiy qo‘lida bo‘lgan. Hakimbiydan so‘ng o‘rnini egallagan o‘g‘li Rahimbiy barcha ishlarni Abulfayzxon orqali amalga oshirar, shu jumladan, hokimiyat yo‘lidagi dushmanlarini ham xon qo‘li bilan yo‘q qilgan. Bunday qo‘shhokimiyatchilik birgina saroy doirasida emas, sipohlar orasida ham ikkiyuzlamachilikka keng yo‘l ochib bergan[3].

Hakimbiy xon saroyidagi mavqeiga qanoat qilmaydi va xiyonat yo‘liga o‘tadi. Movarounnahrni bosib olishga intilayotgan Nodirshoh istiqboliga chiqadi. Uning xizmatiga kirib, nomidan elchi bo‘lib keladi. Chunonchi, Abulfayzxon Hakimbiy qo‘liga

журнали. 1989. №4. – Б. 33.

[1] “Инқилоб” журнали. 1922. №2. – Б. 23.

[2] Абулфайзхон // Нашрга тайёрловчи С. Зуфаров. “Шарқ юлдузи”. 1989. №1. – Б. 83 – 104.

[3] Замонов А. Бухоро хонлигининг аштархоний ҳукмдорлари. Тошкент: “Баёз”. 2020.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



ko‘pdan-ko‘p sovg‘a-salom berib, unga Nodirshoh bilan sulh tuzish, shu yo‘l bilan yurtni talon-tarojdan saqlash choralarini ko‘rishni topshirgan, ammo Hakimbiy o‘z mamlakatining nochor ahvolini, nuqsonlarini keragidan ham oshirib, Nodirshohga sadoqat izhor etgan. Shohdan katta vakolatlaru yorliqlar olib, Buxoroga kirib borgan. To‘g‘ri saroyga kirib borishdan cho‘chib, Mir Arab madrasasiga tushgan. Ko‘cha va bozorlarga jarchi chiqarib, qo‘rquv-vahima tarqatgan. Eron shohi sonsiz-sanoqsiz qo‘shin tortib kelayotganini, molu jonining bexatarligini o‘ylagan har bir kishi uning huzuriga kelishini ayttirgan. Madrasa yonida odamlar to‘plangan. Abulfayzxon ham Mir Arab madrasasiga Hakimbiy yoniga borgan, ammo Hakimbiy soqchilari uni yaqinlashtirmay, o‘qqa tutadilar[1]. Xon saroyga qaytgan va Nodirshohga taslim bo‘lishdan boshqa iloji qolmagan. Nodirshoh, Abulfayzxon va xiyonatkor Hakimbiy otaliq Buxorodan tashqarida Zarafshon daryosining qirg‘og‘idagi Chorbakr mavzeida uchrashadilar. Garchi Abulfayzxon bir qizini Nodirshohga, ikkinchi birini uning jiyaniga berib, o‘zini harchand Eron hukmdori bilan qarindoshlik iplari bilan bog‘lashga urinsa-da, baribir munosabatlar hokim-tobe’lik bilan yakun topadi[2]. Nodirshoh Xiva xonligiga yurish qilgan vaqtida butun qo‘shini ozuqasini Buxoro xoniga yuklaydi[3]. 1747-yili Abulfayzxon, bir yil o‘tar-o‘tmas, o‘g‘illari Abdulmo‘minxon va Ubaydulloxon birin-ketin qatl qilinadilar. Hakimbiyning o‘g‘li Rahimbiy 1753-yili amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o‘tiradi va mang‘itlar sulolasi 1920-yilga qadar Buxoro amirligini boshqaradilar.

XX asrning 20-yillaridagi shiddatli jarayonlar bilan olis tarixdagi sulolalar kurashining bir-biriga nima yaqinligi bor? Avvalo, har ikki tarix ham xalqimiz hayotidagi eng mas’uliyatli, eng hayajonli voqealarga to‘la edi. To‘g‘ri, biri yangi turmush bayrog‘i ostida, ikkinchisi yangi sulola himoyasi yo‘lida kechdi. Lekin biri-birini inkor etuvchi ikki holat – mamlakatning mustaqilligi va hokimiyat uchun kurash har ikkisi uchun ham xos

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 198.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. – Б. 199.
[3] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. – Б. 200.



www.nitropdf.com

Durdona



bo‘lib, ularning biri birlashishga undasa, ikkinchisi bo‘linishni taqozo etardi. Har ikkisi ham jamiyatning barcha qatlamlarini o‘ziga jalb etgan va eng muhimi, har ikkisi ham kuchga, zo‘ravonlikka suyangan edi. Bunday damlarda inson tabiatidagi ezgulik bilan yovuzlik yuzaga qalqib chiqadi. Fitrat uchun XVIII asr Buxoroda yuz bergan voqealar shunchaki ma’lumot uchun emas, ma’rifat uchun ham kerak edi. U zulm va zo‘rlikning el-yurtga faqat moddiy talofat, jismoniy azob-uqubatgina emas, o‘nglab bo‘lmas ma’naviy jarohat ham keltirishini ko‘rsatib berdi. Shu tariqa adib, bir qaraganda, zamonasi voqealaridan uzoq tuyulgan Abulfayzxon fojiasini zamonasiga xizmat ettira oldi. Uningcha, kishilar taqdiriga, ijtimoiy turmushga daxldor har qanday ish ming o‘lchab bir kesilishi lozim. Inson manfaatiga doir har qanday xatti-harakat insoniy qonunlar, vositalar asosida amalga oshmog‘i kerak. Bu inqilobning ma’naviyatiga oid muhim masalalardan edi.

Abdurauf Fitratning 1926-yili chop etilgan “Arslon” dramasi “Burung‘i Buxoro xonligida yashagan dehqonlar hayotidan olingan. Muallif asarini “Jumhuriyatimiz tomonidan adolat bilan ijro etilmoqda bo‘lgan yer islohotiga bag‘ishlangan”[1], deb boshlaydi. Arslon – qishloq yigiti, dehqon bo‘lib, oilada onasi ikkisi yashaydi. Sakkiz tanob yeri bor. Ammo mahalliy hokimlar va qishloq oqsoqollarining ochko‘zligi tufayli biri ikki bo‘lmaydi. Atrofdagi dehqonlarning ahvoli bunikidan ham battar. Masalan, qishloq oqsoqoli, “Hasharga chiqmading”, deb kambag‘al Tursundan pul talab qiladi. U esa Hasan Mansurboydan 120 tanga qarz olishga majbur bo‘ladi. Qarzini to‘lay olmagan Tursundan 12 yashar qizini tortib olmoqchi bo‘ladilar. Arslon bularni ko‘rib chiday olmaydi. Uylanish uchun yig‘ib yurgan 120 tangasini chiqarib beradi. Uyga kelsa, Botur degan o‘rtog‘i oyisi bilan kutib o‘tiribdi. Qarzini vaqtida to‘lay olmaganligi uchun uylarini xatlab olishgan. Yegani noni, yotgani joyi yo‘q. Xullas, hamma yoq zimiston. Arslonning To‘lg‘un ismli sevgan qizi bo‘lib, unga uylanish maqsadida yerining to‘rt tanobini sotgan edi. Biroq bu pulni muhtojlarga ulashishga majbur bo‘ladi[2].

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 92.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 93 - 102.



www.nitropdf.com

Durdona



Do‘sti Botur uni uyidan haydab chiqargan boyni o‘ldirishga qaror qiladi. Arslon Mansurboyni qaroqchi qiyofasida unga suiqasd qilgan Botur hujumidan saqlab qoladi. Boy har ikkisini ham qamatadi. Botur zindonda halok bo‘ladi. Arslonni qolgan to‘rt tanob yerini sotib, hamqishloqlari qutqarib oladilar. To‘lg‘un bu paytda boyning xizmatida. Boy uyida uchta xotini bo‘lishiga qaramasdan, uni ko‘z ostiga olgan. Boy, nega menga tegmaysan, deb; xotinlari nega boy seni olmoqchi deb To‘lg‘unni kaltaklaydilar[1].

Arslonning onasi Tursunbibi og‘ir xastalikka chalingan bo‘lib, Boturning onasi Norxola va To‘lg‘unning onasi Oynusa kampir xabar olish uchun keladilar. Lo‘li xotin kelib, Boturning yaqinda kelishini, Tursunbibining esa albatta tuzalashini bashorat qiladi. Ikki kampir bu bashoratga ishonib, dam soldirish uchun domla imomga yuguradilar. Biroq Botur allaqachon halok bo‘lganini, Tursunbibi esa jon taslim qilayotganini hali hech kim bilmaydi. Arslon onasining iyagini bog‘lashayotganida uyga kirib keladi. Boturning o‘chini olishga, To‘lg‘unni qutqarishga ont ichib, uydan chiqib ketadi[2].

Beshinchi pardada boy hayotining ichki tomonlari, xotinlarining buzuq ishlari va fosh bo‘lishi, nihoyat Arslonning boyni va uning o‘g‘li Qudratni o‘ldirishi voqealari tasvirlanadi[3].

Asarda Fitrat amaldorlarning ochko‘zligi, ayrim boylarning insofsizligini ko‘rsatib, Turkiston mintaqasi ayollarining folbinlarga ishonishini tanqid ostiga oladi. Jamiyatning iqtisodiy muammolari, aholiga mansabdorlar tomonidan qilingan nohaqliklarni tasvirlaydi. Ko‘pxotinlilikning salbiy jihati sifatida boyning xotini Zaynabning xiyonatini namoyish etadi.

Abdurauf Fitrat tomonidan yozilgan yana bir tarixiy drama “Vose’ qo‘zg‘oloni” bo‘lib, Buxoro amiri hukmronligi ostida yashagan tojiklar hayotidan tarixiy fojia jumlasi bilan boshlanadi[4]. Buxoro amirligi hududida 1887–1888-yillarda bo‘lib o‘tgan Vose’ qo‘zg‘oloniga Xovaling amlokdorligida yashaydigan Abdulvose

[1] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 127 – 128.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 144 – 145.
[3] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 148 – 163.
[4] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 165 – 193.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



degan dehqon yigit boshchilik qilgan[1]. Unga Sarihisor, Maxdumdor, Zuvoili, Qizilmozor qishloqlaridan ming nafarga yaqin qo‘zg‘olonchi kelib qo‘shilgan. Vose’ Baljuvonni egallaydi[2]. Baljuvon begiga Ko‘lob, Hisor va Buxorodan yordam yetib kelgach, u Baljuvonni qo‘zg‘olonchilar qo‘lidan qaytarib olishga muvaffaq bo‘ladi. Vose’ qo‘zg‘olonchilari safi yanada kengaydi va Baljuvon yana egallanadi. Shu orada Hisor begi Ostonaqul qo‘shbegi Ko‘lob, Qorategin sarbozlari bilan yetib keladi. Nurek yaqinidagi jangda Vose’ boshliq qo‘zg‘olonchilar yengiladi. Vose’ Xovaling qal’asi tomon chekinadi. Unga ergashgan qo‘zg‘olonchilarni sarbozlar ta’qib etib, qirg‘in uyushtiradilar. Baljuvon begi qo‘lga tushgan 40 nafar qo‘zg‘olon rahbarini qal’a oldida qatl ettiradi. Vose Xovaling tumanida bir sho‘robdaralik tanishining uyiga berkinadi. Uy egasi sotqinlik qilib, Vose’ni bekka tutib beradi. Baljuvon begi Abdulqodir esa uni 130 nafar asirlar bilan birga Ostonaqul qo‘shbegiga topshiradi. Vose’ va boshqa qo‘zg‘olon rahbarlarini Shahrisabzgacha, Amir Abdulahad qarorgohigacha piyoda haydab boradilar. Amir uni Oqsaroy oldida dorga ostiradi[3]. Vose’ o‘ldirilgach, uning Hasan va Davlat degan o‘g‘illari qo‘zg‘olonni yana davom ettiradilar. Ammo ular ham mag‘lubiyatga uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat Turkiston va Buxoro tarixining turli jihatlarini ko‘rsatib beruvchi tarixiy dramalar yaratdi. Badiiy shaklda xalqqa tarixiy bilimlar berish bilan birga ularni birlashish va ozodlik uchun kurashga chorladi. Bugungi kunda ham Fitratning ushbu sahna asarlarida olib chiqilgan tarixiy voqealar, qarashlar va g‘oyalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

## Ikkinchi bobga xulosa

Abdurauf Fitrat nafaqat davlat va jamoat arbobi, balki o‘z davrining yetuk tarixchilaridan biri edi. U matbuotda Turkistonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni tahlil qilish orqali tom ma’noda O‘zbekistonning XX asr boshlaridagi tarixining ayrim

[1] Улуғзода С. Восе // “Садои Шарқ”. 1967. №5. – С. 3-45.
[2] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 182.
[3] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 192.



www.nitropdf.com

Durdona



jihatlarini yozib qoldirdi. “Oyina” jurnali, “Hurriyat”, “Ulug‘ Turkiston”, “Ishtirokiyun” gazetalarida 1917 va 1918-yili Buxoroda sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlarni batafsil yoritdi. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va faoliyati haqida o‘z munosabatlarini ifodaladi. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy inqirozga sabab bo‘lgan omillarni sanab o‘tib, ularni bartaraf etishga oid fikrlarni taqdim etdi. Abdurauf Fitratning matbuot sahifalaridagi maqolalari, shuningdek, tarixiy risolalari va asarlari Turkiston mintaqasining XX asr boshlaridagi tarixini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat yaratgan sahna asarlari ham tarixiy mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, xalqqa milliy ozodlik g‘oyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari”da Hindistondagi milliy ozodlik g‘oyalarini ko‘rsatish orqali, xalqni birlashishga chaqirdi. “Abu Muslim” va “Abulfayzxon” dramalarida esa mustamlakachilar bosqini va millat xoinlarini namoyish qilib, xalqni Vatanni sevish va uni asrab-avaylashga da’vat etdi.

Abdurauf Fitratning XX asrning 20-yillaridan keyin yozgan tarixiy mavzudagi asarlarida zamon mafkurasi yaqqol sezilib tursa-da, tanqidiy jihatdan tahlil qilish orqali ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat tarixchi sifatida ham o‘z iste’dodini namoyish eta oldi va o‘z xalqiga noyob meros qoldirdi. Uning boy tarixiy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va tahlil qilish O‘zbekistonning XX asr boshlaridagi tarixi bo‘shliqlarini to‘ldirishga xizmat qiladi.



www.nitropdf.com

Durdona



# III BOB. ABDURAUF FITRATNING SIYOSIY JARAYONLARDA TUTGAN O‘RNI

## §3.1. Abdurauf Fitratning “Islohot loyihasi” va davlat boshqaruvidagi faoliyati

1915-yilga kelib, Buxoro jadidlari orasida ajralish yuz beradi. Chetda o‘qib kelgan yoshlarni maorifni isloh qilish va matbuotni rivojlantirish orqali jamiyatda o‘zgarishlar qilish harakatlari qanoatlantirmay qo‘ydi. Ular soliqlarni kamaytirish, dehqonlarning ahvolini yaxshilash, amaldorlarning o‘zboshimchaligini cheklab qo‘yish kabi siyosiy talablar bilan chiqishni taklif qildilar. Bu nuqtayi nazar jadidlarga xayrixoh juda ko‘p yoshlarga ma’qul bo‘ldi. Shu tariqa jadidlar “eski” va “yangi”ga – o‘ng va so‘lga ajraldilar. O‘ng guruhga Abduvohid Burhonov, so‘l guruhga Abdurauf Fitrat bosh bo‘ldilar[1].

1917-yil Fevral inqilobidan so‘ng Buxoro jadidlarining so‘l qanoti tashabbusi bilan yangi markaz tuzildi. Yosh buxorolilar inqilobiy partiyasi tashkil topdi. Uning Markaziy qo‘mitasi tuzildi. Abduvohid Burhonov – rais, Fitrat – sarkotib, Usmonxo‘ja – xazinador, F.Xo‘jayev va yana besh kishi a’zo qilib saylandi. Yangi partiya Muvaqqat hukumatga tabrik telegrammasi va Rossiya-Buxoro munosabatlaridan kelib chiqib, amirni islohotga majbur etishni so‘rab, murojaatnoma yubordi[2].

Muvaqqat hukumatdan amir va Buxorodagi Rossiya vakili Millerga islohotlar o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatma keladi, ammo islohotlar amalga oshirilmaydi. Yosh buxorolilar ikkinchi bor telegramma tayyorlab, Abdurauf Fitrat va Usmonxo‘jalar orqali Petrogradga jo‘natadilar. Bu paytda Rossiyadan maxsus komissiya kelayotganligi ma’lum bo‘lib, vakillar Orenburgdan Buxoroga qaytadilar. 1917-yil 7 aprelda Buxoro amirining “Farmoni oliy”si e’lon qilindi. Majlisda Turkiston Muvaqqat hukumati topshirig‘iga

[1]Хўжаев Ф.Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. - Самарқанд-Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1926. - Б. 27.
[2] Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. - Б. 29.



www.nitropdf.com

Durdona



binoan jadidchilik harakatining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy ishtirok etdi[1].

Yosh buxoroliklar Farmonni namoyish bilan kutib olishga qaror qiladilar. Xiyobonda ko‘p mingkishilik miting o‘tkazildi. Bu amir tomonidan salbiy kutib olindi va namoyish tashkilotchilari qamoqqa olina boshlandi. Fitrat bunday vaziyatda Toshkentga jo‘nab ketdi.

1917-yil noyabrining so‘nggi kunlarida Yosh buxoroliklar partiyasining Markaziy qo‘mitasi Islohotlar loyihasini tuzishni Fitratga topshirdi. Ikki oy o‘tgach, Fitrat loyihani Markaziy qo‘mitaga taqdim etdi va u bir oz tuzatishlar bilan qabul qilindi.

Fitratning islohot loyihasi mazmuni quyidgilardan iborat bo‘lgan:

- Buxoroda huquqiy davlat barpo etish, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan mustaqillikka erishishi;

- Sud-huquq tartibot organlarining vazifa va vakolatlarini bir-biridan ajratish, qozikalon – adliya noziri bo‘lib, barcha adliya ishlarini shariat qonunlari bo‘yicha yuritish va ularning ruhoniylar qo‘lida bo‘lishini saqlab qolish, sud ishlaridagi hukm chiqarish avvalgidek saqlanib, faqat uning ijrosini o‘zgartirish;

- Ichki ishlar nozirligi tomonidan joylardagi amaldorlarni tayinlash, hukumatning quyi bo‘g‘inlari – oqsoqollarni xalq tomonidan saylash[2].

“Loyiha”ga asosan, sud hokimiyati ma’muriy hokimiyatdan ajratilgan bo‘lishi, ma’muriyat vakillari sud ishlariga aralashmasligi kerak bo‘lgan. Sud mahkamalari tashkil etilib, tarkibi qozi va 2 muftidan iborat bo‘lishi belgilangan[3].

Loyihada iqtisodiy soha bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi:

- Soliq tizimini tartibga solish va bu sohada qat’iy hisob-kitob olib borish, dehqonlar va davlatga tegishli yerlar uchun belgilangan soliq miqdorini kamaytirish, shaxsiy va davlat

[1] Ўз МА, И-3 фонд, 1-рўйхат, 150-иш, 80-варақ.

[2] Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Б. 110-111.

[3] Ташкулов Ж. Основные направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX – первой четверти XX веков. Диссертрация на соискание ученой степени доктора юридических наук.Ташкент, 1995. – С. 182.



www.nitropdf.com

Durdona



yerlariga, amir tomonidan alohida kishilarga berilgan yerlar uchun soliqlarni ko‘paytirish, ko‘chmas mulk, qo‘rg‘onlar va dehqonlardan yaylovdan foydalanganlik uchun va boshqalar uchun olinadigan soliqni mahalliy qishloq ma’muriyati foydasiga bekor qilish;

- Davlat yerlari (amlok) hamda hukumatga qarashli yerlar “xiroj” nomi bilan birlashtirilishi, muayyan shaxslarga qarashli xususiy yerlarning hammasi o‘z egalari qo‘lida qolishi va faqat xiroj yerlarining olinishi, vaqf yerlarini idora qilish uchun alohida muassasa tuzish;

- Mamlakatda sug‘orish tizimini tartibga keltirish, lozim bo‘lganda majburiy hashar kabi tadbirlarni amalga oshirish;

- Qishloq xo‘jaligi hosildorligini oshirish, ekinzor yerlar miqdorini kengaytirish va dehqonchilikda texnikadan ko‘proq foydalanish;

- Qishloq xo‘jaligi rivojlanishini ta’minlash uchun mexanizatsiyalash usullarini joriy etish va qishloq xo‘jaligi sohasi uchun kreditlar berishni tashkil qilish:

- Sudxo‘rlikni ta’qiqlash, Buxoroda qishloq xo‘jaligi banki va viloyatlarda uning bo‘linmalarini ochish, dehqonlarga kam foizli qarzlar berish, rivojlangan mamlakatlardan muayyan pul hisobiga dehqonlarga berish uchun qishloq xo‘jaligi mashinalarini sotib olish, foydalanilmayotgan va yangi o‘zlashtirilgan yerlarni yersiz aholiga bo‘lib berish, aholini qishloq xo‘jalik fanlariga o‘qitish uchun qishloq xo‘jalik maktablari ochish;

- Yuqorida ko‘zda tutilgan ishlar ustidan ta’sis etilgan yer ishlari noziri nazorat olib borishi;

- Buxoroni madaniy jihatdan taraqqiy qilishi uchun vaqf yerlaridan keladigan ko‘p miqdordagi daromadni ilm-fan va madaniy-ma’rifiy ishlar uchun sarflash;

- Vaqflarni nazorat qilish uchun Vaqf nazoratini tuzish, vaqf qilingan do‘konlar, kutubxonalar, oshxonalar va boshqa vaqf mulklarini vaqf nazorati qaramog‘iga topshirish; vaqfdan keladigan daromadni – Vaqf nazorati huzuridagi alohida vaqf xazinasiga to‘plash;

- Vaqf xazinasining sarmoyasini iqtisodiy jihatdan foyda beradigan to‘g‘ri yo‘lda sarflash, ya’ni undan keladigan foiz puliga



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



yangi maktablar, madrasalar, xalq kutubxonalari, yetimxonalar, kambag‘allar uchun kasalxona va oshxonalar qurish;

- Vaqfning daromad va chiqim hisobini yo‘lga qo‘yish hamda bu haqida hisobot berishni amalga oshirish. Mazkur hisobotni xalq ommasiga ma’lum qilib, vaqf nazorati hisobilagi yerlarni adolat yuzasidan dehqonlarga ijaraga berish;

- Amir mulkini davlat mulkidan ajratish, soliqlarni ochiq belgilash, har yili byudjetni e’lon qilish va isloh qilingan moliya ishlarini idora qilish uchun moliya nazorati tuzish;

- Buxoroda yo‘l qurilishi ishlarini rivojlantirish, yo‘llar nazoratini tashkil etish, foydali qazilmalar ishiga e’tibor berish, yer osti boyliklarini qazib chiqarish sanoatini ham yo‘llar nazorati qaramog‘iga topshirish[1].

Loyihada harbiy soha islohiga oid fikrlar ham taqdim qilingan. Jumladan, Buxoro mustaqil va qudratli davlat bo‘lishi uchun harbiy va moliyaviy ishlarga katta ahamiyat berish, davlatning 22 yoshga to‘lgan har bir fuqarosini ikki yil harbiy xizmatga chaqirish, kasallar va nogironlarni bundan ozod qilish, harbiy sohaga oid barcha ishlarni harbiy ishlar nazoratiga o‘tkazish kabilar ko‘zda tutilgan[2].

Loyihada xalq o‘rtasida ma’rifat tarqatish uchun maorif nazorati tashkil etish, hamma viloyatlarda hukumat xazinasi hisobidan ikkinchi bosqich maktablar, oliy o‘quv yurtlari ochish, mazkur maktablarga o‘qituvchilar belgilash, hamma maktablar uchun dasturlar tayyorlash va bu maktablar ustidan nazorat olib borish. Faqat vaqf nazorati qaramog‘ida bo‘lgan maktablardan tashqari xohlagan shaxs maktab ochish huquqiga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan.

Tashqi ishlarni yuritish, Rusiya va boshqa xorijiy davlatlar bilan bo‘ladigan diplomatik munosabatlarni xorijiy ishlar noziriga topshirish, faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha vazifalarni esa

[1] Проект реформы в Бухаре Комитета младобухарцев // Революция и национальный вопрос. Документы и материалы по истории национального вопроса в Росси и СССР в XX веке. В 4-х томах. Том 3. Москва, 1930. – С. 353-354.

[2] Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Б. 110.



www.nitropdf.com

Durdona



Nozirlar sho‘rosi raisi zimmasiga yuklanishi kerakligi loyihada o‘z aksini topgan[1].

Loyihaga asosan, 10 ta nozirdan iborat Nozirlar sho‘rosi tuzilib, uning tarkibiga

1) Yer ishlari nazorati;
2) Vaqf nazorati;
3) Harbiy ishlar nazorati;
4) Moliya nazorati;
5) Ichki ishlar nazorati;
6) Adliya nazorati;
7) Milisiya nazorati;
8) Yo‘llar va sanoat nazorati;
9) Maorif nazorati;
10) Xorijiy ishlar nazorati bo‘lishi belgilab qo‘yilgan[2].

Markaziy qo‘mita topshirig‘iga ko‘ra, Fitrat yozgan “Islohot loyihasi”da Buxoroda huquq asosida quriladigan davlatchilikni joriy etish, xalq faravonligi negizida Buxoroni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy va madaniy jihatdan mustahkamlash g‘oyalari ilgari surildi[3].

1918-yili Kolesov bosqinidan so‘ng Toshkentda panoh topgan Fitrat siyosatdan uzoqlashib ketdi. 1918-yil 18-iyun kuni Toshkentda Ibrohim Ismoilov mudirligida Musulmon o‘qituvchilar instituti ochildi va u shu institutda Munavvar qori va boshqa o‘qituvchilar bilan birga dars beradi.

Abdurauf Fitratning shogirdi Mahmud Hodiyevning tergovda bergan ko‘rsatmasiga ko‘ra, 1918-yil 18-iyunda ochilgan Musulmon o‘qituvchilar instituti qoshida qisqa muddatli bir necha kurslar bo‘lgan. Shunday kurslarning biriga Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan. Mazkur institutda ishlash jarayonida Fitrat bilan Munavvar qori o‘rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bu kelishmovchilikning sababi shundaki, o‘sha yillarda Toshkent maktablariga o‘rnashib olgan turk zobitlari

[1] Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Б. 111-112.
[2] Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Б. 111.
[3] Эргашева М. Абдурауф Фитратнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари. Юридик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Тошкент, 2002. – Б.13.



DURDONA
www.nitropdf.com

Durdona



o‘quvchilarni turkparastlik ruhida tarbiyalamoqchi bo‘lganlar va ularning tarbiyaviy faoliyatidagi bu yo‘nalish Munavvar qori tomonidan qo‘llab quvvatlangan. Turkiyada bir necha yil o‘qigan va milliy taraqqiyotning turkcha yo‘lidan borishni noto‘g‘ri deb hisoblagan Fitrat Munavvar qorining shu yo‘ldagi sa’y-harakatlariga qarshi chiqqan. Munavvar qorining ko‘pchilikni tashkil etgan tarafdorlari esa Fitratga ochiqdan-ochiq kurash e’lon qilib, “Chig‘atoy gurungi”ning har bir yig‘ilishi va tadbirlariga to‘sqinlik ko‘rsatganlar[1]. Bu tergovchilar tomonidan to‘qib chiqarilgan ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin. Ammo ayrim masalalarda Buxoro va Toshkent jadidlari o‘rtasida bahsli masalalar bo‘lganini ular yozib qoldirgan xotiralar ham tasdiqlaydi.

Abdurauf Fitrat turgan manzil 1937-yil 22-iyulda tuzilgan “Mahbuslik anketa”sida Toshkent shahri, Guliston mahallasi, 116-uy deb ko‘rsatilgan bo‘lib, taniqli jurnalist A’zam Ayyub 1918-yili Xadradagi maktabda Fitrat qo‘lida tahsil olganini yozadi. Bu ma’lumotdan bilish mumkinki, Fitrat Musulmon o‘qituvchilar institutidagi qisqa faoliyatidan so‘ng maktabga ishga o‘tadi. 1919–1920-yillarda esa Afg‘onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimonlik vazifasida rasmiy xizmatda bo‘lgan. Fitrat Afg‘onistonning yirik davlat arboblari Mahmud Tarziy va uning shogirdi Abdul Haddixon haqida nihoyatda baland fikrlar bildirgan”[2].

Shuningdek, ayrim hujjatlarda Fitratning Afg‘onistonning Turkistonga yuborilgan 1919-yildagi vakillaridan general Mirzo Muhammadxon bilan yaqin munosabatlari tilga olinadi. Yangi rus – afg‘on munosabatlari endigina yo‘lga qo‘yilayotgan paytlar edi. Xususan, 1919-yilda Omonulloxon afg‘on taxtiga chiqqach, bu aloqa amaliy tus oldi. Omonullaxon qaynotasi Mahmud Tarziy (1868-1935)ga ixlosi baland bo‘lgan. U “Yosh afg‘onlar” harakatining g‘oyaviy rahbari, “Sirojul axbor” gazetasining noshir

[1] *Бу ҳақда қаранг*: Каримов Н. XX аср адабиёт манзаралари. – Б. 112.

[2] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 62-варақ.Ушбу архив ҳужжатларини тақдим қилгани учун илмий раҳбарим Тарих институти катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори Дилноза Жамоловага ўз миннатдорчилигимни билдираман.



www.nitropdf.com

Durdona



va muharriri taraqqiyparvarlar sardori edi. Shu sababli Omonullaxon taxtga chiqishi bilan uni tashqi ishlar vaziri qilib tayinlaydi.

Fitrat Turkiya singari Afg‘onistonning ham siyosiy, madaniy-adabiy, maorif hayoti bilan yaqindan qiziqqan. Matbuoti va adabiyotidan muntazam xabardor bo‘lib borgan. Maktublar almashib turgan. Mahmud Tarziyning “Sirojul axbori”da maqolalari chop etilgan[1].

Abdurauf Fitrat afg‘on elchixonasidagi 2 yillik rasmiy faoliyati adabiy-madaniy hamkorlikka, u orqali esa ikki mamlakat orasidagi yaqinlashuvga xizmat qilgan. Afsuski, adib uyida saqlangan Afg‘on maorif nozirligining “Taqvim”i (kalendar), yozishmalar, Afg‘onistonning Toshkentdagi elchisi Muhammad Islomjon, taniqli afg‘on generallaridan Muhammad Valixon va Avloniy yordam ko‘rsatishni iltimos qilib xat yozib bergan Mirzo Muhammadxon bilan suhbatlar 1937-yilda unga ayblov qo‘yishga “xizmat qilgan”[2].

1920-yil 9-aprelda “Tong” jurnalining 1-soni bosmadan chiqdi. U Toshkentda tuzilgan Buxoro Kommunistlar firqasining nashriyot sho‘basi sifatida maydonga keldi. Jurnalning tashabbuskori va muharriri Fitrat, tahrir hay’ati Botu bilan Elbekdan iborat bo‘lgn. Jurnal shiori: “*Yashasin ilmi, adabiy, ijtimoiy o‘zgarish! Miya o‘zgarmaguncha, boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas! Yashasin Sharq qutulishi!*” so‘zlari edi[3].

Bu jurnalda “Chig‘atoy gurungi”ning barcha a’zolari ishtirok etadi. Jurnal 1920-yilning 15-mayida 3-soni chiqib to‘xtab qoladi. Ziyo Said “Bu jurnal til va imlo masalasiga juda katta ahamiyat berdi va bu yo‘lda yaxshigina ishladi”, – deb yozdi va “turkchaning tugalligini, imlomizning uyg‘unligini ko‘rsatganligini, “Chig‘atoy gurungi”ning yig‘inlarini, imlo yo‘sinlarini to‘plash uchun saylangan “Imlo to‘dasi”ning ishlarini keng yoritib borganini,

[1] Жамолова Д. Туркистон жадидларининг татар, турк, афғон ва озар тараққийпарварлари билан алоқалари тарихига оид // “O‘zbekiston tarixi” jurnali. №3. 2022. – Б. 46.

[2] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 62-варақ.

[3] Саид Зиё. Танланган асарлар. Тошкент. 1974. – Б. 81.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



tilning tozaligiga, sofligiga e'tiborni qaratganligini alohida ta'kidladi[1].

1920-yil 2-sentabrda amir hokimiyati ag'darilib, o'rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, Abdurauf Fitrat ham davlat ishlariga jalb qilindi. Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Munzim va Abdurauf Fitrat tashabbusi biln ko'plab buxorolik yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborildi. Buxoro hukumati ularning 9–10 yillik o'qish xarajatlari uchun olmon bankidan oltin hisobida pul o'tkazdi[2].

1922–1931-yillarda Germaniyada o'qib kelgan, O'zbekiston Fan qo'mitasining rais o'rinbosari bo'lib ishlagan Sulton Matqul ma'lumotlariga qaraganda, 1922-yilda shaxsan F.Xo'jayev va Fitrat tashabbusi bilan yoshlardan 50 nafari Buxoro jumhuriyatidan Turkiya va Germaniyaga o'qishga yuborilgan[3]. Ularning orasida 4 nafar toshkentlik (Jabbor Sattor, Saidali Xo'jayev, Ahmad Shukuriy, Vali Qayumxon) ham bor edi. Cho'lpon toshkentliklar ro'yxatiga Ahmadjonov va Ibrohimovni ham qo'shadi. Ma'lum bo'lishicha, Germaniyada faqat yigitlar emas, qizlar ham o'qishgan. Sh.Turdiyev, Maryam Sultonova, Xayriniso Majid qizi, Saida Sherahmad qizi kabilar haqida to'xtaladi. Bu qizlar Toshkentda tuzilgan "Ko'mak" uyushmasining yordami bilan borganlar. Germaniyaga o'qishga borganlardan Saidali Xo'jayev, Ahmad Shukuriy, Ibrohimov, Vali Qayumxon kabilar Germaniya va Turkiyada qolib ketdilar. Qaytib kelganlarning deyarli barchasi sovet hokimiyatining qatag'on siyosati qurboni bo'ldi. Ularning barchasi Germaniyaning O'zbekistondagi josuslari, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borganlik va millatchi sifatida ayblandi va jismonan yo'q qilib yuborildi.

1921-yil 9-martdan Fitrat xalq xo'jaligini tiklash, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ishlarni yo'lga qo'yish tadbirlarini amalga oshirishga jalb etiladi. Jumladan, xalq maorifini tashkil qiluvchilar uchun tavsiyanomalar tayyorlash hay'atini boshqarib boradi. Buxoroda Sharq dorulfunini ochish zaruriyati asoslarini tayyorlab, keyinroq (1922-yil 14-sentabr) BMIKning dorulfunini tashkil etish

[1] Саид Зиё. Танланган асарлар. - Б. 82.
[2] Ҳасаний М. Юрт бўйнидги қилич ёки истило. Тошкент: Адолат, 1997. – Б. 57.
[3] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 66-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



haqida qaror qabul qilinishiga erishadi. Buxoro Respublikasi va Turkiston ASSR o‘rtasida o‘quv yurtlari hamda maktablar uchun darsliklar tuzish va ta’minlash borasidagi ishlarni tartibga keltiradi[1].

Buxoro Xalq Respublikasida amirlik tartibi ag‘darilganidan so‘ng, o‘nta viloyatning barchasidagi vaqf mulklari to‘la ro‘yxatga olinmagan edi. Faqatgina to’rtta viloyat: Buxoro, Chorjo‘y, Qarshi, Karmana viloyatlarida vaqf idoralariga qarashli 276 737 tanop yer mulklari bo‘lgan. Bundan tashqari 57 ta saroy, 10 ta hammom, 23 ta tegirmon, 24 ta bozor joyi, 1769 ta do‘kon, 262 ta hovli joyi ham vaqf idorasi tarkibida bo‘lgan[2]. Buxoro vaqflaridan 1683119 tanga daromad, 779 ming botmon bug‘doy, 15 ming botmon jo‘xori olingan. BXSR xalq maorifi noziri Abdurauf Fitrat 1922-yil yozida BXSRda 19 moddadan iborat “Vaqf ishlari haqida”gi loyihani ishlab chiqqan. Abdurauf Fitrat Buxorodagi vaqf mulklari daromadlari hisobidan diniy muassasa va tashkilotlarni ta’mirlash, ta’lim-tarbiya kurslari, muzey, kasalxona, yetimxona, qorixona, dorilmuallimin, kutubxona, xonaqolar ochish, gazeta va jurnallar chop ettirish imkoniyatlari haqida fikr yuritgandi. Vaqf mulklari daromadidan aholi sog‘lig‘ini saqlashga xarajatlar ajratish alohida ta’kidlanganligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Chunki, o‘sha paytda Buxoroda rishta (teri osti qurtlashi), “Buxoro varajasi” (isitma), teri-tanosil kabi kasalliklarning o‘nlab turlari keng tarqalgan bo‘lib, ularning oldini olish bilan bog‘liq choralar ko‘rish eng muhim vazifalardan biri bo‘lgandi. 1923-yil 5 oktabrda Butun Buxoro vaqf qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda vaqfkor dehqonlardan “amlok”, “xiroj” kabi soliqlar olmaslik, ulardan faqat 10/1 foizli ushr olish kerakligi ta’kidlandi. Hatto, g‘o‘za (paxta) ekkan vaqfchi dehqonlarni ushrdan ham ozod qilish tartibi joriy qilindi. “Vaqf yerlarining tevaragida bo‘lgan mevali daraxtlardan ham hech narsa olinmasun; vayrona yotg‘on vaqf yerlarini obod qilg‘on dehqonlardan uch yilga qadar ushr ham olinmasun; vaqf idoralari va mahalliy rahbarlar bu haqida dehqonlarga

[1] Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Б. 18.

[2] Bu haqda qarang: Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шуҳрати. Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2020. – Б. 113.



www.nitropdf.com

Durdona



guvohnoma bersunlar"[1], - deyilgandi qurultoy qarorida. Diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati hamda vaqflarni tiklash jarayoni og‘ir iqtisodiy sharoitda Buxoro Respublikasi aholisi orasida dafn etish va uylanish (nikoh) marosimlari uchun ortiqcha xarajatlar qilish, ushbu masalalarga mutaasibdindorlar tomonidan soxta islomiy tus berilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak edi. 1924-yilning 31-yanvarida bo‘lib o‘tgan “Buxoro Respublikasi ulamolarining qurultoyi”da ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Dafn marosimlarida sarf-xarajatlarni kamaytirib, marosimlarni kamchiqim qilib o‘tkazish bilan bog‘liq maxsus qaror qabul qilingan[2]. Ushbu qarorda mayit ruhiga “Qur’on” oyatlarini o‘qib, bir piyola choy ustida uni xotirlash” marosimi shariatga to‘g‘ri kelishi uqtiriladi. Kambag‘allik hamda qalin puli kattaligi tufayli erkak jinsidagi fuqarolarning ko‘pchiligi 30-35 yoshga to‘lishlariga qaramay uylana olmayotganligi, bu esa respublikada oila-nikoh mo‘tadil munosabatlariga va aholi nufuzi oshuviga salbiy ta’sir ko‘rsatayoganligi ham maxsus dekretda qayd qilingan. Ushbu masalani tartibga solishga qaratilgan dekretda: “Nikoh marosimi bo‘lajak kelin va kuyovning ikki tomonlama roziligi asosida o‘tkazilishi kerak. To’y xarajatlari (nikoh va sunnat to‘ylarida) qalin bilan birga 10 tangadan oshmasligi kerak. Moddiy ahvoli yaxshi bo‘lganlar oila qurishi yoki nikoh to‘ylariga 3000 tangadan ortiq mablag‘ sarflashga haqli emasligi” yozib qo‘yilgandi[3]. Yuqoridagi qaror va dekretdan ko‘rinib turibdiki dafn etish va to‘y marosimlari bilan bog‘liq urf-odat, rasm-rusumlarni kamchiqim qilib o‘tkazish choralari ko‘rilgan. Ushbu muammo bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgan emas.

Buxoroda Dasturxonchi hovuzining yonida To‘rai Chorjo‘yi hovlisida musiqiy maktab ochib, unga Abdurauf Fitratni mudir qilib tayinlaydilar. Fitrat Buxoro Sharq musiqa maktabida ishlash uchun shartnoma asosida rus olimi va musiqashunosi V. Uspenskiyni taklif qiladi[4].

---

[1] Озод Бухоро, 7-сон, 1923 йил 1 ноябр; 8-сон, 1923 йил 6 ноябр.
[2] Ўз МА, 47-фонд, 1-рўйхат, 347-иш, 55 –варақ.
[3] Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шуҳрати. – Б. 114.
[4] Ўз МА. 56-фонд, 1-рўйхат, 124-иш, 12-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



D.Rashidova “Jadidlar merosida musiqa” maqolasida V.A.Uspenskiyning do‘sti V.M.Belyayevga yozgan bir maktubi tilga olingan. Bu maktabda V.A.Uspyenskiy: “Shashmaqomni notaga yozib olish g‘oyasi o‘zbek yozuvchisi va musiqa muxlisi Fitratga mansub”, degan. 1924-yili V.M.Belyayev V.A.Uspenskiyga “Musiqaga oid qo‘lyozmalarni qidir, top, bu nihoyatda zarur manbalar” degan so‘zlariga javoban V.A.Uspenskiy “Bu qo‘lyozmalarni qadrlovchisi va bilimdoni Fitratdir”, deb yozgan[1].

Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi Buxoroda yozilgan bo‘lib, 1927-yili Toshkentda 3053 nusxada chop etilgan[2].

1921-yil 23-sentabrda Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida Abdurauf Fitrat tahriri ostida fuqarolar tengligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan Buxoro Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilindi. Ushbu konstitusiya fuqarolarga teng siyosiy huquqlar berib, milliy tengsizlikni yo‘qotdi.

Abdurauf Fitrat 1921-yildan Xalq maorifi noziri, 1922-yildan Tashqi ishlar noziri, xalq xo‘jaligi Kengashi raisi, Respublika Markaziy ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, Xalq nozirlari sho‘rosi raisining muovini, hukumat plan va smeta tashkiliy hay’atining raisi, Buxoro Respublikasi Mehnat kengashining Prezidium a’zosi vazifalarida ham ishlagan.

Fitrat Berlinda o‘qiyotgan Aziz Xo‘jayevga 1923-yil 6-iyulda yuborgan xatida “Islohot komissiyasining raisi, Markaziy ijroiya qo‘mita raisining muovini, Sharq musiqa maktabining mudiri, tashqi ishlar noziri, Xalq nozirlari kengashining rejalari komissiyasining raisi” ekanligini ko‘rsatgan[3].

1923-yil 24-iyunda Butun Buxoro MIK Prezidiumining raisi Porso Xo‘ja rahbarligida bo‘lgan yig‘ilishda RKP (b) MKning kotibi Rudzutak talabiga binoan Tashqi ishlar noziri Otaulla Xo‘ja, Ekosanning raisi Muinjon Aminov, Maorif noziri Abdurauf Fitrat, Moliya noziri Sattor Xo‘jani egallab turgan lavozimlaridan

[1] Рашидова Д. Жадидларнинг меросида мусиқа. А.Фитратнинг ижодига оид маълумотлар. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент: Университет. 1999. – Б. 113-114.

[2] Рашидова Д. Жадидларнинг меросида мусиқа. А.Фитратнинг ижодига оид маълумотлар. – Б. 128.

[3] Муртазоев Ж., Соҳибов Ҳ. Фитратга қарши фитна. – Б. 180.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



chetlatish hamda Buxoro Jumhuriyati hududidan chiqib ketishlari to‘g‘risida qaror qabul qilingan[1].

Buxorodan chiqib ketishi talab qilingan Fitrat 1923–1924-yillari Moskva va Peterburgda yashab ijod qilgan. Lazerov nomidagi Sharq tillari institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Peterburg universiteti tomonidan professorlik unvonini olgan[2].

Fitrat Moskvada bo‘lgan vaqtida Milliy ishlar komissarligi qoshida nashr etilgan “Uchqun” jurnali tahririyatida faoliyat ko‘rsatgan. U Buxoro Respublikasi muxtor vakilligi tomonidan Moskvada chiqib turgan “Buxarskaya jizn” jurnalida ham ishtirok etgan[3].

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat 1917-yil Rossiya hududida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida ma’rifatchilikdan siyosiy harakatga jadallik bilan kirib keldi. 1917-yili Yosh buxorolilar partiyasining “Islohot loyihasi”ni tayyorladi va iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha ilg‘or fikrlarini taqdim qildi. 1920-yili Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, yuqori davlat lavozimlarida xizmat qildi. Qaysi sohada mehnat qilmasin millat ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga intildi. Maorif noziri bo‘lgan davrida Buxoroning iste’dodli yoshlarini Turkiya va Germaniyaning nufuzli oliy va o‘rta o‘quv yurtlariga yuborishga boshchilik qildi. Sovet hukumatining talabi bilan hukumatdan chetlatilib, Moskvaga yuborilgan Fitrat ilmiy faoliyatda yangi qirralarini namoyon etdi va professor unvoniga sazovor bo‘ldi.

DURDONA

## §3.2. Abdurauf Fitratning fojiali taqdiri

XX asrning 20-yilning o‘rtalaridan erkin fikrlash doirasi torayib bordi. Eski ziyolilarga, xususan, jadidlarga munosabat o‘zgara boshladi. O‘tmishning har bir hodisasiga sinfiy-siyosiy yondashish kuchaydi. Fanda, adabiyot-madaniyatda soxtakorlik, tarixni inqilob va yangi tuzum manfaatlariga moslab yasash

[1] Ражабов Қ. Фитрат халқ мулкини ўзлаштирган эдими? // “Ватан” газетаси. 1997 йил 21 август.
[2] Ўз МА, 837-фонд, 22-рўйхат, 23-иш, 18-варақ; Қулжонов А. Абдурауф Абдураҳим ўғли Фитрат // “Гулистон” журнали. 1996. №4. – Б. 37.
[3] Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Б. 22.



www.nitropdf.com

Durdona



tamoyili paydo bo‘ldi. 1917-yilgacha bo‘lgan tarixni qoralash kuchayib boraverdi. Ish shu darajaga bordiki, O‘zbekiston tarixi 1917-yil Oktabr inqilobidan boshlangan degan fikrni ilgari surdi.

Ilmiy idoralarda esa fanni siyosatning o‘yinchog‘iga aylantirish, partiya va hukumat yo‘lidan ozgina chiqqan xodimni obro‘sizlantirish, ularga siyosiy ayb taqash avj oldi. 1926-yildan “milliy ziyolilar”, “jadidlar”, “mafkura maydonida kurash” mavzulari muhokama qilina boshlandi. Bir ozdan so‘ng esa “Ziyolilar masalasi ustida partiya yo‘lini buzishga qarshi”, “Ziyolilar kimu, ziyonlilar kim?” kabi bahslar boshlandi[1]. 1926-yilda Abdulla Qodiriy, 1929-yili esa mashhur Munavvar qori Abdurashidxonov, jumhuriyat xalq maorifi komissari Mannon Ramziy, uning muovini taniqli shoir Botu qamoqqa olindilar[2].

Bu voqealar Fitratni chetlab o‘tishi mumkin emas edi. 1929-yili “Qizil O‘zbekiston” gazetasida kommunistik partiyaga xizmat qiluvchi jurnalist Jalil Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik” nomli maqolasi nashr qilindi. Maqola muallifi Fitratni va uning “O‘zbek adabiyoti namunalari” asarini keskin tanqid qilgan. Chunonchi, u marksizmni inkor qilishda, o‘tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g‘oyalarini targ‘ib va tashviq qilishda ayblangan. O‘zbek xalqining ming yillik adabiy merosi sarqit deb atalgan. Jalil Boybo‘latov Fitratning qadimgi adabiyot namunalarini birtalab yig‘ib, saralab, izohlab, o‘quvchiga yetkazishini dushmanlik, zararkunandalik deb hisoblagan va buni adibning butun faoliyati misolida “isbot” qilishga uringan. “Chig‘atoy shoirlaridan hozirg‘i o‘zbek proletar adabiyoti uchun qanday bo‘lsa ham bir narsa ola olishimiz shubhalidir. Bunda ikki turli fikr bo‘lishi mumkin emas”, – deb yozgan hamda Fitratning

[1] Абулҳай Тожи. Зиёлилар масаласи устида // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1926 йил 25 январ; Зокирий Жўра. Яна ўша зиёлилар тепасида // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1926 йил 20 июл; Марғилонли Х.О. Зиёлилар киму, зиёнлилар ким? // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1926 йил 1 июл; П.Ш. Маданий инқилоб ва зиёлилар: зиёлиларни қандай қилиб ишга соламиз // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1928 йил 20, 30 апрел; Б. Шумяцкий. Миллий зиёлилар тўғрисида // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 29 апрел ва б.

[2] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-33391, 20 томлик, 1-18 томлар.



www.nitropdf.com

Durdona



ushbu kitobiga so‘zboshi yozgan Otajon Hoshimni ham tanqid ostiga olgan[1].

Ko‘p o‘tmay, matbuotda Jalil Boybo‘latovning maqolasiga javob sifatida Otajon Hoshimning “Adabiy meros va chig‘atoy adabiyoti” degan maqolasi bosildi[2]. Muallif “O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik”ni maqola emas, “felyeton” deb atadi. Masalani bu tarzda hal qilish mumkin emasligini ta’kidladi. Muallifdagi madaniy merosni inkor qilish tamoyilini tanqid ostiga oldi. Chig‘atoy adabiyotining adabiy merosimizda tutgan o‘rni baland ekanligini aytdi. Fitrat esa “Yopishmagan gajaklar” maqolasini yozib, nohaq tanqidga javob berdi va adabiyotni anglash, idrok etishdan uzoq nuqtayi nazarning jamiyat hayotida tobora kuch borayotganini ta’kidladi[3].

Fitrat “Mening “O‘zbek adabiyoti namunalari” atalg‘an arzimas bir asarim haqinda fikringizni bildirmaslik uchun ancha urinib, 3-son gazetni to‘ldirganingizni ko‘rib mamnun bo‘ldim, o‘qib ham chiqdim. Hamma gapdan burun Sizga tashakkurimni bildiraman. Lekin baxtga qarshi maqolangizni shunchalar kengaytirgansizkim, kengligi asl maqsadning yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Bizda bolalar orasida “Ko‘zim ko‘rmaydir!” – degan bir o‘yin bor: bir bola ko‘zini qattiq bog‘lagandan keyin qo‘liga uzun bir tayoq olib, o‘rtada turadi. Boshqalar uning tayog‘ini olmoq uchun atrofdan hujum qiladilar. Tayoqli bola tayog‘ini ko‘tarib, “Ko‘zim ko‘rmaydir!” – deb tez-tez aylana beradir, tayoq kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tegadir. Maqolani yozganda, sizning qalamingiz ham shul ko‘zi ko‘rmas bolaning tayog‘iga o‘xshagan: aylang‘an, aylang‘an, kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o‘rin olgan”, deb yozgan hamda “Adabiyot mutaxassisi yoki adabiyot tarixi bilan mashg‘ul bir odam bo‘lsa edingiz, shu bahona bilan sizga yopishmoq mumkin

[1] Бойбўлатов Ж. Ўзбек адабиётида чиғатойчилик // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 13,14,15 май.

[2] Отажон Ҳошим. Адабий мерос ва чиғатой адабиёти // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 16 июл.

[3] Фитрат. Ёпишмаган гажаклар // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 15, 16 сентябр; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 228 – 236.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



edi. Lekin men bilamankim, siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy bir hodisadir”[1].

Abdurauf Fitrat Jalil Boybo‘latov tomonidan adabiy merosimizni “axlat” deb atalishini millatga nisbatan haqorat deb hisoblaydi va: “Azizim, O‘rta Osiyoning olamga ma’lum bir madaniyati bo‘lgan, bu madaniyatning turkiy asarlari qolgan. Bu asarlarning hammasiga birdan “axlatlar” deyish sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh bo‘lsa kerak. Men o‘zimning yigirma yillik mutolaam, juda kuchsiz bo‘lmagan kutubxonam soyasida shu yo‘lda ishlamoqdaman. Albatta, ishlarimda yanglishlar bo‘livi mumkin. Yanglishlarimni joy-joyi bilan ko‘rsatish kerak, ko‘zni yumub, og‘izni ochib so‘kishning ilmiy foydasi yo‘q”[2], deb javob bergan.

Ushbu javoblardan xulosa qilmagan Jalil Boybo‘latov 1930-yili “Sharq haqiqati” gazetasida Fitratga qarshi “hujum”ga o‘tadi. Oldingi qo‘ygan “ayb”lari yoniga panturkizmni ham qo‘shadi. Ushbu maqola kengaytirilib, 1931-yili “O‘zbeklarning adabiy merosi bayrog‘i ostida panturkizm” sarlavhasi bilan SAAPP (Среднеазиатская ассоциация прслетарских писателей)ning to‘plamida rus tilida nashr qilindi. Maqolaga muharririyat maxsus so‘zboshi yozadi. Ushbu maqolaning bir nusxasi O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq Komissariati DXB 4-bo‘limining bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari Davlat xavfsizligi leytenanti Trig‘ulovning 1937-yil 30-noyabrda chiqargan qaroriga ko‘ra “O‘zbekistondagi antisovet panturkistik tashkilotning faoliyatini fosh etuvchi”, “xususan, O‘zbekistondagi tugatilgan aksilinqilobiy millatchilik tashkilotining taniqli ideologi, hozirda qamoqqa olingan Rauf Rahimovich Fitratning antisovet, millatchilik ishlarini fosh etuvchi” “ashyoviy hujjat” sifatida Fitrat “Delo”siga tikilgan[3].

Jalil Boybo‘latov maqolasida Abdurauf Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari”ning e’lon qilinishiga siyosiy baho berib, uni “sinfiy dushmanning” inqilob va sotsializmga “qarshilik

[1] Фитрат. Ёпишмаган гажаклар // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 15 сентябр; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. III жилд. – Б. 228.

[2] Фитрат. Ёпишмаган гажаклар // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 16 сентябр.

[3] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви. П-22934, 10-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



ko‘rsatishi” sifatida baholagan: “Chig‘atoychilik degani bu aslida turonchilik, binobarin, panturkizmning o‘zidir... “Ulug‘ Turkiston” haqida gap ketar ekan, uning orqasida panturkizm turibdi, deb anglamok kerak, “mazlum Sharq” deyildimi, bilingki, orqasida – panislomizm, chunki “mazlum Sharq millatchi ziyolilar nazdida musulmon Sharqidir”[1].

Shuningdek, o‘zbek shoiri Hamid Olimjon 1935-yili yozgan “Jadid adabiyotining sinfiy mohiyati masalasi”, “Harbiy kommunizm davrida o‘zbek burjua poeziyasi”, ayniqsa, “Sovet adabiyoti” jurnalining 1936-yil 4-5-sonlarida nashr qilingan “Fitratning adabiy ijodi haqida” maqolasi Abdurauf Fitrat ijodini sho‘ro mafkurasi nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilib, Jalil Boybo‘latovlar pozitsiyasini mustahkamlab berdi[2].

Bu tazyiqlar nafaqat Fitratga, balki barcha millatparvar o‘zbek ziyolilariga nisbatan boshlandi. 1926-yili “inog‘omovchilik”, 1929-yili “qosimovchilik” to‘qib chiqarildi, “eski ziyolilar” nomi bilan elning ko‘zini ochgan, aqlini tanitganlar qamoqqa olindi. 1929-yili Turkiston jadidlarining yetakchisi Munavvar qorini qamoqqa oldilar. 1930-yili respublika maorif nozirligi xodimlari Botu bilan Mannon Ramziy ham “xalq dushmani” sifatida javobgarlikka tortildi. Bunday vaziyatda Abdurauf Fitratning omon qolishi mumkin emas edi. O‘zbekiston SSR hukumatining rahbari Fayzulla Xo‘jayev shunday qaltis sharoitda Abdurauf Fitratni bu qatag‘onlar to‘lqinidan asrab qoladi. Bu haqida 1938-yili Abdulhamid Cho‘lpon DXX tergovchisiga bergan ko‘rsatmasida guvohlik bergan[3].

Abdurauf Fitrat Rossiyaning barcha mustamlakalarida boshlangan qatag‘onlar to‘lqinining qonli oqibatlarini ko‘rib tursada, Vatanidan chiqib ketmadi. Shu yillarda ham ilmiy-adabiy ishni bo‘shatmadi. Tarix va madaniyatimizga doir o‘nlab asarlar yozdi. 1935-yili Cho‘lpon bilan birgalikda X asrda arablar yaratgan “Ming bir kecha” ertaklarini tarjima qilishni boshlaydi. 1936-yili

[1] САППП (Среднеазиатская ассоциация прслетарских писателей). №1. 1931. – С. 26.
[2] Алимджан Х. О литературном творчестве Фитрата // Журнал “Литературный Узбекистан”. 1936. №5. – С. 34-36.
[3] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви. П-22934, 38-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



aruzni juda sodda tushuntirib beruvchi “Aruz haqida”gi risolasini yozadi.

1937-yil 23-apreldan 24-aprelga o‘tar kechasi Abdurauf Fitrat qamoqqa olingan. Unga ayblovlar qo‘yish sanasi 1921-yildan boshlandi. Shu yili Boshqird hukumatining boshlig‘i, iste’dodli tarixchi Ahmad Zaki Validiy, qozoq “Alash O‘rda”sidan Og‘aydarov, Turkistondan Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev, Xorazmdan Bekjon Rahmonov Buxoroga kelishdi. Bekjon Rahmonov Xorazmga borishi bilan qamalishi ayon edi. Shuning uchun Buxoroda poyezddan tushirib qolishdi. Besh jumhuriyat bir ovozda markaz tuzishni taklif qildilar. Ahmad Zaki Validiy, Fayzulla Xo‘jayev, Abduqodir Muhiddinov, Bekjon Rahmonov, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev, Musojon Saidjonov, Hoshim Shoyiq, Rahim Nosirov, A.Shomansurov, A.Rasulov, Kushbegiyev, S.Jo‘raboyev va T.Risqulovlardan iborat markaz tuzildi. T.Risqulov xuddi shu paytlari Moskvada edi. Moskva bilan bog‘liq barcha masalalarni hal qilish unga topshirilgan edi. Asosiy maqsad – mustaqil Turk respublika – tili va dini, urf-udumi va turmush tarzi tarixan bir kelgan turkiy xalqlarning madaniy-adabiygina emas, davlat, hokimiyat birligiga ham erishish edi. Amalga oshmadi. Milliy og‘machilik tamg‘asi bosildi. Sinfiy ongni yuksaltirish kerakligi ta’kidlandi. Ayni paytda turkkomissiya, turkbyurolar tuzildi. Nisbatan yaxlit Turkistonni yana bo‘lish haqida qaror qabul qilindi. Natijada Zaki Validiy mavjud sharoitda Turkistonning hech qachon ozod va mustaqil bo‘la olmasligini, Boshqirdistonning ahvoli esa undan ham battarligini bilib, chetga muhojir bo‘lib ketgan. Turk respublika g‘oyasi bilan chiqqan barcha milliy rahbarlar esa 1929, 1931 va nihoyat 1937-yillarda qamoqqa olindi. Abdurauf Fitratga qo‘yilgan ilk ayblov uning milliy mustaqil davlat tuzish borasidagi harakatlar va uning asoschilari bilan o‘zaro aloqada bo‘lgani edi[1].

Fitrat 1937-yil 24-aprelda O‘zbekiston prokurorining ruxsati bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo‘limining boshlig‘i DX leytenanti Og‘abekov tomonidan hibsga olinib, unga quyidagi ayblar qo‘yilgan:

[1] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви. П-22934, 1-том, 52, 62-варақлар.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



a) Aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti “Milliy ittihod”ning a’zosi;

b) Cho‘bonzoda bosh Ozarbayjondagi aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi respublikalarini Sovet Ittifoqidan ajratib, burjua Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan O‘zbekistondagi aksilinqilobiy tashkilotning rahbarlaridan biri;

v) yosh adabiy xodimlarni aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga jalb qilgan, ularni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalagan;

g) aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi asarlar, poemalar yozgan[1].

1937-yil 24-aprel kuni Og‘abekovning o‘rinbosari DX kichik leytananti Mavrin 417-raqamli orderga asosan tintuv o‘tkazadi. Tintuvga mahalla komissiyasining raisi Risqi Hojiyev, qo‘shnilardan Ibodulla Odilov taklif qilinganlar. Tintuv hujjati Mavrin tomonidan to‘ldirilgan. Uydan Fitratning pasporti (№ 184671 YUJ), ilmiy xodimlik bileti (№ 10256), fotoqo‘lyozma, pyesa qo‘lyozmasi, uch dona kitob, 59 varaq har xil yozishmalar, bir dona ochilmagan konvert, bir dona ochilgan, ichida uch varaqlik xati bor konvert; ikkita yon daftar, ov miltig‘ining 10 dona patroni olingani qayd etilgan. Qatnashchilarning imzolari bor[2].

1935-yil 5-maydagi “Hujjatlar”da ham DX xodimlaridan Og‘abekov va Matveyev 354-son order bilan Fitratning uyida tintuv o‘tkazganliklari ma’lum. Xodimlar Fitrat nomiga Afg‘onistondan yuborilgan “Taqvim” bilan qiziqqanlar. Hujjat qoidasi bilan rasmiylashtirilgan. Ishtirokchilarning imzolari bor. Protokolning bir nusxasi Fitratga tilxat bilan topshirilgan. Tergov tugagach, olingan narsalarning ish uchun ahamiyati qolmagan buyumlar sifatida yo‘q qilinganligi haqida tuzilgan akt bor. 1930-yillari Otajon Hoshim Fan komitetining kutubxonasi uchun Fitratdan 28 ming so‘mlik kitob xarid qilgani haqida ko‘rsatma

[1] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 10-варақ.
[2] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 23-варақ.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



bergan[1]. Ammo bu kitoblar ro‘yxati haqida ham, taqdiri haqida ham ma’lumot saqlanib qolmagan.

1937-yil oktabrida 4-bo‘lim boshlig‘ining yordamchisi DX kichik leytenanti Mavrin Fitrat “yetakchilaridan bo‘lgan aksilinqilobiy tashkilot”ning Otajon Hoshimov, Anqaboy Xudoybaxtov, Usmon Nosirov, Sanjar Siddiqov kabi “vakillari” yoniga yana yangilari “fosh etilib” qo‘shilayotgani, “tashkilot”ning “chet mamlakatlar bilan aloqasi, josuslik ishlari” “ochilayotganligi”ni ko‘zda tutib, 4269-raqamli ish bo‘yicha tergov muddatini yana bir oyga – 1937-yilning 7-dekabrigacha uzaytirish haqida SSSR MIKdan O‘zSSR prokurori orqali so‘rov-qaror qabul qiladi. So‘rov-qarorni 4-bo‘lim boshlig‘i Og‘abekov ma’qullagan. Respublika prokurorining maxsus ishlar bo‘yicha bosh yordamchisi Kuxarenko, IIXK yordamchisi DX mayori Leonov uni tasdiqlaydilar. Shu asosda, shu yo‘nalishda tergov davom ettiriladi. 1937-yilning 30-noyabrida DX leytenanti Trig‘ulov Fitrat ishi yuzasidan qo‘shimcha tergov asosida qaror – aybnoma tayyorlaydi. U endi Fayzulla Xo‘jayev ko‘rsatmasiga suyanib, Sovet hukumatini kuch bilan ag‘darib tashlash maqsadida Angliyaning Afg‘oniston va Erondagi vakillari bilan yashirin harbiy-siyosiy shartnomalar tuzganlikda, bosmachilikni tashkil qilganlikda, Turkiyadan Anvar poshoni boshlab kelganlikda, fashistlar Germaniyasining josuslik tashkilotlari bilan, chet ellarga ketgan muhojirlar bilan aloqadorlikda ayblanadi[2].

1937-yilning 4-dekabrtida qo‘shimcha tergov ham tugaydi. Bu haqida ayblanuvchi xabardor qilinadi. Trig‘ulov buni protokollashtirib, Fitratga qo‘l ham qo‘ydiradi. Oradan besh oycha vaqt o‘tadi. Va yana 1938-yilning 20-mayidan yangi tergov boshlanadi. Bu gal DXQning katta leytenanti Koposov va Trig‘ulov Abdurauf Fitratni tergov qiladilar. U 1918-yildan buyon inglizlar foydasiga josuslik qilib kelganlikda ayblanadi.

O‘sha yilning bahorida Toshkentdagi “Regina” mehmonxonasida Fayzulla Xo‘jayev vositachiligidagi polkovnik Beyli bilan uchrashuv va yollanuv tafsilotlari to‘qib chiqariladi. Ayni paytda G‘ozi Olim, Qayum Ramazon, Otajon Hoshim kabilarni

[1] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 34-варақ.
[2] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 48-варақ.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



“yollaganligi”, natijada O‘zbekistonda qurolli qo‘zg‘olon uyushtirish, Sovet hukumatini ag‘darib, boshqa davlat o‘rnatish va bu ishlarga Fayzulla Xo‘jayevning bosh bo‘lib, Fitratning uning o‘ng qo‘li bo‘lishi haqidagi uydirmalar yaratiladi. Bu xil “ayblarni isbotlash uchun ish”iga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi ijroqo‘mi raisining sobiq muovini Muinjon Aminov (1937-yil 16–20 aprel), shoir Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon (1937-yil 23-iyul, 10-avgust, 25-avgust, 25-sentabr), nemis tili muallimasi Gulsum Rahimova – Ashrafiy (1937-yil 28-iyul), tilshunos olim Qayum Ramazonov (1937-yil 29-iyul), yozuvchi Anqaboy Xudoybaxtov (1937-yil 10-avgust), Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Sho‘rosining sobiq raisi Ota Xo‘jayev (1937-yil 11-avgust), O‘zbekiston Fan Komitetining sobiq raisi Otajon Hoshimov (1937-yil 13-avgust), uning sobiq o‘rinbosari Sulton Matqul (1937-yil 22-sentabr), O‘zbekenergoning sobiq injeneri To‘lagan Mo‘min (1937-yil 27-sentabr), yozuvchi va olim G‘ozi Olim Yunusov (1937-yil 5-oktabr), “Правда Востока”ning sobiq muharriri Muhammad Hasanov (1937-yil 7-oktabr), Sa’dulla Tursunxo‘jayev (1937-yil 10-oktabr), jurnalist A’zam Ayupov (1937-yil 5-noyabr), yozuvchi G‘ulom Zafariy (1937-yil 15-noyabr) tergovlaridan ko‘chirmalar, yuzma-yuz uchrashtirish materiallari qo‘shiladi[1]. Yana shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, tergov jarayoni “ayblanuvchi”larning xohishiga zid ravishda rus tilida olib borilgan.

1937-yil 16-dekabrda DX leytenantlari Trig‘ulov va Matveyev Fitrat ishi yuzasidan qaror-aybnoma tayyorlaydilar. Fitrat ayblari yoniga O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining vatanga xiyonat qilganlik haqidagi 57-moddasi (1-punkt) – u “bosh bo‘lgan aksilinqilobiy tashkilot”ning troskiychilar bilan hamkorlikda ish olib borgani, “O‘zbekistonda german razvedkasining rezidensiyasini boshqargani” qo‘shiladi.

1938-yil 4-oktabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi Fitrat ishini brigvoyenyurist Alekseyev raisligida, brigvoyenyurist Zaysev, 1-darajali harbiy yuristlar Boldirev, Batner, Gep Shuls Ani ishtirokidagi ko‘chma sessiyasida ko‘rib chiqdi. Ish haqida

[1] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том.



www.nitropdf.com

Durdona



prokuror o‘rinbosari Gep Shuls Ani axborot beradi. Sessiya 4 punktlik ajrim chiqargan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. Ayblov qaroriga qo‘shilish va ishni SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan amalga oshirish uchun qabul qilib olish;

2. Fitratni O‘zSSR JKning 57-1, 64, 67-moddalariga muvofiq sud qilish;

3. SSSR MIKning 1934-yil 1-dekabr qaroriga muvofiq ishni sudning yopiq majlisida oqlov-qoralovsiz, guvohlarsiz o‘tkazish;

4. Ayblanuvchini ehtimol chorasiga ko‘ra sudga qadar qamoqda ushlab turish[1].

O‘zbekning buyuk ziyolisi taqdiri yopiq harbiy sudda 15 daqiqa ichida hal qilingan. Millat ziyolisi o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Fitrat qamoqqa olingan 1937-yilning 22-sentabrida xotini Hikmatxon ham qamoqqa olingan. Hikmatga tegishli 68 nomdan iborat uy buyumlari, 187 nomdan iborat jihoz va buyumlar, shu jumladan, ayolning tilla zirak va uzuklari musodara qilingan. Bu vaqtda Fitratning Guliston ko‘chasidagi 116-uyida adib oilasining quyidagi a’zolari istiqomat qilishar edi:

1. Fitratning onasi Bibijon. U 1865-yili Buxoroda tug‘ilgan. 72 yoshda bo‘lgani uchun, hujjatlarda aytilganidek, mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotgan. O‘zi dehqon oilasidan, ammo eri Abdurahim Abdug‘afurov Buxoroning yirik savdogarlaridan biri bo‘lgan.

2. Fitratning xotini Hikmat Fitratova (Qandova). 1912-yili Buxoroda tug‘ilgan. Savdogar oilasidan. Uning birinchi eri Nurullaxo‘ja yirik savdogar bo‘lgan. 1933-yildan boshlab Fitrat bilan yashagan.

3. Sevara Fitratova hibsga olingan adibning o‘gay qizi. 7 yoshda[2].

Fitrat Toshkentga ko‘chib kelganidan keyin dastlab Oloy bozori yaqinidagi ko‘chada, so‘ng Beshog‘och dahasi bilan Chorsu

[1] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 56-варақ.

[2] Қор қўйнида лолалар. (Қатағон этилган аёллар ҳақида очерклар). Тошкент: Академия, 2001. – Б. 148.



www.nitropdf.com

Durdona



o‘rtasida joylashgan Chakar degan mavzeda yashagan. Guliston ko‘chasi xuddi shu yerda bo‘lgan.

Adibning qizi (Fitrat uni o‘z familiyasiga o‘tkazib, sevimli farzandi sifatida tarbiyalay boshlagan) Sevara Karomatillaxo‘jayeva o‘sha dahshatli yillarni yodlab, bunday yozgan edi: “Kunlarning birida besh-oltita shapka kiygan, shinelli odamlar bostirib kirdi. Ular so‘kinib, do‘q-po‘pisalar bilan uyimizni ag‘dar-to‘ntar qildi, keyin otamni oldilariga solib olib chiqib ketdi. Men va onam zor-zor yig‘lab qolaverdik. Shundan so‘ng otamni boshqa ko‘rmadim. Oradan to‘rt oy o‘tgach, onamni ham qamadilar. Meni esa Qumloqdagi bolalar uyiga topshirdilar...”[1].

Hikmat 1936-yil 29-sentabrda Fitratning nikohidan rasman chiqqaniga qaramay, u tarjimai holidagi ayrim nuqtalari bilan NKVDning diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratgan edi. Birinchidan, u yirik savdogar oilasiga mansub bo‘lib, akasi Saidahmad Qandov o‘zining siyosiy idoralar oldidagi burchiga sovuqqonlik bilan qarayotgan (1938-yil 14-yanvarda u ham qamoqqa olinib, otib tashlangan), birinchi eri Nurullaxo‘ja esa go‘yo aksilinqilobiy yo‘nalishdagi ishlari uchun allaqachon qamalgan edi. Ikkinchidan va eng muhimi, na Fitratni, na uning yaqin do‘stlarini aksilinqilobiy faoliyatda ayblash uchun dalil-ashyolar topilmayotgan edi. Hikmatning eridan rasman ajralgani esa (bu haqida Fitratning pasportida qayd etilgan) NKVD xodimlarida uning bunday ashyoni berishiga umid uyg‘otdi[2].

Hovli va uy eshiklari muhrlanib, mahbusning onasi Bibijonni O‘zbekistondan tashqariga – qariyalar uylaridan biriga, Sevarani yetimxonaga yuborish, Hikmat Fitratovaning o‘zini esa qamoqqa olish va lagerga yuborish haqidagi qaror qabul qilingan. Sevara Karomatillaxo‘jayevaning tasvirlashiga ko‘ra, Guliston ko‘chasidagi uy-joy qo‘sh darvozali, ichkari-tashqarili, sahnlari keng, uylari peshayvonli, yorug‘ va bahavo, to‘rt tarafi turfa gullarga g‘arq bo‘lgan uy bo‘lgan[3].

---

[1] Карроматуллахўжаева С. Отам ҳақида // “Тафаккур” журнали. 1996. №2. – Б.15.

[2] Қор қўйнида лолалар. (Қатағон этилган аёллар ҳақида очерклар). Тошкент: Академия, 2001. – Б. 149.

[3] Карроматуллахўжаева С. Ота руҳи мададкор // “Қишлоқ ҳақиқати” газетаси. 1993



www.nitropdf.com

Durdona

## *Millatga najot yo‘lin ko‘rsatgan jadid*

Hikmat Fitratovaning 1937-yil 15-oktabrda bo‘lib o‘tgan so‘roq qaydnomasi saqlangan. Hikmat Fitratova NKVD xodimlariga erining aksilinqilobiy faoliyatini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan birorta ham faktni aytmagan. U bunday faktni bilmas ham edi. Hatto uning yo Fitratning tashabbusi bilanmi, 1936-yil 29-sentabrda er-xotin o‘rtasidagi nikoh buzilgan va rasman ular 1937-yilda er-xotin hisoblanmaganlar. Biroq shunga qaramay, 1937-yil 20-oktabrda tuzilgan va o‘sha yilning 31-oktabrida tasdiqlangan aybnomaga binoan, Hikmat Fitratovaning “jinoiy ishi” alohida Majlisning sudiga havola etilgan. 1938-yil 30-dekabrda Hikmat Fitratova Toshkentdan chetga chiqmaslik sharti bilan qamoqdan ozod qilingan. Ammo uning “ish”ini to‘xtatish haqidaga qaror 1939-yil 7-fevralga kelibgina tasdiqlangan[1].

Sevara Karomatillaxo‘jayevaning Qumloqdagi bolalar uyida kechgan hayoti haqida yozib: “*U yerda olti oycha bo‘ldim. Keyin meni tog‘am olib chiqib ketdi. U kishi savdo xalq komissarining muovini, kattakon bir univermagning direktori edilar. Oradan ko‘p o‘tmay, u kishini ham qamadilar. Bu voqealardan yarim yilcha o‘tib, onamni qamoqxonadan ozod qildilar. Onam qaytib kelgach, birga Gulistondagi uyimizga bordik. Ammo, ming afsuski, uyimizga allaqachon boshqa odam ko‘chib kelgan ekan. U bizni og‘iz ochirgani ham qo‘ymadi: “Qani, darrov yo‘qolinglar, xalq dushmanining dumlari! Hozir yana turmaga tiqib qo‘yaman!” Yaqindagina qamoqdan chiqqan, kameralarning qo‘lansa hidi hali dimog‘idan ketmagan onam ikkimiz nochor qaytib ketishga majbur bo‘ldik.*

*Onam bir kuni otamni so‘nggi marta ko‘rgani haqida gapirib berdi. Bir gal ayollarni negadir muddatidan oldinroq turma hovlisiga sayrga olib chiqibdilar. Keyin “tasodifan” Fitrat otamni ham aylantirgani olib chiqibdilar. Kunlar ancha sovib qolgan ekan. Otam tanib bo‘lmas holda ekan: soch-soqoli taqir olingan, ko‘zlari ichiga tortib ketibdi. Rangi sariq, kayfiyati shikasta. Uydan olib ketgan adyolning o‘rtasidan o‘yib, kiyib olibdi. “Bu oxirgi ko‘rishishimiz, lekin men xursandman”, debdilar otam. “Nimaga xursandsiz?” deb so‘rabdilar onam. “Siz bilan uchrashganimga”.*

йил 29 июл.

[1] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 64-варақ.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



*Boshqa gaplashishning imkoni bo‘lmabdi. Ular yig‘lab ajralibdilar...”*[1].

Hikmatoy Fitratova 1956-yili Abdurauf Fitratning taqdiri haqida so‘rab, SSSR Oliy sudiga murojaat qiladi. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi raisining o‘rinbosari, adliya polkovnigi V.Borisoglebskiy imzosi O‘zSSR IIM milisiya boshqarmasiga, ikkinchisi 1-maxsus bo‘lim boshlig‘iga yuborilgan “maxfiy” xatda shunday ma’lumot beriladi:

“Ma’lum qilamanki, 1886-yilda tug‘ilgan R.R.Fitrat SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan 1938-yil 15-oktabrda sudlangan va jazoni o‘tash paytida 1944-yil 3-noyabrda vafot etgan”[2].

Bu ma’lumot xato bo‘lib, Fitratning o‘lim jazosiga hukm qilinganligini yashirish uchun maxsus maxfiy ko‘rsatma bilan uning o‘limi sanasi boshqa yil qilib ko‘rsatilgan.

SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi o‘zining 1957-yil 1-avgustdagi majlisida Fitrat ishi yuzasidan SSSR Bosh prokurori xulosasini ko‘rib chiqqan va ajrim chiqargan. Ajrimda Fitratning “hech qanday jinoyat qilmagan”ligi “aniqlanib”, unga nisbatan chiqarilgan 1938-yil 5-oktabrdagi hukm “bekor qilingan” va “ish to‘xtatilgan”. Majlis raisi adliya polkovnigi P.Lixachev O‘zbekiston DXQ hisob-arxiv bo‘limi boshlig‘iga Fitrat ishi bo‘yicha oqlov majlisining 1957-yil 1-avgust qarorini bajarish uchun “maxfiy” xat yo‘llagan. 1957-yilning 10-noyabrida Fitratning turmush o‘rtog‘i Hikmatoyga oqlov xabari yetkazilgan[3].

Shunday qilib, buyuk mutafakkir Abdurauf Fitratning hayoti va faoliyati fojiali yakun topdi. 1920-yildan qamoqqa olinguniga qadar yurt va millat ozodligi uchun kurashgan mutafakkir 1930-yillarida o‘sha paytda hukumat rahbari bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev yordami bilan omon qoldi. Siyosiy jarayonlardan butunlay chetlatilgan Fitrat ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullandi. 1937-yili aprelda turli ayblovlar bilan qamoqqa olinib, bir yildan ortiq vaqt mobaynida turli qiynoqlarga solindi. Fitrat haqida bo‘htonlar to‘qib chiqarib, uni haqqoniy qilib ko‘rsatishga intilishdi. O‘z

[1] Карроматуллахўжаева С. Отам ҳақида // “Тафаккур” журнали. 1996. №2. – Б.15.
[2] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 78-варақ.
[3] ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 78-варақ.



www.nitropdf.com

Durdona



kelajagidan, mustamlakalaridan ayrilib qolishidan xavfsiragan sovet hukumati o‘n minglab millat oydinlari qatorida Abdurauf Fitratni ham qatag‘on qildi. Oila a’zolariga tazyiq o‘tkazib, qamoqxonalarda saqladi. Mustabid tuzim milliy ozodlik harakatining g‘oyaviy kurashchisini “xalq dushmani” sifatida ko‘rsatib, o‘zbek xalqi buyuk farzandini unutishga majbur etildi.

## Uchinchi bobga xulosa

1917-yil fevral oyida Rossiya hududida sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar Turkiston mintaqasiga, jumladan, Buxoro amirligiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 1917-yil bahorda Buxoro jadidlari g‘oyaviy jihatdan ikki guruhga ajraldi. Abdurauf Fitrat so‘l guruh rahbari bo‘lib, amir hukumatidan islohotlar talab qilib chiqdi. 1918- yili esa Yosh Buxoroliklar partiyasi Markaziy Qo‘mitasi topshirig‘iga binoan “Islohot loyihasi”ni tayyorladi. Ushbu loyihada davlat va jamiyatning barcha jabhalarida islohotlar amalga oshirish ko‘zda tutildi. 1920-yili Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, esa turli yuqori lavozimlarda faoliyat ko‘rsatib, xalq farovonligini ta’minlash va mamlakat rivoji uchun xizmat qildi. Maorif noziri bo‘lib ishlagan davrida Buxoro va Turkistonning iste’dodli yoshlarini Turkiya hamda Germaniyaga o‘qishga yuborish, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlariga bosh-qosh bo‘ldi. 1923-yili sovet hukumatining talabiga ko‘ra, lavozimidan chetlatilib, Buxoro hududidan chiqib ketish sharti qo‘yilgan Abdurauf Fitrat 1924–1926-yillarda Moskva va Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)dagi oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qildi hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Qizg‘in ijod bilan shug‘ullandi. Ilmiy faoliyati munosib e’tirof etilib, professor unvoni berildi. Cheklovlar bekor qilinib, Vataniga qaytgan Fitrat qatag‘on qilingunga qadar ilmiy va ijodiy faoliyat olib bordi. 1930-yillaridan Fayzulla Xo‘jayev yordami bilan omon qolgan Fitrat muhojirlikka ketmadi. Millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak bo‘lgan mutafakkir ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotni rivojlantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. 1937-yil boshlangan milliy ziyolilarni yo‘q qilish harakatining dastlabki qurbonlaridan biri



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



Abdurauf Fitrat edi. Bir yildan ortiq davom etgan tergovlar natijasi o‘laroq qabul qilingan sud qarorida unga aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti “Milliy ittihod”ning a’zosi bo‘lganlik; Cho‘bonzoda bosh Ozarbayjondagi aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi respublikalarini Sovet Ittifoqidan ajratib, burjua Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan O‘zbekistondagi aksilinkilobiy tashkilotning rahbarlaridan biri ekanligi; yosh adabiy xodimlarni aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga jalb qilganlik, ularni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalaganlik; aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi asarlar, poemalar yozganlik; O‘zbekistonda german razvedkasining rezidensiyasini boshqarganlik ayblari qo‘yildi va otuvga hukm qilindi. XX asrning eng ko‘zga ko‘ringan yorqin vakili, buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat jismonan yo‘q qilindi. Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyati O‘zbekistonda o‘z mustamlakachiligini mustahkamlash maqsadida birinchi navbatda millat mutafakkirlarini yo‘q qilishga kirishdi va o‘z maqsadiga erishdi.

DURDONA



www.nitropdf.com

Durdona



# XULOSA

Monagrafiyada Abdurauf Fitratning Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ilmiy faoliyati tarixi tahlili va tadqiqi aniq hamda yangi ma’lumotlar asosida o‘rganilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Fitrat Turkiston maorifini yuksaltirish va uni millat ehtiyojiga xizmat qildirish uchun kurashdi. O‘lkadagi mavjud eski maktab va madrasalarni, ulardagi o‘qitish usullarini isloh qilishni talab qildi. Jadid ziyolilari bilan birgalikda yangi usul maktablari tashkil etishda, ularda ta’lim-tarbiya berishda ishtirok etdi. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozdi. U o‘zbek tili qoidalarini ishlab chiqish va adabiyot tarixini yaratishga, Turkiston matbuoti, dramaturgiyasi, teatr va musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shdi.

2. Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” asarlari Turkiston xalqlarining milliy inqirozini oldini oluvchi, ularning madaniy taraqqiyotini amalga oshiruvchi g‘oyalarni ifoda etdi. Bu g‘oyalar mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarini qamrab olgan bir butunlikda rivojlanish usuli edi. Uning asosini ilmiy kashfiyotlarni joriy qilgan holda rivojlangan sanoat texnologiyalarini barpo qilib, kapitalistik munosabatlarga o‘tish g‘oyasi tashkil qildi.

3. Fitrat ma’rifat tarqatishdagi faoliyatini matbuot organlarida ishtirok etish, teatr truppalari tashkil etish va ular uchun dramalar yozish orqali davom ettirdi.

4. Abdurauf Fitrat mamlakatni tanazzuldan qutqarishning yagona yo‘li ilm-ma’rifatda, deb bildi. Mamlakatda ilm-fanni rivojlantirmasdan turib, taraqqiyotga, ozodlikka erishib bo‘lmasligini, har bir fuqaroning diniy va dunyoviy ishlarni bajarish uchun bilim olishlari zarurligini uqtirdi. Ilmsiz iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan qoloq xalq qashshoqlikka, jaholatga, ijtimoiy zulmga mahkum ekanligini ko‘rsatib berdi.

5. Ilmiy ijoddan tashqari siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylangan Abdurauf Fitrat 1918-yili “Islohotlar loyihasi”ni ishlab chiqdi. Dasturda jamiyatning barcha jabhalarida



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



o‘zgarishlar va yangiliklarni joriy etish bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar hamda tavsiyalar berdi.

6. Fitrat Turkistonda ilm-fanni rivojlantirish uchun ilg‘or Yevropa davlatlaridagi fanlarni o‘rganishga, millat yoshlarini chet davlatlarda o‘qitishga katta ahamiyat berdi. Ellikdan ortiq yoshlarning Turkiya va Germaniyaga o‘qishga yuborish ishlariga rahbarlik qildi.

7. Fitrat “Chin sevish” va “Hind ixtilochilari” asarlarida mazlum Sharq va mustabid G‘arb mavzusini ko‘tarib chiqdi. Bu dramalarni yozgunga qadar Fitrat publisistikasida Buxoro amirligi siyosiy-ijtimoiy hayotini isloh etish g‘oyasi va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati keng ifodalangan bo‘lib, mazkur dramalarda ilgari surilgan Sharq va G‘arb masalasi 1917–1920-yillar publisistikasida shakllangan edi.

8. Fitrat shoir, dramaturg, publisist, musiqashunos, atoqli davlat va siyosat arbobi bo‘lishi bilan birga, yirik tilshunos va adabiyotshunos olim, Turkiston maorifi taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan buyuk ma’rifatparvardir.

9. 1924-yildan u Moskvada Sharq tillari institutida dars bergan, 1926-yili professor bo‘lgan. Afg‘oniston, Turkiya, Eron ilmiy-adabiy doiralarida ham uning mavqe’-martabasi baland edi. Mamlakatda “ichki dushmanlar”ni fosh qilish vasvasasi avj olib, xalqning asl farzandlari bir chetdan terilib qatag‘on qilinayotgan bir paytda xorijdagi ilm-ma’rifatning qadriga yetuvchi ishbilarmon homiylar da’vatnomalar yozib, uni ishga taklif etganlarida bormadi. U sovet hokimiyatiga qarshi kurashganlarning rahbari sifatida ayblandi va 1938-yili “xalq dushmani” sifatida otib tashlandi. Va sal kam ellik yil bu nom uni voyaga yetkazgan eli, yurti xotirasidan quvib chiqarildi.

DURDONA



www.nitropdf.com

Durdona



# MILLATGA NAJOT YO‘LIN KO‘RSATGAN JADID
## (So‘ngi so‘z o‘rnida)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 20-fevralda Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimidagi nutqida “XX asr boshida jadid bobolarimiz vatanimiz mustaqilligi yo‘lida fidoyilik bilan kurashganlar. Bu borada ular Turkiyalik ma’rifatparvarlar bilan faol hamkorlik qilganliklari, bu diyorda ta’lim olib, yangi g‘oya va qarashlarga ega bo‘lganliklarini yaxshi bilamiz” deb ta’kidlab, o‘sha yillar Turkiyada tahsil olgan vatandoshlarimiz Abdurauf Fitrat, Said Ahroriylarning Turkiyada ta’lim olgan atoqli adib va arboblar sifatida ta’kidlagan edilar. Jumladan, Sh.M.Mirziyoyev shu nutqida “ Biz bu ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini qancha ko‘p o‘rgansak, bizni o‘ylantirayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz”,- deb uqtirdilar.

Shu nuqtai nazardan ham Abdurauf Fitratning hayoti, ijodi va tarix zarvaraqlarida qoldirgan ulkan merosini o‘rganish, bugungi Yangi O‘zbekistonning serg‘ayrat, dunyo minbarlariga chiqayotgan tashabbuskor yoshlarining vazifasi bo‘lib qolmasdan taraqqiyparvarlar va ularnig safdoshlari g‘oyalarini targ‘ib etib yoshlar ma’naviyati hamda dunyoqarashini shu kabi vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orish juda katta tarixiy voqelikdir.

Mazkur monagrafiya muallifi Zebiniso Ahmadova tarixiy jihatdan kam o‘rganilgan Abdurauf Fitrat hayotining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faoliyatini o‘rganishga kirishib, ma’lum darajada bu ishning uddasidan chiqqan.

Monagrafiyaning so‘z boshi qismida jahonda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar har bir davlat, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar tarixini, bu munosabatlarning faol ishtirokchisi bo‘lgan, xalq va yurt manfaati uchun jon fido qilgan tarixiy shaxslar faoliyatini keng, chuqur tadqiq etish muhimligini haqida bildirilgan fikrlar, shu nuqtayi nazardan, milliy ozodlik uchun kurashlari va jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan taraqqiyparvar shaxslarning xizmatlarini xolis o‘rganish, e’tirof



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



etish, har bir xalqning o‘z ajdodlari milliy qiyofasini teran anglash masalasi muhim ahamiyat kasb etayotganligi takidlangan.

Bilamizki, dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakati namoyandalari faoliyati, tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, milliy ozodlik harakati ishtirokchilari va qo‘rboshilari, taraqqiyparvarlar, davlat va jamoat arboblarining ibratli hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati kabi masalalar tadqiq etilib kelinmoqda. Biroq, Abdurauf Fitratning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni, ilmiy va ijodiy faoliyati yetarlicha o‘rganilmagan. Bu o‘z navbatida ajdodlar merosini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda, yangicha yondashuvda tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va yangi jamiyat qurishda xalqimizning boy tarixi, madaniyati, an’analarini va tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini, ma’naviy merosini chuqur o‘rganish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab faoliyat olib borgan ma’rifatparvar, taraqqiyparvar shaxslarning ibratli hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini asl manbalar hamda zamon talablari asosida o‘rganish zaruriyat va dolzarblik kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsad yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”[1].

Ushbu monagrafiyada ham Abdurauf Fitrat faoliyati bilan bog‘liq tarixiy tadqiqotlar tahlili ochib berilgan bo‘lib, Fitratning dunyo mamlakatlarida o‘rganilishi borasida mashhur tarixchi

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабр куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабр.



www.nitropdf.com

Durdona



Adib Xolid va taniqli filolog Temur Xo‘ja o‘g‘lining Abdurauf Fitrat ijodining turli qirralariga e’tibor qaratganlarini tahlil qilingan.

Monagrafiyaning har uchala bobidagi bo‘limlarda ilmiy muomalaga kam kiritilgan yoki umuman kiritilmagan yangi fikrlar, mulohazalar bilan tanishish mumkin. Ayniqsa, Fitratga qarshi boshlangan kurash jarayonidagi Hamid Olimjon va Jalil Boybo‘latovlarning munozarlari monagrafiyani yangiligini boyitishda xizmat qilgan.

Umuman olganda, qo‘lingizdagi risolada tadqiqot muallifining ilmiy qarashlari, mustaqil izlanishlari va muhim ilmiy xulosalarga kela olganligini hamda Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyatiga doir tarixshunoslik yo‘nalishidagi birinchi monagrafiya ekanligini asoslab turibdi. Shoyadki bu ilmiy izlanish Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitratning yuzlab hali tarix sahifalaridan joy olmagan safdoshlarining hayotini o‘rganishga yo‘l ochib bersa, degan umiddamiz.

**Jamolova D.M.,**
**Tarix institutining ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim**

DURDONA



www.nitropdf.com

Durdona



# FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1.1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон”. 2016. - 56 б.

1.2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2017. - 488 б.

1.3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттироб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2017. -592 б.

1.4. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. II жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2018. - 508 б.

1.5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Ўзбекистон овози. 2018 йил, 29 декабр. № 121-122.

1.6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. - Тошкент: “Ўзбекистон”. 2019. - 64 б.

1.7. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. III жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон”. 2019. - 406 б.

1.8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январ // https://president.uz/uz/lists/view/3324

1.9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // Янги Ўзбекистон. 2020 йил 24 сентябр.

1.10. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. IV жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2020. - 456 б.

1.11. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “Ўзбекистон”. 2021. - 464 б.



www.nitropdf.com

Durdona



1.12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 76-сессиясидаги нутқи // Янги Ўзбекистон. 2021 йил 22 сентябр.

1.13. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабр куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабр.

**II. Tarixiy hujjatlar**

2.1. Абдирашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете «Таржуман» (1883-1917). Токио, 2011. – 233 б.

2.2. История Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.) // Сборник документов. Ташкент: Фан, 1976. – 484 с.

2.3. История образования в архивных источниках. (По материалам ЦГА РУз) Том I. (1867-1917 гг.). Сборник документов. Ташкент: Yangi nashr, 2015. – 204 с.

2.4. История образования в архивных источниках. (По материалам ЦГА РУз) Том II. (1917-1991 гг.). Сборник документов. Ташкент: Yangi nashr, 2015. – 504 с.

2.5. Миллий матбуот фиҳристи. “Иштирокиюн”, “Қизил байроқ”, “Туркистон” ва “Қизил Ўзбекистон” газеталарида эълон қилинган мақолалар изоҳли библиографияси (1918-1930). Тузувчи Феруза Нуриддинова. 1-китоб. Тошкент: Миллий кутубхона нашриёти, 2010. - 260 б.

2.6. “Туркистон вилоятининг газети”га тузилган библиографик кўрсаткич. (1870-1916 йй.). Тузувчи Р. Файзуллаев. Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 107 б.

**II Arxiv hujjatlari**

2.1. Ўзбекистон Миллий архиви

2.1.1. И-1- фонд – Туркистон генерал-губернатори маҳкамаси

2.1.2. И-2-фонд-Туркистон генерал-губернаторлиги ҳузуридаги дипломатия чиновниги



www.nitropdf.com

Durdona



2.1.3. И-3-фонд- Россия империяси Бухоро сиёсий айғоқчилиги

2.1.4. И-461-фонд – Туркистон район муҳофаза бўлими

2.1.5. Р-47-фонд – БХСР Марказий Ижроия қўмитаси

2.1.6. Р-48-фонд – БХСР Халқ Нозирлар Шўроси

**2.2. O‘zR FA Tarix instituti joriy arxivi**

2.2.1. П-22934 – Абдурауф Фитрат

**III. Davriy matbuot**

*3.1. Газеталар:*

3.1.1. “Таржимон” (Боғчасарой, 1883-1917).

3.1.2. “Сиротил мустақим” (Истанбул, 1911).

3.1.3. “Бухоройи шариф” (Янги Бухоро, 1912-1913).

3.1.4. “Турон” (Янги Бухоро, 1912-1913).

3.1.5. “Ҳуррият”. (Самарқанд, 1917-1918).

3.1.6. “Улуғ Туркистон” (Тошкент, 1917-1918).

3.1.7. “Иштирокиюн” (Тошкент, 1918-1920).

3.1.8. “Бухоро ахбори” (Эски Бухоро, 1920-1923).

3.1.9. “Учқун” (Тошкент, 1920).

*3.2. Журналлар:*

3.2.1. “Ойина” (Самарқанд, 1913-1915).

3.2.2. “Мулла Насриддин”. (Тифлис, 1909-1911).

**IV. Esdaliklar va xotiralar**

4.1. Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи С. Холбоев. Тошкент: Шарқ, 2001. – 128 б.

4.2. Айний С. Воспоминания. Перевод с таджикского А.З. Розенфельд. Книга 1-4. Сталинабад: Таджгосизд, 1949-1954.

4.3. Айний С. Воспоминания. Перевод с таджикского С. Бородина. В двух книгах. Книга II. Душанбе: Ирфон, 1981. – 376 с.

4.4. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Тошкент: Фан, 1991. – 32 б.

4.5. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар. Бошқирд тилидан Ш. Турдиев таржимаси. Тошкент: Адолат, 1997. – 280 б.



www.nitropdf.com

Durdona



## V. Ilmiy adabiyotlar

5.1. Абдурауф Фитрат миллий феномени, адбий, илмий-назарий мероси, ижтимоий-сиёсий фаолиятига бағишланган биринчи жумҳурият илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро, 1992. 122 б.

5.2. Абдурауф. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть). Самарканд: издание Махмудхожда Бегбуди. 1913. 101 стр.

5.3. Абдурасулов М. Ўзбек маърифатпарвар шоирлари илм-маърифат ҳақида. Тошкент: Ўқитувчи. 1972. 108 б.

5.4. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Тошкент: Академия, 2000. 115 б.

5.5. Абдужалилова Ш. Абдуруф Фитратнинг оила ва бола тарбиясига оид қарашлари // “Мактаб ва ҳаёт” журнали. 2003. №5. – Б. 17-21.

5.6. Абдужалилова Ш. Ҳинд сайёҳида тарбия ҳикмати // “Мактаб ва ҳаёт” журнали. 2003. №8. – Б. 18-19.

5.7. Абдирашидов З. Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: “Мунозара” ва Истанбул Бухоро жамияти хайрияси // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 2 (31), – P. 287-290.

5.8. Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. Душанбе: Адиб, 1987. 240 саҳ.

5.9. Аллворт Э. Жадидлар ҳақида яширилган ҳикоялар // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1992 йил 11 сентябр.

5.10. Алиев А. Фитрат ва унинг “Арслон” драмаси // “Гулистон” журнали. 1989. №12. – Б.22-24.

5.11. Алиев А. Мустамлакачиликка ўт очган асар // “Гулистон” журнали. 1989. №4. – Б. 24-25.

5.12. Алиев А. Маданий инқилоб ва зиёлилар тақдири // “Мулоқот” журнали. 1991. №10. – Б. 22-23.

5.13. Алиев А. Абдурауф Абдураҳим ўғли Фитрат. Тошкент. 1991. 46 б.

5.14. Алиев А. Сенинг нурли кўзларингда бахт ўқидим (Беҳбудий ва Фитрат ҳақида) // “Ўзбекистон овози” газетаси. 1992 йил 9 январ.



www.nitropdf.com

Durdona



5.15. Алиев А. Фитрат мустақиллик ва демократия учун курашчи // “Халқ ва демократия” журнали. 1992. №5-6. – Б. 49-50.

5.16. Алиев С. Бухорода битилган байтлар (Адабий мақолалар ва хотиралар // Абдурауф Фитрат ҳақида Ғуломқодир Изомий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1992. 128 б.

5.17. Алимова Д. Исторические мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркистана. Туркистон мустақиллиги ва озодлиги учун кураш саҳифаларидан. Тўплам. Тошкент: Фан. 1996. – Б. 12-26.

5.18. Алимджан Х. О литературном творчестве Фитрата // Журнал “Литературный Узбекистан”. 1936. №5. – С. 34-36.

5.19. Арапов Д. Бухарское ханство и русское востоковедческой историографии. Москва: Издтельство Московского университета. 1981. 128 стр.

5.20. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. Тошкент: Маънавият. 2000. 168 б.

5.21. Аҳатова Д. Абдурауф Фитрат – маърифат куйчиси // “Халқ таълими” журнали. 1998. №5. – Б. 52-55.

5.22. Беҳбудий М. “Мунозара” ҳақида. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган иккинчи нашри. Тошкент: Маънавият. 1999. – Б. 247-251.

5.23. Бойбўлатов Ж. Ўзбек адабиётида чиғатойчилик // “Қизил Ўзбекистон” газетаси. 1929 йил 13-15 май.

5.24. Бойбўлатов Ж. Ўзбек адабий мероси байроғи остида пантуркизм // “Шарқ ҳақиқати” газетаси. 1930 йил 12 сентябр.

5.25. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва истиқлол маънавияти. А.Фитрат. Танланган асарлар. Сўз боши ўрнида. 1-жилд. Тошкент: Маънавият. 2000. – Б. 5-30.

5.26. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. Масъул муҳаррир Н.Каримов. Тошкент: Ёзувчи, 1996. 120 б.

5.27. Болтабоев Ҳ. Хорижда фитратшунослик // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1992 йил 27 март.



www.nitropdf.com

Durdona



5.28. Бурҳонов М. Нурли сиймолар (Фитрат ва Чўлпон ҳақида хотиралар) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1991 йил 19 апрел.

5.29. Валихўжаев Б. Айний талқинида Фитрат // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1988 йил 4 ноябр.

5.30. Вахидов Х. Просветительская идеология в Туркестане. Ташкент: Узбекистан. 1979. 120 стр.

5.31. Дониёров Ш. Сўнгги қалъанинг истило қилиниши ёҳуд “Ёш бухороликлар” фаолияти // “Ёшлик” журнали. 1992. №7-8. – Б. 50.

5.32. Дўстқораев Б. Фитрат // “Муштум” журнали. 1988. №18. – Б. 8-9.

5.33. Жадидчилик қандай оқим?! (Давра суҳбати) // “Санъат” журнали. 1991. №1. – Б. 12.

5.34. Жамол Камол. “Абулфайзхон” – тўнғич тарихий драма // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1989 йил 14 апрел.

5.35. Закиров И.Б. Стновление и развитие советского гражданского права в БНСР и ХНСР. Ташкент: Фан. 1988. – 184 б.

5.36. Зиманов С.З. От освободительных идей к советской государственности в Бухаре и Хиве. Алма-Ата: Наука. 1976. – 220 с.

5.37. Зиёев Ҳ. Жадидлар ҳаракатининг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий замини // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент: Университет. 1999. – Б. 9-22.

5.38. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII-XX аср бошлари). Тошкент: Шарқ. 1998. – 480 б.

5.39. Иброҳимов С. Фитрат ва жадидчилик // “Мулоқот” журнали. 1994. №5-6. – Б. 13-14.

5.40. Каримов Н. Фитратнинг шайтонга исёни // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1993 йил 20 август.



www.nitropdf.com

Durdona



5.41. Каримов Э. Фитрат ҳаёти ва ижоди ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 1990. №3. – Б. 28-29.

5.42. Карроматуллахўжаева С. Ота руҳи мададкор // “Қишлоқ ҳақиқати” газетаси. 1993 йил 29 июл.

5.43. Карроматуллахўжаева С. Отам ҳақида // “Тафаккур” журнали. 1996. №2. – Б.15.

5.44. Мирза Абдал Азим Сами. Тарихи салатин-и мангитийа (История мангитских государей). Издание текста, предисловие, перевод и примечания Епифановой Л. М. Москва: Изд. вост. лит., 1962. – 179 с.

5.45. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. Перевод и примечания Норкулова Н. К. Тошкент: Академия, 2009. – 330 с.

5.46. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. Таржимон, нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир Воҳидов Ш., Чориев З. Тошкент: Академия, 2001. – 122 б.

5.47. Наимов Н. Мен яшашни истайман (роман-хроника). Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1994. – 93 б.

5.48. Наимов Н. Бухоро жадидлари (тарихий очерклар, ҳужжатли қисса). Тошкент: Фан, 2000. – 46 б.

5.49. Наимов Н. Сўнгги ҳукмдор (тарихий қисса). Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2008. – 170 б.

5.50. Пылёв А. Политическое положение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в 1917-1920 гг. Санкт-Петербург: Петербургское Востоковедение, 2005. – 192 с.

5.51. Ражабов Қ. Амир Абдулаҳадхон ёҳуд “ожиз” ҳукмдор // Бухоро мавжлари, 2007, № 2. – Б. 36-37.

5.52. Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 185-202.

5.53. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкенг: Маънавият, 2002. – 144 б.

5.54. Ражабов Қ. Жадидчилик ва истиқлол // “Жамият ва бошқарув”. (Тошкент), 1999. № 3-4. – Б. 41-49.

5.55. Ражабов Қ. Жадидлар ва уламолар совет ҳокимиятига қарши қуролли курашнинг ғоявий асосчиси ва



www.nitropdf.com

Durdona



ташкилотчилари // Туркистон жадидчилиги – миллий уйғониш даври тарихи. Наманган: “Наманган” нашриёти, 2012. – Б. 299-314.

5.56. Ражабов Қ. Сўнгги манғит ҳукмдори // “Бухоро мавжлари”. (Бухоро), 2007, № 3. – Б. 41-43.

5.57. Ражабов Қ. ХХ аср бошларида Туркистон ёшлари // “Ҳуқуқ ва бурч”, 2008, № 1. – Б. 40-43, № 2. – Б. 35-37.

5.58. Ражабов Қ., Ҳайитов Ш. Усмон Хўжа. Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2011. – 36 б.

5.59. Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси (1920-1924 йиллар). Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003. – 99 б.

5.60. Рашидов У., Рашидов Ў. ХХ аср бошларида Бухоро амирлигидаги сиёсий ва иқтисодий жараёнлар. Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2011. – 67 б.

5.61. Ризаев Ш. Маърифатпарварликдан маърифатчиликкача // “Тафаккур”. (Тошкент), 1995, № 1. – Б. 74-79.

5.62. Садри Зиё. Наводири Зиёия. Тожик тилидан таржима, кириш, изоҳлар муаллифи Б. Аминов. Тошкент: Bayoz, 2017. – 184 б.

5.63. Солиҳов Бузрук. Ўзбек адабиётида миллатчилик илдизлари. Тошкент: Узадабийнашр. 1933. 89 б.

5.64. Тоҳир Қаҳҳор. Ҳур Туркистон учун. Тошкент: Чўлпон, 1994. – 112 б.

5.65. Турдиев Ш. Маърифат қалдирғочлари // “Ёшлик” журнали. 1989. №7. – Б. 64-66.

5.66. Турдиев Ш. Танқид душман излаганда // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1988 йил 29 июл.

5.67. Турдиев Ш. Ҳинд ихтилочилари фожиаси ҳақида // “Шарқ юлдузи” журнали. 1990. №4. – Б. 32-35.

5.68. Турдиев Ш. Маърифатпарвар мураббий // “Ўзбекистон овози” газетаси. 1992 йил 23 май.

5.69. Туркестан в начале XX века: к истории истоков нацио¬наль¬ной независимости. Научный редактор Р.Я. Раджапова. - Ташкент: Шарк, 2000. – 672 с.

5.70. Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. Тошкент: Минхож. 1992. 64 б.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



5.71. Фитрат. Бизда йигитлик // “Тонг” журнали. 1920. №2. – Б. 8-9.
5.72. Фитрат. Биринчи чорамиз // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 29 август.
5.73. Фитрат. Бугун // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 8 сентябр.
5.74. Фитрат. Бухоронинг аскари // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 29 сентябр.
5.75. Фитрат. Бухоронинг холи // “Ҳуррият” газетаси. 1918 йил 19 феврал.
5.76. Фитрат. Ислоҳот ва Бухоро. Тошкент, 1917.
5.77. Фитрат. Имло конференцияси муносабати билан // “Аланга” журнали. 1923. №3. – Б.3.
5.78. Фитрат. Иттифоқ этайлик. Мусулмонлар, ғофил қолманг. Шўрои Исломнинг хатоси // “Ёшлик” журнали. 1991. №10. – Б. 44.
5.79. Фитрат А. Нажот йўли. Тошкент: Шарқ, 2001. 176 б.
5.80. Фитрат. Маориф ишлари // “Учқун” журнали. 1923. №2. – Б. 11-12.
5.81. Фитрат А. Мухтасар ислом тарихи. Тошкент: Камалак, 2001. 36 б.
5.82. Фитрат. Мухторият // “Фан ва турмуш” журнали. 1990. №10. – Б. 30.
5.83. Фитрат. Озуқа масаласи // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 15 август.
5.84. Фитрат А. Оила. Форс тилидан Ш.Воҳидов таржимаси. Тошкент: Маънавият, 1998. 112 б.
5.85. Фитрат А. Танланган асарлар. 1-5 жилдлар. Тошкент: Маънавият, 2000-2010.
5.86. Фитрат. Тилимиз // “Ёшлик” журнали. 1990. №5. – Б. 65-67.
5.87. Фитрат. Туркистонда руслар // “Ҳуррият” газетаси. 1917 йил 2 январ.
5.88. Фитрат А. Чин севиш. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1996. 256 б.
5.89. Фитрат. Шарқдаги инглизлар // “Тонг” журнали. 1920. №1. – Б. 8-14.



DURDONA
www.nitropdf.com

Durdona



5.90. Фитрат. Шарқ сиёсати. Тошкент. 1992.

5.91. Фитрат. Ҳиммат ва саботи бўлмаган миллатнинг ҳаққи ҳаёти йўқдир // “Ойина” журнали. 1915. №7. – Б. 8-9.

5.92. Холбоев С. ва б. Туркистон жадидчилиги: миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). Наманган: “Наманган” нашриёти, 2012. – 324 б.

5.93. Хўжаев Ф. Бухоро инқилоби тарихига материаллар. Самарқанд-Тошкент. 1926. 195 б.

5.94. Шодмонова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида (1870-1917 йиллар). Тошкент: Yangi nashr, 2011. – 296 б.

5.95. Шубинский П.П. Очерки Бухары // “Исторический вестник”. (Петербург), 1892. № 7. – С. 119-142.

5.96. Элен Каррер Энкаус. Яширин жамиятлар даври (1910-1914 йиллар) // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1994. № 1-2. – Б. 63-69.

5.97. Эргашев Б. К вопросу о младобухарцах // История СССР, Москва, 1990. № 4. – С. 58-70.

5.98. Эргашев Б. Идеология национально-освободительно движения в Бухарском эмирате. Ташкент: Фан, 1991. – 83 с.

5.99. Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана (1970-1925). Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 287 с.

5.100. Қаршибой М. Фитрат имзо чеккан ҳужжат // “Туркистон” газетаси. 1994 йил 16 феврал.

5.101. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, фидоийлик, матонат. Тошкент: Маънавият. 2002. 260 б.

5.102. Қосимов Б. Фитрат – халқ фарзанди // “Саодат” журнали. 1989. №2. – Б. 14-15.

5.103. Қосимов Б. Фитрат // “Санъат” журнали. 1991. №12. – Б. 10-13.

5.104. Қиличев Ф. П 31922 сонли жиноят иши ҳужжатлари асосид туғилган мулоҳазалар // “Шарқ юлдузи” журнали. 1992. №7. – Б. 151-157.

5.105. Шарафуддинов О. Абдурауф Фитрат // “Ёшлик” журнали. 1990. №3. – Б.63-67.



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



5.106.Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Маъсул муҳаррирлар Алимова Д., Ртвеладзе Э. Тошкент: Шарқ, 2001. – 224 б.

5.107.Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар // Давра суҳбати материаллари. Тошкент: Эльдинур. 1998. – 94 б.

5.108.Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М. Жўраев. Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

5.109.Ўзбекистон тарихи (1917-1993 йиллар). 9-синф ўқувчилари учун дарслик. Маъсул муҳаррир Р. Ражапова. Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

5.110.Ўзбекистон тарихи (1917-1991 й). 10-синф ўқувчилари учун дарслик. Маъсул муҳаррир Д. Алимова. Тошкент: Шарқ, 2000. – 416 б.

5.111.Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 3. Маъсул муҳаррир И. Мўминов. Тошкент: Фан, 1971. – 712 б.

5.112.Ғаниев И. Фитратшунослик. Бухоро. 1995. 96 б.

5.113.Ғаниев И. Фитрат: эътиқод ва ижод. Тошкент: Камалак. 1994.

5.114.Ҳайитов Ш., Бадриддинов С., Рахмонов К. Бухоро Халқ Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. Бухоро, 2005. 154 б.

5.115.Ҳайитов Ш., Рахмонов К. Абдурауф Фитранинг вақф ишлари ҳақидаги лойиҳаси ва уни амалга тадбиқ этиш йўлидаги ҳаракатлари // “Истиқлол ва Фитрат” мавзусидаги анъанавий Республика илмий амалий анжуман материаллари. Бухоро. 2011. – Б. 125-129.

5.116.Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шуҳрати. Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2020.

5.117.Ҳасанов М. Фитратнинг “Ислоҳот лойиҳаси” хусусида // “Ҳаёт ва иқтисод” журнали. №11. – Б. 21-23.

**VI. Xorijiy adabiyotlar**

5.118.Bacon E. Central Asia under Russian Rule: A Study in Cultural Change. New York, 1966. – 274 p.



www.nitropdf.com

Durdona



5.119.Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. Cambrige, 1968.

5.120.Bennigsen A. Islam in the Soviet Union: the religios factor and the nationality problem. L – New York, 1967. – 272 p.

5.121.Carrere d’Encause H. Reform et Revolution chez les musulmans de I’Empire Russe Boukhara. 1867-1924. Paris, 1966 – 312 p.

5.122.Edward A. Allworth. The Personal History of a Bukharan Intellectual: The Diary of Muhammad-Sharif-I Sadr-I Ziya. Brill: Leidin-Boston, 2004. – 407 p.

5.123.Glenda Fraser. “Basmachi-I” // “Central Asian Survey”. (Oxford), 1987, №1. – P. 7-31.

5.124.Hisao Kamatsu. 20 yuzyil baslarinda Orta Asyada turkcilik ve devrim harakatlari. Ankara: Turhan kitabevi. 1993. 79 sahifa.

5.125.Khalid A. The politics of Muslim cultural reform: jadidizm in Central Asia.-Berkeley – Los Angeles-London, 1998. – 336 p.

5.126.Komatsu Hisao. 20 Yuzyil baslarinda Orta Asyada Turkguluk ve devrim hareketleri. – Ankara, 1993. – 80 s.

5.127.Zeki Ahmad Validiy. Bugunkı turk elı ve onun yakin tarıhı. 2-baskı. İstanbul, 1981.

5.128.Zenkovskiy S. A. Pan-Turcizm and islam in Russia. Cambridge-Massachusetts: Harward University Press, 1960. – 348 p.

## VII. Dissertasiya va avtoreferatlar

8.1. Амонов У. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент, 1996. 152 с.

8.2. Астанова Г. Историография политических процессов в Бухаре в 1920-1924 гг. Автореф.дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2008. – 29 с.

8.3. Болтабоев Ҳ. XX аср ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Филология фанлари доктори диссертацияси. Тошкент, 1996. 366 б.

8.4. Мингноров А. Вопросы национально-освободительного движения в национальной периодике



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



(февраль 1917 – середина 1918 гг.). Автореф. дисс… канд. ист. наук. Ташкент, 2001. – 32 с.

8.5. Мухаммеджанова Л. Общественно-политическая ситуация в Бухаре в начале XX века и развитие демократического движения (1908-1920 гг.). Автореф. дисс… канд. ист. наук. Ташкент, 1999. – 32 с.

8.6. Раджабов К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924 гг.). Автореф. дисс… докт. ист. наук. Ташкент, 2005. – 65 с.

8.7. Расулов Б. Из истории мусулманских мактабов и медресе Узбекистана (конец XIX – до 20-е году XX в.). Автореф. дисс… канд. ист. наук. Ташкент, 1996. – 26 с.

8.8. Раҳмонов К. “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталари – Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихини ўрганиш манбаси. Тарих фанлари номзоди диссертация автореферати. Тошкент, 2009. – 32 б.

8.9. Тайронов Е. Общественно-политическая деятельность туркестанских предпринимателей в начале XX века. Автореф. дисс… канд. ист. наук. Ташкент, 2011. – 27 с.

8.10. Турсунов Й. Ўзбекистон маорифчиларининг истиқлол йўлидаги кураши тарихидан (1917-1930 йиллар). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Тошкент, 1995. – 64 б.

8.11. Турсунов Р. Воззрения национальных прогрессистов на социально-экономические процессы в Туркестане в начале XX века. Автореф. дисс… канд. ист. наук. Ташкент, 2008. – 29 с.

8.12. Шадманова С. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870-1917). Автореф. дисс… докт. ист. наук. Ташкент, 2011. – 61 с.

8.13. Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев. Автореф. дисс... докт. филос. наук. Ташкент, 1993. – 56 с.

8.14. Эргашева М. Абдурауф Фитратнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари. Юридик фанлари номзоди илмий



DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona



даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Тошкент, 2002. – 24 б.

8.15. Хайитов Ш. История узбекской эмиграции XX века. Автореф. дисс... докт. ист. наук. Ташкент, 2009. – 50 с.

8.16. Худойқулов А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX в.) Автореф. дисс… канд. ист. наук. Ташкент, 1995. – 24 с.

8.17. Ҳамроева О. XX аср бошлари ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент, 2018. – 173 б.

## VIII. Internet resurslari

9.1. www.islamrf.org
9.2. www.uz.wikipedia.org
9.3. www.m.islam-today.ru
9.4. www.wikwhat.ru
9.5. www.vostokcafe.com
9.6. www.testhistory.ru
9.7. www.centrasia.ru
9.8. www.cheloveknauka.com
9.9. http://www.booksite.ru
9.10.https://mytashkent.uz
9.11. https://dic.academic.ru

DURDONA



www.nitropdf.com

Durdona

# MUNDARIJA

**So‘z boshi ..... 3**
**I bob. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida tarixiy vaziyat va Abdurauf Fitrat ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishidagi omillar ..... 7**
§1.1. Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ..... 7
§1.2. Buxoro jadidchiligining asosiy yo‘nalishlari ..... 20
§1.3. Fitrat hayotining asosiy bosqichlari va ma’rifatparvarlik qarashlari ..... 33
Birinchi bobga xulosa ..... 51
**II bob. Abdurauf Fitratning tarixiy hamda badiiy asarlarida Turkiston va Buxoro tarixi masalalarining o‘rganilishi ..... 53**
§2.1. Mutafakkirning tarixiy tadqiqotlari ..... 53
§2.2. Fitratning publisistikasi va risolalarida Turkiston va Buxoro tarixi masalalari ..... 64
§2.3. Abdurauf Fitrat dramalarida tarix jarayonlarning aks etishi ..... 74
Ikkinchi bobga xulosa ..... 90
**III bob. Abdurauf Fitratning siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni 92**
§3.1. Abdurauf Fitratning “Islohot loyihasi” va davlat boshqaruvidagi faoliyati ..... 92
§3.2. Abdurauf Fitratning fojiali taqdiri ..... 103
Uchinchi bobga xulosa ..... 116
**Xulosa ..... 118**
**(So‘ngi so‘z o‘rnida) Millatga najot yo‘lin ko‘rsatgan jadid ..... 120**
**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati ..... 123**

DURDONA

www.nitropdf.com

DURDONA

www.nitropdf.com

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

**AHMADOVA ZEBINISO SHAVKATOVNA**

# MILLATGA NAJOT YO‘LIN KO‘RSATGAN JADID

**monografiya**

DURDONA

*Muharrir:* *A. Qalandarov*
*Texnik muharrir:* *G. Samiyeva*
*Musahhih:* *Sh. Qahhorov*
*Sahifalovchi:* *M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 08.09.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 8,7. Adadi 100. Buyurtma №468.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45

www.nitropdf.com